

1
7126

K. M. KARYAGIN



KONFUTSIY

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предельных
выдач

24.02.22
14.03.22
31.10.22

2.4

1
726

Karyagin K. M.

Своёво

Конфуций

Тарихий-биографик очерк

- 1768 -



«Fan» nashriyoti
Toshkent-2019

UO'K: 1(510)(092)
KBK 87g(5Xic)
K26

Tarjimon
Muzaffar AHMAD

K26
Karyagin, K. M.
Konfutsiy / K. M. Karyagin; tarjimon Muzaffar Ahmad. - T.: «Fan» nashriyoti, 2019. - 112 b.

Ushbu tarixiy-biografik ocherkda buyuk xitoy faylasufi Konfutsiyning hayoti va ta'limoti qalamga olingan. Asar Konfutsiy hayotidagi real voqealarga asoslangan. Ishonamizki, Konfutsiyning hayot tajribalari va hikmatlari siz uchun ham muhim dasturlamal bo'ladi.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Barcha huquqlar amaldagi qonunlarga asosan himoyalangan.

«Fan» nashriyot-matbaa uyining yozma ruxsatsiz ushbu nashrni qisman yoki to'liq holda boshqa ommaviy axborot vositalarida elektron yoki mexanik ko'rinishda ko'chirib bosish, magnit tashuvchi vositalarda tarqatish qat'iy taqiqlanadi.

UO'K: 1(510)(092)
KBK 87g(5Xic)

ISBN 978-9943-19-529-5

© Karyagin, K. M., 2019.
© «Fan» nashriyoti, 2019.

KIRISH

Qadimgi zamonlardagi ulug' odamlarning hayoti haqida saqlanib qolgan ma'lumotlarning ko'pi afsonaga aylanib ketgan. Ularda rost gaplar to'qimalar bilan shu qadar uzviy birlikda ketganki, odam ishonadigan haqiqatlarni to'qima gaplardan ajratib olish uchun uzoq payt ilmiy izlanishlar olib borishga to'g'ri keladi.

Xitoylik mutafakkir va jamiyat islohotchisi Konfutsiyning hayoti va ta'limoti haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar to'g'risida esa bunday deb bo'lmaydi. Xitoy solnomachilari buyuk ustozlarining hayoti haqidagi hikoyalarga bir ozgina kayoliy gaplarni qo'shsalar-da, asosan, voqealarni hech qanaga to'qima yoki bo'rtirmalarsiz keltiradilar. Bu hikoyalar shu qadar lo'nda va tabiiyki, ularga shubha bilan qarashga aslo o'rin qolmaydi.

Konfutsiyning tarjimaiyi holini tuzishda xitoy mumtoz adiblarning asarlari, nemis, fransuz va ingliz tillariga bir necha bor tarjima qilingan quyidagi ishonchli va mukammal nashrlardan foydalandik:

1. «The Chinese Classics». Xitoy muqaddas kitoblarning to'la nashri. London missionerlik jamiyatining a'zosi Leqqe'a tarjimai.

2. «History of China» by Thornton.

3. «L'Univers». La Chine par Pavuthier.

4. «Sharq dinlari. Konfutsiylik, buddizm va daosizm»¹

5. Arximandrit Xrisanf. «Qadimgi dunyo dinlari».

6. Arximandrit Xrisanf. «Sharq dinlari». 1-jild

7. Ioakimf, Bichurin. «Xitoyda fuqarolik va huquqiy munosabatlarda».

8. «Dinlar tarixi». SPb, 1869-72, 2-jild.

9. Iyul Simon. «Hozirgi Xitoy». va boshqa adabiyotlar.

¹ Ushbu tarixiy ocherk rus adibi K. M. Karyagin qalamiga mansub. Rus noshiri F. F. Pavlenkov (1839-1900) tomonidan XIX asr oxirlarida nashr qilingan.

XITOIY TARIXINING KONFUTSIYGACHA BO'LGAN DAVRI HAQIDA QISQACHA SO'Z

I

Xitoylik ulug' faylasufning hayoti va ta'limoti haqida hikoya qilishga kirishar ekanmiz, avvalo, bu mamlakatning Konfutsiy davrigacha bo'lgan tarixi haqida qisqacha gapirib o'tmoq joiz. Bunda o'quvchi, birinchidan, xitoylik buyuk ustoz yashagan va faoliyat yuritgan davr haqida, ikkinchidan, Konfutsiydan oldin yashagan donishmandlar, ularning ta'limotlari, Konfutsiyga ko'rsatgan ta'sirlari to'g'risida ham tasavvurga ega bo'ladi.

Xitoy xalqi tarixda salmoqli va o'ziga xos iz qoldirgan xalq. Tarix biz uchun nomlarinigina saqlagan, umridan ulug' yodgorliklar qoldirib, moziy sahifalaridan nom-nishonsiz o'chib ketgan bo'lmasa-da, umrining asl ko'rinishlarini yo'qotib, butunlay o'zgarib ketgan xalqlardan ko'ra xitoyliklar ancha qadimiyroq bo'lishlariga qaramay, ming yil muqaddam qanday bo'lsalar, hozir ham xuddi shu tarzda yashab kelmogdalar. Ular juda qadim zamonlardayoq o'zlarining savodxon va salohiyatli xalq ekanliklarini namoyon qildilar, madaniyat barpo etish qobiliyatlarini ko'rsata oldilar va uzoq asrlar mobaynida o'sha madaniyat namunalari asrab-avaylab kelmogdalar. Shuning uchun ham ularning madaniyat namunalari bundan uch ming yillar muqaddam yaratilgan paytda qanday bo'lsa, hozir ham shunday qadri. Hozirgi kunda ular g'alla ekish, dehqonchilik qilishda qanday yutuqlarga erishgan bo'lsalar, o'sha qadim zamonlarda ham dehqonchilik san'atini yuqori darajalarga ko'tara olganlar.

Ha, ular ekin-tikin va tuproq ilmidagi yuksak natijalarga erishdilar. Ular tuproq qatlamlari, o'g'it tayyorlash va sug'orish kabi dehqonchilik ilmlaridan yaxshi xabardor edilar.

Ular tut ekar, qurt boqar, turli gazlama va ipak matolar ishlab chiqarar, tikish va bichish ishlarini qoyilmaqom bajarar, turli xil uy jihozlari, asbob-uskunalar va harbiy qurol-aslahalar yasar, tangalar zarb etar, bo'yoq va tush ishlab chiqarar, fil buyagi va hayvon shoxlaridan turli xil narsalar yasar, bir so'z bilan aytganda, mehnatda ular hozir nimalarga erishayotgan bo'lsalar, o'sha zamonlarda ham shunday ishlarini qoyilmaqom bajarar edilar.

Ular tasviriy san'at asarlarini ham yaratgan, haykallar tuzashganlar. Me'moriy san'at namunalari yaratishda tasavvurlari nelarga qodirligini namoyon eta oldilar, boshqa san'at turrlarida erishgan muvaffaqiyatlarni bu sohalarida ham qo'llaganlar – ular qurgan inshootlarning katta qismi tosh poydevorlar g'arov-bambuk og'ochidan tiklanar edi. Ibodatxona qurganda ham ular ixchamlikka intilar, ibodatxona atrofini ustunlar, devorlar bilan o'rab olishar, to'ra esa qurbonlik noz-ne'matlari terib qo'yiladigan oddiy supachagina bo'lardi, xolos.

Juda qadimdan xitoylarda diniy dunyoqarash paydo bo'la boshlagan, biroq bular hali ancha nomukammal, mavhum, beqaror tushunchalar edi. Bu dunyoqarashning mohiyati, asosan, shundan iborat ediki, ular osmon va yerni butun jonli-jonsiz borliqning otasi va onasi deb bilar, shularga sig'inar edilar. Ularning nazdida, osmon – dunyoning egasi va xo'jayini, u – hukmdor, yer esa uning izmiga bo'ysunadi. Shunday qilib, osmonda xo'jayinlik, erlik, hukmdorlik ruhi tushunchasi (Yan) namoyon, shunga ko'ra osmon – butun borliqni, hayotni faol va mukammal harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Yerdagi esa ayvonga xos bo'ysunuvchanlik, ifro ruhi tushunchasi (In) ustun, shuning uchun u – o'lik, harakatsiz, faoliyatsiz yotgan ibtidodir. Harcha mukammal va faol tuyuluvchi hodisalar Yan tomonidan sodir etiladi, barcha qo'zg'almas (sabit), nomukammal, daxl va ishlovga muhtoj ibtido esa In tomonidandir. Shularga qaramay, xitoyliklar nazdida Yan hamma vaqt In bilan qo'shilib birga yuradi, xuddi bola tug'ilganda ota bilan ona qanday o'rin tutsalar, Yan bilan In ham hayotda shu taxlit bir-birlarini taqozo etadilar. Ular osmon va yerga topinish

bilan birga, ruhlar ham sig'inar, negaki ularning nazarida tabiatdagi hodisalar, turli xil balo-qazo, kasalliklar mana shu ruhlar tufayli kelib chiqadi. Ular ota-bobolar, ajdodlar ruhiga ham g'oyat ulkan hurmat-ehtirom bilan munosabarda bo'lar, ularga ham sig'inar, ularning sharafiga qurbonliklar qilar edilar. Negaki ajdodlar ruhi hamisha tiriklarni kuzatib turadi, muhofaza qiladi, yaxshi maslahatlar beradi, mabodo ularning jahlini chiqarsak, ustimizga balo-qazolarni boshlab keladi deb ishonardilar. Osmo-n-u zamin sharafiga, shuningdek, ruhlar va ajdodlarni yodlab har turli bayramlar o'tkazar, qurbonlik keltirish marosimlarida kuyilar chalar, she'rlar o'qir edilar.

Bularning bari o'sha paytlarda Xitoyda adabiy asarlar ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, xitoyliklar qadim zamonlarda yozuvni kashf qilganlar, dastlab bu yozuv narsa va predmetlarni anglatuvchi tasvirlardan iborat bo'lgan va bu xil tasvirlar (butun bir predmetni anglatuvchi suratlar) yordamida yozuv, o'qish-chizish, hisoblash amallari bajarilgan. Keyinchalik esa belgilar (bitta uzun, ikki qisqa chiziqlar) iste'molga kiritilgan va ularni turlicha joylashtirish yordamida har xil ma'no bildiruvchi yozuv ham qo'llanilgan. Xitoyliklar mana shu chiziq - yozuv yordamida qadimda kitob yozganlar. Konfutsiy zamoniga kelib, ular ilmda, tafakkurda ham yuqori darajada taraqqiyotga erishgan edilar.

Bu davrda xitoyliklar miqnotis milli, ya'ni kompasni ishlatish bilan, osmon jismlarining harakatlarini kuzatganlar, ularning hisob-kitobini yuritganlar, Quyosh va Oy tutilishini oldindan hisoblab chiqqanlar. Bu kabi astronomik bilimlar natijasida endi vaqtni to'g'ri hisoblash, turli xil taqvimlar tuzish ishlarini qoyilmaqom qilib uddalaganlar. Qadim zamonlardan Xitoyda bir yil 366 kunga bo'lingan, quyosh va oy harakatlanishining tezligini ma'lum bir tartibga solish uchun ilmiy iste'molda kabisa yili tushunchasini ishlatganlar. Shuning uchun ham xitoy taqvimlarida har 19 yilning o'n ikkitasi - 12 oydan, har yettitasi - 13 oydan iborat bo'lgan. Umuman, tabiiy fanlar va matematik bilimlarda ham ular yuksak taraqqiyotga erishganlar. Ular tibbiyot fanida ham juda ilgari lab ketgan bo'lib, tabiblar o'z ishining ustasi sifatida

qorong' taralganlar. Xitoyliklar orasida, agar osmon biror kasallik yuborsa, albatta, bu kasallikning davosini ham qo'shib yuboradi, degan tushuncha hozir ham mavjud. Ular mamlakat holatini o'ylab, yoshlarni tarbiyalash, o'qitish, kamolotga yetkazish maqsadida maktablar tashkil qilganlar. Bir so'z bilan aytganda, yevropaliklarga XIX-XX asrlardagina ayon bo'lgan juda ko'p ilmlar, tushunchalar, farazlar xitoyliklar uchun o'sha davrdayoq ma'lum edi.

Har bir tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, xitoyliklar qadim zamonlardayoq chet ellik mehmonlarni yaxshi kutib olganlar, o'zlarini uchun yangilik bo'lgan, foydasi tegadigan har bir narsani o'rganib, o'zlashtirib olishga tirishganlar. Xitoy hukmdorlari ana shunday bilimdon, tafakkurli chet el odamlarini o'zlariga yordamchi qilib ishga olganlar, shunga ko'ra aytish mumkinki, ana shu xorijlik maslahatchi, yordamchi odamlar ham Xitoyda ilim-fanning gullab-yashnashiga o'z hissalarini qo'shgan bo'lishlari haqiqatga juda yaqindir.

II

Biz yuqorida tilga olib o'tgan madaniy-ilmiy taraqqiyotga ular Xitoyning ilk hukmdorlarining dono siyosati va tinch-onoyshta hukmronlik qilishlari tufayli erishdilar. Xitoyda monarxik, patriarxal uslubda davlat boshqaruvi barqaror edi. Jamiyatning ijtimoiy tuzumida ota rahnamo bo'lgan oila asos hisoblanar, shuningdek, siyosiy tuzum tushunchasiga ko'ra mamlakat aholisi (xalq) ham bitta oila deb faraz qilinir, bu konadonning rahnamosi esa mamlakat hukmdori edi.

Har bir oilada bo'lgani kabi xalq ham mamlakat rahbari - oliy hukmdorni xudo deb bilishi, unga bo'yusinishi, unga sodiqat ila xizmat qilishi zarur edi. Mamlakat hukmdori osmon o'g'li hisoblanar, u muqaddas shaxs deb qabul qilinir va daxlsiz hukmdor sifatida ish yuritardi. Uning bu xil bedaxl faoliyati falak amri ostida, toki buyruqlari osmon buyruqlariga (ra'yiga) mos kelmay qolgunicha davom etardi. Aks holda, osmonning o'zi xalqqa norozilik bildirish va hukmdorga qarshi harakatlar (isyon) boshlashlari uchun izn berar va

hatto hukmdorni kuch bilan taxtdan ag'darib tashlashga ham ko'rsatma berardi. Qadimgi Xitoy kitoblarining birida shunday deyiladi: «Osmo'ning ko'z qarashi ma'nosini xalqning ko'zidan bilib olsa bo'ladi, osmo'nga nima yoqmayotganini xalqning xohish-irodasidan bilisa bo'ladi». Xitoyliklar dunyogarashiga ko'ra, hukmdor – ko'za, xalq esa shu ko'zani to'ldirib turgan suv. Ko'za qanaga shaklda bo'lsa, suv ham o'sha shaklda bo'ladi, ya'ni hukmdor qanday bo'lsa, xalq ham shunga yarasha bo'ladi. Mana shu nuqtaiyi nazardan kelib chiqib, qadimgi qonunshunoslar hukmdor axloqini ma'lum ijtimoiy tartib-qoidalariga moslashtirishga harakat qilganlar. Bu tartib-qoidalar chetga chiqilsa, bosh ibtido – ota (osmon)ning jabhi chiqadi deb tushunilgan. Qadimgi Xitoy donishmandlari aytganlariday, ezgulik (yaxshi amallarni bajaruvchi er) – davlatning, hukumatning asosi bo'lishi, davlat boshlig'i (oliy hukmdor) xalq farovonligini o'ylab faoliyat yuritishi kerak, u xalqning quyidagi to'g'iz ne'matga, farovonlikka bo'lgan ehtiyojini qondirish haqida muttasil o'ylamog'i lozim, bular: suv, olov, ma'danlar, yog'och (yoqilg'i), non (oshlik), ushbu ne'matlardan manfa'atli foydalana bilish, yaqinlar va qarindosh-urug'lar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, sog'liqni saqlash va hayotni (tiriklikni) ehtiyot tutish. Xitoy solnomalariga ko'ra, mamlakatning birinchi hukmdorlari afsonaviy qahramonlar emas, aynan tarixiy shaxslar bo'lgan Fusi, Xuandi, Yao, Yuy, Shunlar, O'ya sulolasi (2205–1766) va Shan (1766–1122) sulolasidan bo'lgan ko'pchilik hukmdorlar mana shunday oliyanob hukmdorlar edi, bular hukmronlik qilgan yillarda xalq tinch-osoyshtalikda, ma'murlikda yashadi. Dono hukmdorlardan bir nechtasining faoliyati haqida quyida so'z yuritib o'tamiz.

Solnomachilar ilk hukmdor sifatida birinchi yarim afsonaviy shaxs – dono Fusini tilga oladilar. Bu hukmdor Iso alayhissalom tavalludidan 3468 yil muqaddam taxtga chiqqan. U Xitoy manbalarida bir qancha dinij urf-odat va marosimlarning, yozuv belgilarining va 60 yilga mo'ljallangan taqvimning birinchi kashshoflaridan bo'lganligi ham tilga olinadi. U fuqarolik hayoti bilan bog'liq tartib-qoidalarini

birinchi bo'lib jamiyat hayotiga tatbiq etgan hukmdordir. Joriy qilingan ushbu ijtimoiy qonunlarga xalq ishonchini o'rnatish uchun Fusi mazkur qonunlarni chuqur ko'ldan chiqib kelgan aldarhonning yelkasidagi yozuvlardan ko'chirib olgan deb fikroya qilinadi. Bu bilan Fusi ushbu qonunlarning ilohiy kuchga ega ekanini ta'kidlaydi va qonunlarga bo'yusmaslik suto huzurida gunoh ekanini aytib fuqarolarni ogohlantiradi. Hukmdor tashqari Fusining yana 2 ta musiqiy asbobi kashf etgan ham aytiladi, bular – 27 torlitin (litraga o'xshash musiqiy asbobi) va 36 torli si (gitarasifat musiqiy asbobi)dir. «Tszin» deb nomlanuvchi yozma yodgorlik Fusi nomi bilan bog'liq manbalarining biri bo'lib, uning yana bir nomi – «Evrilishlar kitobidir», kitobda barcha hayvonot (fauna) va nabotot (flora) dunyosi namunalarning ibtidosi – kelib chiqishi yil fasllariga nomdard holda yoritiladi.

Fusidan keyin Xitoy taxtiga jangovar qobiliyatli hukmdor Xuandi chiqadi (kompas mana shu hukmdor davrida kashf qilingan). Xitoy solnomachilarining yozishicha, Xuandi o'zining jangovar yurishlarida kompasdan muvaffaqiyatli foydalangan. Uning hukmdorligi davrida Xitoy mamlakatini 10 ta viloyatga bo'lib boshqarish, og'irlik va uzunlik o'lchov birliklarini ham o'nlik sonlarida ifodalash urf bo'ldi. Yana mamlakatning iqtisodiy quvvatini oshirish, savdo yo'li, suv yo'llarining xizmatini yaxshilash va harbiy maqsadlarni bo'lab, o'sha paytda yo'l qurilishi, suv transporti aloqalarini yaxshilash ishlari amalga oshirildi. Xalq ma'naviyatini yuksaltirish niyatida Xuandi turmushda Oliy ruhlar sharafiga qutbontlik qilish marosimlarining tartib-qoidalarini maishiy jihatga kiritadi.

Xuandidan so'ng taxtga chiqqan hukmdorlarning eng mashhur Yao bo'ldi. U Iso alayhissalom tavalludidan 2350 yil muqaddam taxtga o'tirgan. Yao hukmdorligi davridan boshlab Xitoy mamlakati tarixi solnomalarda muntazam tartibda yozib boriladigan bo'ldi. Shuningdek, bu hukmdor fuqarolik hayoti tuzilishi borasida ham yangi, qat'iy tartibotlarni joriy qildi, vaqt sanog'ini hisob-kitob qilishda to'g'ri va avvaligiga qaraganda mukammalroq uslublar ishlab chiqdi, jinoyat borasida yozib

chiqilgan qonun-qoidalar Yao tomonidan nashr qilindi. Bu qonunlar og'ir jinoyat uchun yuzga tamga bosish, qo'l-oyoqni kesish, ko'zni o'yish, qatl kabi jazolarni, jiddiy ammo kechirsa bo'ladigan jinoyatlar uchun surgun qilish, yengil darajadagi jinoyatlar uchun esa dartralash yoki qamchilash, kaltaklash kabi jazolarni ko'zda tutardi. Jinoyatning ogli ravishda yoki beixtiyor sodir etilgani kabi holatlar jazo belgilarida inobatga olinadigan bo'ldi. Ba'zi holatlarda, (masalan, jinoyat qilgan jinoyatchining qaramog'idagi munkillagan onasi yolg'iz qoladigan sharoitlarda) jinoyatni jazosiz qoldirish va jinoyatchini oilasiga qaytarish imkoniyatlari izlab ko'riladigan bo'ldi. Yao hali o'zi tirik chog'idayoq Shunni o'zining o'rinbosari qilib tanlagan va uni valiahdlikka belgilab qo'ygan edi.

Yao va Shun ana shunday o'ylar edilar, ya'ni xalqlarni osmonning o'zi podshohlar vositasida boshqaradi, podshoh esa Osmonning yerdagi o'rinbosar (noibi)idir. Demak, Osmon bilan Zamin o'rtasida allaqanday bir ilohiy aloqa bor. Shuning uchun ham mamlakatdagi fuqarolarni boshqarish borasida osmon namunalari asosida ish yuritish lozim.

Bu podshohlar o'z raiyatlari uchun oliyanoblik namunasi bo'lib xizmat qildilar. Xalqning baxtli va farovon yashamog'i xalqning o'ziga bog'liq deb o'ylardi podshohlar. Bunda xalqning ezgu ma'naviyati hal qiluvchi o'rin tutadi. Ezgu ma'naviyat esa qonunlar bilan emas, o'rnatq bilan – podshoh va uning amaldorlarining namuna ko'rsatishi yordamida shakllantiriladi. Xalq hukmdorlarning, amaldorlarning ko'rsatmalariga emas, balki ular sevgan narsalarga ko'proq moyildirlar. Bulardan tashqari ular (Yao bilan Shun) xalq ma'naviyatini ma'rifatga mustahkamlashi mumkinligini anglab yetdilar, shuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, maktab ta'limini mukammallashtirishni yaxshilashga intildilar. Yao vafot etganida xalq uch yil mobaynida aza tutdi. Uning valiahd sifatida ishlagan, keyinroq esa uning o'rniga taxtga chiqqan Shun jinoyatlariga qarshi qo'llaniladigan qonunlarni sezilarli yumshatdi, amalda qo'llanib kelayotgan avvalgi jazolardan faqat tayov urish, mol-mulkni musodara qilish va surgun qilish jazolarigina saqlab qolindi.

Shun ham xuddi Yaoga o'xshab Yuy ismi o'smir yigitcha bilan birgalikda hukmdorlik qila boshladi, uni o'ziga valiahd qilib belgiladi. Ular birgalikda hukmdorlik qilgan yillarda (1237 va undan keyingi yillar) Xitoyda to'xtovsiz yuqgan yomg'irlardan keyin mamlakatda vulkan to'fon yuz berdi va Xitoy katta botqoqlikka aylanib qoldi. Yigirma yil mobaynida hukmdorlar xalq bilan birga tuproq qatlamini quritish ishlari bilan shug'ullandilar.

Mamlakatda botqoqni quritish ishlari yakuniga yetgach, Yuy tuproq qatlamini batafsil o'rganib chiqdi va yer maydonlarini don va oshliq ekinlar ektiriladigan maydonlarga bo'ldi. So'ng Yuy ekin maydonlarini turli xil uzunlikdagi kanallar yordamida yana ajratib chiqdi, kanallar endilikda suv toshqinlari paytida zax suvlarni oqizishda, qurg'oqchilik yillarida esa dalalarni sug'orish ishlarda foydalaniladigan bo'ldi. Shu tariqa ekin maydonlari 100 mudan 300 mugaacha bo'lgan ekinzorlarga aylandi (1 mu – 1210 ingliz futiga teng). Olingan hosilning o'ndan bir qismi yer solig'i sifatida davlat xazinasiga o'tadigan bo'ldi.

Yoydan keyin Sya va Shan sulolalaridan bir qator dono hukmdorlar taxtga chiqib, mamlakatni boshqardilar. Ularning davrida ham fuqarolar farovonligiga xizmat qiluvchi ko'plab qonunlar joriy qilindi. Qishloq xo'jaligiga e'tibor yanada oshdi, zero bu sohalar rivoji hukumat manfaatlariga xizmat qilardi. Shun ham qayd etish kerakki, qishloq xo'jaligida soliq va yer to'lovlari tenglashtirish, bir qator dehqonlarning haddan ortiq bo'yib, boshqalarning qashshoqlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik, yalqovlik yoki mammanlikka berilib ketmaslik kabi ishlar ham ko'zda tutilgan. Natijada barcha dala ishlari amalga oshirish bevosita hukumat amaldorlari nazorati ostiga o'tdi. Hukumat yer haydash, ekin ekish va hosil yig'ish vaqtini ham belgilab berar, shuningdek, yerni o'g'itlash yuzasidan ham qoidalar ishlab chiqar edi.

Hosil bo'lmay qolgan yillari xalqning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida hukumat zaxira don do'konlarini ta'sis qildi, bu do'konlarda davlatning uch yillik daromadining to'rtidan bir qismi to'plandi. Shu tariqa

to'plangan sholi, don va boshqa xil oshliqlar do'konlarda yig'ilar, mabodo chirib ketish xavfi tug'ilgudek bo'lsa, urug'lik donlar ekish uchun darhol dehqonlarga qarz, ya'ni ssuda shaklida bo'lib berilardi. Kuzda hosil yig'ish paytida ssudalar yana davlat g'aznasiga qaytarilardi. Hosil bo'lmay qolgan yillarda oshliq zaxiralari g'aznaga qaytarmaslik sharti bilan aholiga targatlardi.

Shu kabi oqilona chora-tadbirlar natijasida xalqning turmush tarzi farovonlasha bordi. Xalq dono podshoh hukmronligi davrida tinch-osoyishta yashadi. Davlat ham kuchayib, o'zining sarhadlarini tobora kengaytirib bordi. Izo Masih tavalludidan 1400 yil muqaddam taxtga chiqqan Shan sulolasi hukmdor davrida bu sulola In nomi bilan yuritila boshlandi. Bu paytda Xitoy mamlakati 24 ta vassal viloyatga bo'lingan bo'lib, ularning bari hukmdorlar qo'li ostida edi. Shundan so'ng Xitoy mamlakati tarixida tanazzul boshlandi.

III

In sulolasining so'nggi hukmdori yovuz va shafqatsiz bo'lib chiqdi. Uni na viloyatlardagi hokimlar, na xalq yaxshi ko'rar edi. Chjou viloyatining kuchli va ayyor hokimi bu vaziyatdan foydalanib, mustabid shohga qarshi qo'zg'olon ko'tardi va uni taxtdan ag'dardi. Yangi hukmdor taxtga chiqqach, o'z hokimiyatini kuchaytirish, o'ziga sodiq kishilarni ko'paytirish maqsadida mamlakatni mayda-mayda viloyatchalarga bo'lib tashlab va o'ziga yaqin odamlar, qarindosh-urug'lar, do'stlarini o'ziga kichik-kichik viloyatlarga rahbar qilib qo'ydi. Natijada mamlakat 156 ta viloyatga bo'linib ketdi. Konfutsiy tug'ilgan paytda Xitoy mamlakati mana shunday bo'laklarga bo'linib ketgan, bir paytlar qudratli va boy bo'lgan mamlakat endilikda zaiflashib, turli xil hokimlarning talash va urush-janjallari, o'zaro nizolari komida qolgan edi. Bu hol yuz yillab davom etib kelayotgandi. (Kichkina davlatlarga, turli xil mitti mamlakatlarga bo'linib ketib, markaziy hokimiyatning zaiflashish holatlarini biz o'tmish voqealaridan ham bilamiz – o'rta asrlarda feodal Yevropa tarixidagi, Rossiya tarixidagi boshboshdoqlik yillari

manzaralarini eslang!) Xitoy imperiyasida ham o'sha davrda viloyatlar orasida ko'plab o'zaro urush-janjallar, qo'shni xalqlar bilan dahshatli qirg'in-barotlar kelib chiqdi. Shunday qilib, davom etayotgan nizolar, da'vo-janjallar oqibatida ulkan imperiya endi halokat yoqasiga kelib qoldi. Bu mayda-chuyda hokimliklarning har biri kuchayishni, qo'shni o'lkalarni boqib olib hisobiga o'z hududlarini kengaytirishni istar va shu bilan oradagi nizo-janjallar alangasini battar alangalatib yulqorar edi. O'sha davrlarga oid tarixiy manbalar ham mana shunday birodarkushlik urushlari, mug'ambirona fitnalari, hukmdorlarga qarshi isyon, xiyonatlar tasviri ila to'lib-toshgan. Shu paytgacha ishlab chiqilgan, amalga joriy qilingan ma'naviy tashabbuslar, tadbir va marosimlar endi inqirozga uchrab boshlagan, asta-sekin unutilmoqda edi. Qonunlarga amal qilinmas, diniy marosimlar bajarilmas, kuchlilar o'zlar ustidan tegirmon toshi yurgizar, yirik yer egalari mayda hukmdorlarning yerlarini bosib olayotgan bir arosat zamon edi. Qo'lbarda esa mamlakatning turli puchmoqlarida daydilar, song'i tilanchilar, hech qanaqa hokimiyatni, qonunlarni tan olmaydigan qarog'chilar ko'payib ketdi. Holbuki, xalq to'xtovsiz tinchlar, talonchiliklar, boshboshdoqlik va tartibsizliklardan har qanday aziyat chekar, iqtisodiyotga tinimsiz raxna solayotgan qo'shin askarlariga oziq-ovqat topib berolmasdan boshi qotgan edi. Qo'shinlar esa oz emas-ko'p emas, yuz minglab jan-gonlar askarlardan tashkil topgan edi. Mamlakat misli ko'ril-magan taloto'plar komida qoldi. Fugarolar hokimlar uchun sa-maylar va qo'rg'onlar tiklash, kanallar qazish kabi og'ir ishlarni o'ziga majbur edi. Urush va qirg'in-barot janglar davri ana shularni taqozo qilardi. Bundan tashqari, amaldorlarning bazir va buyramlarini oziq-ovqat bilan, ust-boshlarini qimmatba-ho buyim-kechak bilan, ot-aravalarni yaltiroq toshlar bilan be-nash ham, boshqa chiqim, xarajatlar ham mana shu jabrdiyda soliq zimmasida edi. Bunaga zulm va ko'rgiliklar oxir-oqibatda xalqning nafsoneyatiga tegdi, garchi har qancha chidamli, bag'rikeng xalq bo'lganligiga qaramasdan, xitoyliklarning sabr-hissasi to'lib-toshdi. O'sha davrlarga oid xalq qo'shiqlarini ting-laganda ana shunday nohaqliklarni chuqur his qilish mumkin.

Soliqlar yukidan ezilgan, o'lgan va to'lovlardan ko'z ochilmay qolgan xalq ibtidoiy jamoa davridagi to's-to'polonlar, jaholat zamonining jirkanch tuzog'iga tushib qolayotgan edi. Jamiyat kishilarning yashash tarzi, munosabatlari – umuman hayotning o'zi islohotlarga, o'zgarishlarga muhtoj bo'lib qolgan. Davlat boshqaruvidagi boshboshdoqliklarga chek qo'yish xalqni yangi hayotga davlat etish davri allaqachon yetib kelgan edi. Ma'naviy va siyosiy tushkunlik, mamlakatning barcha sohalaridagi inqiroz, Xitoy jamiyatidagi misli ko'rilmagan o'pirlishlardan xalqni omon saqlab qola oladigan yangi bir dabo – aql egasining, ulug' bir rahnamoning, mutafakkirning paydo bo'lishini, dunyoga kelishini taqozo qilib qo'ygan edi.

Darhaqiqat, bu vaqtga kelib u yoki bu xilda davlat hayotiga qandaydir yangiliklar kiritish, mamlakatni birlashtirish zaruratini anglab yetgan odamlar paydo bo'la boshladi. Ular ichida gurol kuchi bilan mamlakatni birlashtirish orzu qilayotgan sarkardalar ham, diplomatik sobiqadamlar va sulhlar yo'li bilan maqsadga yetmoqchi bo'layotgan siyosatchilar ham (diplomatiya o'sha paytlarda ham katta ahamiyatga ega edi, «uch barmoq til yuz ming odamlar qo'shinga teng kela oladi» degan ibora shu zamonlardan qolgan edi) va nihoyat, pand-nasihat qilish bilan ahvoli o'nglash niyatidagi soddadil faylasuflar ham bor edi. «Soddadil» deb aytayotganimizning sababi, faylasuflar xalqning ma'naviy-diniy turmush tarzini barqarorlashtirish va yaxshilash, fuqarolik va jinoiy javobgarlikni kuchaytirish orqali qonun-qoida va tartibotni yo'lga qo'yish, xalqning moddiy farovonligini ta'minlash, qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishni yaxshilash bilan ko'zlangan maqsadlarga yetish mumkin deb o'ylardilar. Bunday faylasuflar safida bu Lao Tszzi, Konfutsiy va uning shogirdi Men Tszzi'ni ko'ramiz.

Lao Tszzi – hozirgi paytda ham Xitoyda amal qilib kelinayotgan daosizm dinining asoschisi edi. Daosizm – Osiyo qit'asining sharqidagi mamlakatlarda yashovchi aholining dunyog'arashida shakllangan din bo'lib, u qadimiy tafakkur

tasavvurlari bilan bog'liq. Ushbu dinning tub mohiyati shundan iborat ediki, butun borliqdagi tiriklikning asosiy sababi – oliy va mangu iloha (ruhoniya)ga bog'liq, insonning ruhi – o'sha ilohaning jilolanishi (emanatsiyasi)dir. Lao Tszzi shundan kelib chiqib, metampsixozis hodisasi (e'tiqod turi) ni asoslab berdi: Ruh – turli xil gunohlar bilan ifloslanmasa, o'zining ilohiy ibtidosiga, boshlang'ich nuqtasiga qaytadi, gunohlar esa ruhning boshqa jonivorlar olamida manzil tutishiga monelik qiladi. Bu g'oyani amalga oshirish uchun Lao Tszzi tashqi olamdan nafratlanish, ehtiros (hirs) va istaklardan qochib, har bir tamoyillarini ishlab chiqdi va shu omillar asosida ilohiy halovatlarga erishishni eng oliy saodat deb atadi.

Lao Tszzi hinduizmdan o'zlashtirgan deb taxmin qilinadigan jiddiy ta'limot Xitoyda hozirgi kunlarda ham amal qilinishini qaytib, U, asosan, oddiy xalq orasida yoyilgan bo'lib, boshqa bir din – Konfutsiy nomi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi dinchalik bo'lgan shuhrat qozona olmadi.

Endi esa ana o'sha dinning – Konfutsiy ta'limotining mohiyati, kelib chiqishi haqida gapiramiz.

² Men Tszzi (Mentsiy) – Xitoy tarixidagi eng ulug' faylasuflardan biri. Ermiqlar avvalgi 372–289 yillarda yashagan.

BIRINCHI BOB

KONFUTSIYNING TUG'ILISHI, BOLALIGI VA BALOG'AT YILLARI

Xitoy solnomachilari ulug' islohotchi bo'lmish Konfutsiyaning sulolaviy shajarasini yarim afsonaviy hukmdor davrlar turkumi tushunchasi va kompaning ixtirochisi, Iso Masih tavalludidan 2637 yil muqaddam taxtga chiqqan hukmdor Xuandidan boshlanishini e'tirof etadilar³. Ularning so'zicha, Konfutsiy ajdodlarining ko'pchiligi qobiliyatli ekan bilan ajralib turganlar va davlat ishlarida muhim ma'muriy, harbiy va fuqarolik lavozimlariga ko'tarilib borganlar. Iso Masih tavalludidan 800 yillar muqaddam yashab o'tgan bobolaridan biri qadimiy urf-odatlarini, tarixni juda sevgan va bilgan bo'lib, uning mana shu xislatlari Konfutsiyga ham o'tgani e'tirof qilinadi. Konfutsiy otasining nomi Shu Lyanxe bo'lib, u haqida solnomachilar shunday deb yozadilar: Shu Lyanxe harbiy xizmatdiligida gavdasining bahaybatligi, kuchilligi va hayron qoladigan darajada jasurligi bilan shuhrat qozongan ekan. Bu borada bir-biridan g'aroyiblik koyalari ham bor. Shu Lyanxe qaram davlat bo'lgan Lu sul tanatining uchinchi darajali Tszoy (Keyinchalik Tszouyuan) shahri hokimligiga tayinlanadi. Shu Lyanxening ikki xotini bo'lib, birinchisi, ya'ni bosh xotini unga to'g'iz nafar qiz tug'ib bergan, ikkinchi xotinidan jisman zaif o'g'il dunyoga keladi-da, ko'p o'tmay Menfi ismi bu farzand dunyodan o'tadi. O'ziga merosxo'r bo'la oladigan farzand dunyoga kelishi ni istagan Shu Lyanxening bosh xotini vafot qilganida u 70 yashar chool edi. Shu Lyanxe uzoq vaqt ikkilanishlardan keyin

³ Xitoyda nash-nasab juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, dono odamlar o'z oilalaridan chiqishi mumkin bo'lmagan hodisa deb qaralgan.

shahardagi tanqli xonadonlardan biri – Yan sulolasi bilan qatnashmoqchi bo'ladi. Yanlar xonadonida uch nafar qiz bor edi. Qizlarning otasi, garchi Shu Lyanxeni ko'ngil qilish istag'i bor bo'lsa-da, qizlarini bunday nomunosib shahariga majburlagisi kelmadi. Shuning uchun ham u qizlarni Shu Lyanxening taklifidan xabardor qiladi va Shu Lyanxe qizlarni qolganiga qaramay shahar hokimi lavozimida ishlab chiqarishni, kuchli va botir insonligini aytib:

Men mana shu insonning taklifini qabul qilishni juda muhim hisoblayman! Sizlarning ichingizda kim Shu Lyanxega rafiq bo'lishni sohlaysiz? – deb so'raydi.

Katta qiz va o'ranchasi indamay turganda Yan Chji ismi

bilardan rozilik so'rab o'tirasizmi? Bu ishini o'zingiz hal qilish qo'ya qolmayisizmi? – deydi.

Shunda otasi Yan Chjiiga Shu Lyanxe bilan taqdirini bog'labol taklif etadi. Kenja qizi rozi bo'ladi.

Yoshdan to'g'iz oy o'tib, Xitoy mamlakati tarixida eng muhim ro'l o'ynagan qonushunos mana shu nikohdan dunyoga keladi. Solnomachilar Konfutsiyaning hayoti va ijodiy faoliyati haqida hikoya qilish ekanlar, uning hayotida hech qanday g'aroyib, mo'ljaviy ish ro'y bermaganini qayd etadilar-u, bog'labol vogue borasida hayajon bilan yozadilar. Bunday muhtashab donishmandning dunyoga kelishi bilan bog'liq, bo'lgan keyin, homilador bo'lishi arafasida Yan Chji erining muhtashab qolgan chol ekanidan xavotirga tushib, eriga muhtashab NIT'syu tepaligiga birga chiqib kelishni iltimos qiladi. Tepalikka chiqqanlarida, yosh kelinchak Chji oliy iloha Shandi shahariga duo o'qib, aqlli-hushli farzand so'rab iltijo qiladi. Mana shu lahzalarda Chji o'z hayotiga ilohiydan, g'oyibdan bir qudrat aralashayotganini sezadi. Tepalikdan tushib kelayotganlarida yo'lda uchragan maysa-giyohlar, daraxtlar daraxt to'zini qillayotganday tuyulaveradi. Hammadan qiziq bo'lgan kelin-kuyov chorboqqa yetib kelganlarida ro'y beradi bo'lganining bog'ida ular Tsilin aida hosini ko'rib qoladilar.

Shu ifoyatlarida bu maxluqning odatlarini ko'rib qoladilar. Shu ifoyatlarida bu maxluqning odatlarini ko'rib qoladilar.

kekkirib-o'qchib, og'zidan toshlar chiqarib otadi. Bir toshda esa quyidagi so'zlar bitilgan edi: «Chiou sulolasi inqirozga yuz tutib boshlagan paytda xuddi zilol suvday pokiza bir bola tug'iladib, u saltanatsiz podshohga aylanadi». Yan Chji homiador paytda tushida qora Dini ko'radi, qora Di unga o'g'lini tut daraxti tagida tug'ishidan xabar beradi. To'lg'oq boshlanishi oldidan Yan Chji eridan o'sha daraxt qayerdaligini so'raydi. Eri unga daraxt qayerdaligini ko'rsatadi. Shunda Yan Chji o'sha daraxtni ko'rib istagi borligini bildirganda, keksa Shu Lyanxe uning istagini eshitib, hayron bo'ladi. Xotinining karomati tush ko'rganini anglagach esa safar tadorigini ko'rishni buyuradi. Chaqaloq tug'ilganda Nitsyu (Nishan) tepaligi ustida havoda ikkita ajdarho paydo bo'ladi, ular adirlarni o'ng va chap tomondan qo'riqlab, qanot qoqib uchib yurar, osmon-u falakda ajayib musiqiy ovoza qo'shiq kuylardi: «Bu muqaddas farzand tug'ilgandan osmon ham quvonib larzaga keldi!» Chaqaloq dunyoga kelgan lahzalarda yer ostidan iliq, toza suv qaynab chiqib boshladi va chaqaloqni yuvib bo'lganlari zahoti suv ham taqqa to'xtaydi. Chaqaloq tug'ilganidayoq juda g'alati, aytilish mumkinki, qo'rqinchli bir ko'rinishda edi. Masalan, uning og'zidan ko'lga, lablari buqanikiga, yelkalari ajdarhonikiga o'xshash va hokazo. Solnomachilar bu borada juda oshirib aytganlar, albatta, voqealar bayonida majoziy ma'noga ko'p urg'u berib yuborishgan. Keiling, yaxshisi, afsonaviy voqealarni bir chetga qo'yaylik-da, aniq dalillarga murojaat qilaylik.

Konfutsiyni haqiqiy tarjimai holi haqida uning shogirdlari juda batafsil va to'liq ma'lumotlar qoldirganlar. Bu qiziqarli ma'lumotlar buyuk faylasuf haqida ham, o'sha zamonlardagi urf-odatlar haqida ham bilimimizni, taassurlarimizni oshiradi.

Xitoy tadjrijiy jadvallari Konfutsiyni tavalludi hukmdori Linvan (dono shoh) hukmronligining 20-yili davrida 10-oyning 21-kunida, ya'ni Iso Masih tavalludidan (eramizdan) 551 yil muqaddam ro'y berganini ko'rsatadi. Konfutsiyni tug'ilish paytida onasi borib ibodat qilgan adirlik sharafiga chaqaloqni Kun Tsyu deb nom berilgan edi. Uning bolalik yillari haqidagi ma'lumotlar ancha kam. Biz faqatgina u ikki yoshdan oshganda

osmondan ayirligani, juda yoshligidan oq mo'min-qobil bo'lib o'rganib, kattalarni doim izzat-hurmatlab yurgani-yu, yoshiga nisbatan vazmin va sermulo-haza bola bo'lganini bilamiz, yohu, u diniy marosimlar, qurbonlik keltirishga oid o'yinlar o'ynashni juda yoqtirardi. Hikoya qilishlaricha, u o'ziga tengdosh bolakaylarni to'plardi-da, kattalarning ajdodlar sharafiga marosim o'tkazgan va qurbonlik keltirgandagi harakatlarni, o'sha marosim qoidalarini yodida qolgancha bolakaylar bilan birgalikda takrorlardi. Qadimgi urf-odatlariga bo'lgan hurmat bilan qaragan Konfutsiyda o'tmishga, ota-bobalar sharafiga sodiqat shu tariqa paydo bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Konfutsiyni maktabda o'qigan yillari haqida ham ma'lumotlar ko'p saqlanib qolmagan. Rivoyatlarga ko'ra, Kun Tsyu yetti yoshga to'lganida, shu paytgacha o'g'lining tarbiyasi bilan o'zi shug'ullanib kelgan onasi endi uni bolasiga ta'lim berib, ustoz yollab o'qitmoqchi bo'ladi. Ammo yoshgina bolam uyiga o'qituvchi yollab keltirsa, bu ancha gap-so'zlarga e'tibol bo'lishi mumkinligini o'ylab, Kun Tsyuni jamoat maktabiga topshirishni ma'qul ko'radi. Jamoat maktablari Xitoyda davlat tashkili topgan yillardanoq ochilgan edi. Xitoyning bu maktablari xalqni ma'naviyati qilib tarbiyalashda muhim o'ringa beqiyos rol o'ynashini yaxshi tushunar, shunga ko'ra bolalarni maktabga o'qitish uchun maktablarda ta'lim olishni takomillashtirish haqida qayg'urar edilar. Keyingi hukmdor davrida barcha shaharlarda va hatto qishloqlarda ham o'quv muassasalari ta'sis etila boshlagan edi. Bu o'quv darajalarida yoshlar ilim o'rganar, tarbiyalanar, hunar sohib bo'lib yetishar edilar. Har bir bolakay 8 yoshga to'lgach, avvaliga quyil darajadagi maktabga olinar, u yerda bolaga insoniy muomala va o'qib-oxloq o'rgatilar, keyin esa xalqona urf-odatlar, musiqa ta'limi, yoydan o'q otish va jang aravasini qo'llash haydash saboqlari, hisob-kitob ilmi o'rgatilardi. Bolalar 15 yoshga to'lganlaridan keyin ularning ichidan eng qobiliyatlilarga (ular kimning farzandi bo'lishidan qat'i nazar) oliy ta'lim muassasasiga kirish imkoniyati yaratilar, bu yerda talabalarga ma'naviyat, falsafa asoslari o'rgatilardi. Shuni ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning

mustaqil fikr yuritishlariga e'tibor berilmas, ular, asosan, ota-bobolardan meros qolgan pand-nasihatlari, fikr-mulohazalar va ma'lumotlarni yodlab, miyaga quyib olish bilan bogliq na cheklanar edilar. Tez orada Konfutsiy ham mana shunday maktablardan biriga joylashadi. Maktabdaligidayoq o'zining tirishqoqligi, qobiliyati, kamtarligi va ilmga intilishi bilan barchaga ma'qul tushadi. 17 yoshida o'qituvchisi, tanqidi olim Pin Chjunning yordamchisi darajasigacha ko'tariladi. Pin Chjun mudarris bo'lish bilan birga, Konfutsiy va uning onasi yashaydigan shaharning hokimi ham edi. Yosh Chjun (Konfutsiyning yana bir ismi Chjun edi) tengqur talabalari bilan birgalikda shug'ullanar ekan, ularga o'z bilimlarini oshirishda yordam berar, mustaqil olgan bilimlarini muvaffaqiyatli tahkamlash orqali tafakkur yuritishiga ko'maklashardi. Bu paytda Konfutsiyning o'zi ham qadimgi mualliflarning yozib qoldirgan kitoblarni qiziqib o'qishga kirishgan, shu sababli ham tinimsiz mutolaa qilish bilan band bo'lardi.

Konfutsiy oliy ta'lim maktabini tugatib, onasining qisqartirib va maslahati bilan davlat xizmatiga ishga kirdi. Unga kamtarligi lavozim tekkan – bozor pesttaxtalardagi sabzavot va meva-chevalarning sifatini nazorat qilish uning zimmasidagi vazifa edi. Konfutsiy bu xil quyi darajadagi vazifadan orlamaydi, oqsuyak tabaqasiga mansubligini pesh qilib o'tirmasdan yengil shimarib ishga kirishib ketdi. U mana shu eng quyi va mushda yurib ham xalqqa, Vatanga, qolaversa, hamsaharlari xizmat qilib, obro'-e'tibor orttirish mumkinligini yaxshi bilardi, tushunar edi. Konfutsiy erta sahardanoq o'zining qo'l ostidagi tajribali, bozor ilmining ustasi bo'lib ketgan odamlar bilan pesttaxtalarga terib qo'yilgan noz-ne'matlarining, sabzavot va meva-chevalarning, go'sht va non-patirlarning sifatini tekshirib chiqar, halol sotuvchilarni rag'batlantirar, xaridorini aldamog'chi bo'lgan ayyor sotuvchilarni tutib, jazolar edi. Oradan ko'p o'tmay, Konfutsiy qo'llagan chora-tadbirlar natijasida Tszou shahri bozorlarida mug'ambir va aldog'chi sotuvchilarning xaridorini chuv tushiradigan ustamonlar qolmadi. Xizmatdan bo'sh paytlarida u o'zini ilm dunyosiga urar, uydan nari ketmay kitob mutolaa qilardi, ahyon-ahyonda shahar tashqarilariga

shahar dehqonlarning mehnati bilan tanishardi. Aytganday, har bir dehqonlardagi zaxira ko'lami bilan qiziqish ham uning munosabatlari vazifa edi. Shu taxlit vaqtni mutolaaga, sayr-u sayxanaga, ish o'rganishga bag'ishlab, tajriba va o'rganishlari orasidan berdi. Konfutsiy kitoblarda yozilmagan munosabatlar, tuproq qatlamlariga qanday ishlov berish, qanday qilib yerini unumdor qilish, don mahsulotlarini chirishdan tashqari vaqt samarali asrash kabi turmush va dehqonchilik bilan bogliq bo'lgan ilmlarni o'rganib chiqdi. Bir so'z bilan aytganda, o'zining xizmat vazifalarini bajarish barobarida u hamsaharlari orasida dono, tadbirkor, ishga chanoq va halol ishlar sodirini sifatida nom qozondi. Ona shahrida qozongan shon-shuhrati endilikda umrbod uni tark etmas, aksincha, yangi yangi ilm cho'qqilari tomon, olim va donishmand odamlar davlat tomon boshlar edi.

Konfutsiy 19 yoshida obro'li bir xonadonda o'sib- yetilayotgan Tsi Guan ismi qizga uylanadi. Bir yildan so'ng ular o'g'li farzand ko'radilar. Lu viloyatining hokimi Konfutsiy xonadonida yangi mehmon dunyoga kelganini eshitib, ularning oilasiga 2 ta zog'ora baliqni sovg'a qilib yuboradi. Konfutsiy bu qadar izzat-hurmat, e'tibordan boshi namangga yetib, minnatdorlik o'rnida o'g'liga Li Boyuy deb nom qo'yadi (Li – xitoycha «zog'ora baliq», Boyuy – «birinchi» degan ma'nolarni anglatadi). Keyinchalik Konfutsiy yana bir o'g'li farzand ham ko'radi.

Bu paytga kelib, Konfutsiyning xizmat lavozimi ham ko'tariladi. Lu viloyati hokimi yosh Konfutsiy ekin dalalari, ustamonlar va chorva ishlari bo'yicha nazoratchi vazifasiga tayinlanadi. Shuningdek, unga avvalgi tartiblarni o'zgartirish va yangi tartib-qoidalarini joriy qilish huquqi ham beriladi. Yangi farzandida ishlab yuritib, Konfutsiy o'zining beqiyos salohiyatini ekanini takror-takror namoyish qila oldi.

U qishloq xo'jaligi sohasidagi har bitta mayda-chuyda ishlariga e'tibor bilan qarar, hech narsani esdan chiqarmas, har bir sohada yangilik joriy etishga, shu bilan hosildorlikni ko'tarishga, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, hayot darajalarini yaxshilashga, dehqonlarning og'irini yengil

qilishga intilar edi. U goh ishonitirish va iltimos qilish, goh jazolash, goh yordam, maslahatlar berish yo'li bilan o'z maqsadiga erisha bordi. Konfutsiyni xatti-harakatlari baholay ketmadi. U rahbarlik qilgan davrda viloyatda dehqonlar hayoti yaxshilandi, tashlandiq dalalar unumdor yerlarga aylantirildi, uy jonivorlari va poda-suruvlar ko'paydi, ularning maishati yaxshilandi.

IKKINCHI BOB

KONFUTSIYNING FAOL HAYOTI BOSHLANISHI

Davlat oldidagi samarali xizmatlari, viloyat miqyosidagi ulug' faoliyati tufayli Konfutsiyni obro'si oshib ketdi. Hamma uni kelajakda oliy lavozimlar, yorqin taqdir kutayotganini bashorat qilar, shunday inson bilan bir shaharda yashab, nafa olayotganidan faxrlanar edi. Ammo kutilmaganda ro'y bergan onasining o'limi Konfutsiyni o'z lavozimidan iste'fo berishga, jamoat orasidagi faoliyatini to'xtatishga majbur qildi. Bu voqea Iso Masih tavalludidan 528 yil muqaddam ro'y berdi. Bu paytda Konfutsiy 23 yoshda edi. U uch yil uzlatda yashadi.

Xitoyda farzandlarning ota yoki ona vafoti tufayli motam tutishi, uzlatga chekinishi, odamlar ko'zidan yiroqqa ketishi yoki ularga ko'rimsalik, aza tutish kabi odatlar azaldan bor bo'lib, bunday paytda farzandlar hatto harbiy xizmatda bo'lsalar ham iste'foga chiqar, faqat aza muddati tugagandan keyingina ular o'z ishlari qaytib kelishlari urf bo'lgan edi. Bu odat xitoyliklarda «vazifasiga tiklanish» deb nomlanadi. Agar oilada farzand bo'lmasa, bu mas'ul lozimotni xonadondagi nabira, evara yoki asrandi farzand o'tashi mumkinligi ham ko'zda tutiladi. Motam yillari mobaynida azador farzand ichkilik ichmas, uydan chiqmas, xotini bilan birga yotmas, ziyofat-to'ylarda ishtirok etmasdi⁴. Konfutsiy yoshligidanoq

⁴ Xitoyning muqaddas kitoblari shunday deyiladi: «Kimki aza tutayotgan ekan, u shirin taomlardan tiyilmog'i, quvnoq musiqaga tinglashni bas qilmog'i, to'liq farog'atdan yiroq bo'lmog'i lozim. Farzand faqat uch yoshga to'lgandagina ota ona qo'lidin yerga tushadi, shunday ekan, farzandning ota-onaga tutadigan motamni besa uch yil davom etmog'i kerak.

motam urf odatlarga sadoqat ruhida tabiia topgan, ota-onalar bejarib kelgan amallarni butun ikr-chikirlarigacha o'z o'ziga harakat qilar, biron urf bajarilmay qolsa, buni o'z o'ziga ruhiga xiyonat deb bilardi. Xizmat vazifasidan iste'foga chiqqach, u, avvalo, onasini risoladagidek dafn qilish bilan shug'ullandi. Onasini bundan yigirma yilcha muqaddam o'z o'ziga o'zining yoniga dafn etishni maqsadga muvofiq deb bildi. Dafn marosimi jarayonida Konfutsiy ilk bor o'zini jamoat murabbiyi, xalq maslahatchisi va ustoz sifatida namoyon qildi. Yosh faylasuf xalqqa qarata nutq irad qildi: «Hayotligida umrini, orzu-umidlarini birgalikda bog'lagan odamlar o'limlaridan keyin ham ajralmasliklari kerak. O'limning suyaklarini yonma-yon - erkakning suyakini Sharq tomonga, ayolning suyaklarini G'arb tomonga qo'ytinglar. O'limning boshlari Shimolga, oyloqlari Janubga qaratib qo'yilsin. O'limning jasadiga yovvoyi hayvonlar daxl qilmasliklari uchun yerni shimdirilgan yoki lok bilan bo'yalgan 4 dyumlik qattiq tasma bilan iboratlanglar. Qabrlari to'kilib, yer bilan tekislanib ko'rinmasligi uchun yaxshisi ularni tepalikka, adir yerlarga dafn qiltinglar.

Dafn qilishdagi bu xil ko'rsatmalar o'sha davrdagi dafn odatlaridan anchagina farq qilardi. Gap shundaki, Konfutsiy jamoatga kelib, farzandlar ota-onalarini qanday bo'lsa shunday qilsa, duch kelgan yerga ko'mib tashlayveradigan bo'lib qolishgandi, ko'mganlaridan keyin esa ko'pincha ota-onalarini unutilb yuborishar, binobarin, motam muddati ham o'tgach, bir necha kungina davom etardi, xolos. Konfutsiy esa butunlay boshqacha fikr yuritdi, bu borada u qadimgi otabahol qanday yo'l tutgan bo'lsa, o'sha odatlarga qaytishni ko'rib qildi. Konfutsiy o'zining birinchi va'zlaridayoq o'tganlarning ruhlarini yod qilish tiriklarning burchi ekanini ta'kidlab, inson sha'ni, xotirasini ulug'lovchi bunday qat'iyatlarga amal qilish - farzandlar uchun sinov, ishonchli savol ekanini aytishdan charchamasdi. Marhum ota-onalarni unutilib esa ma'naviy tubanlikdan darak, hozir odamlar, jamoat mana shunday holatda turibdi, ya'ni ular uyat va vijdon qimmatligini unutganlar, eng ayanchli, qahr-g'azabni keltiradigan

ahvolga ham loqayd, bafarq qaraydigan bo'lib qolganlar. Konfutsiy odamlarni ana shunday baxtqorlilardan ogohlantirishni istardi, u insonlarni insonparvar bo'lib qolishga da'vat etardi, inson – zamin podshohi, hamma narsa unga bo'ysunib yashaydi, u – osmon ostida yashovchi xilqatlarning eng aziz-u mukarramidir. Loqayd-befarqlik esa insonni ana shunday sharaiddan mosuvo qiladi, uni eng tuban, yovvoyi hayvonlar qatoriga qo'shib qo'yadi.

- Insonlar bir-birlarini sevmog'i, hurmat qilmog'i lozim. Har bitta inson - insoniyat deb atalmish muhtasham doiradagi bir halqa. Ana shuning uchun ham inson bolasi o'zini vujudidagi keltirgan odamlar oldida hamisha va har doim qarzdor. Agar ular bo'lmaganda edi, bizlar ham bo'lmashdik. Tiriklar tadbir paytlarida yaxshilik qila olganliklari uchun marhumlarni hamisha manfaaddor bo'lmog'lari joiz. Marhumlarni hurmatlashning eng soddasi, eng samimiy va eng tabiiy o'li - marhumlarni xotirasini yodlamoq. Ularning xotirasini pok tutmoq, jannat vujudiga kelgan dastlabki paytlardagi urf-odatlarni tiklamoq, ya'ni ota-bobolar odatlarini ado qilmoqdir. Shubha yo'qki, biz o'rganlarni qanday izzat-hurmat qilolsak, bizlar o'zimizni keyin tiriklar ham bizlarni yodlab, xotiramizni ana shunday pok tutadilar. Sizga zaminda o'rin bergan odamlarni sizlar qanday ardoqlasangiz, sizdan keyin keladigan insonlar ham sizlarni ana shunday ardoqlaydi.

Onasini dafn qilgan Konfutsiy endi uch yillik motam amallarini ado qilishga kirishdi. U uch yil mobaynida uzlatib zohidona umr kechirdi, ulug' yo'qotishning qayg'u-tasarruf chekdi va ilm olish, kitob mutolaa qilish bilan shug'ullandi. Shu yillar davomida u o'z bilimlarini yanada kengaytirish, maktabda va davlat xizmatida yurgan chog'ida o'rganmagan bilimagan narsalarini yanada chuqurroq egallab oldi.

o'ziga va har kuni o'zining kamolot sari boshlash xuddi
qanday muammolardan qaytib kelgan do'stingni ko'rganday
qanday ekanmi? — deb mulohaza yuritadi Konfutsiy. Uning
shu o'quvda ko'ra odam bolasi barcha bo'sh vaqtini
o'zining baxtishlamog'i kerak.

Afhakat, atrofidagi mungli va achchiq hayot manzaralari o'ziga qalbini quqshatib yuborar, shunday damlarda Konfutsiy bo'lib kitob tepasida vaqt o'tkazibgina tashtin topardi. Qanday qilib, Konfutsiy qadimgi muqaddas kitoblarni va boshqa hukmdorlarning dono ko'rsatmalari bitilgan bitiklarni o'qibdi qilar, ayman mana shularning asarlarida yuksak taqabul e'tirof etilgan ma'naviy g'oyalarni izlab topardi. Konfutsiy o'limshdagi Yao, Shun, Yuy va boshqa hukmdorlarni o'ziga shunday namunalil hukmdorlardan deb sanar, uning davrida mana shu hukmdorlar mukammal zotlar, ma'naviy qadrlir timsollari va eng yaxshi podshohlar edi. Konfutsiy bittan imti mobaynida ularning hayoti va timsolini o'ziga namuna qilib oldi va ularga og'ishmay amal qilib keldi. Qadimiy hukmdorlari o'qib-o'rganishdan tashqari, Konfutsiy o'zining o'ziga son'kdagi kamolotini mukammallashtirish borasida o'z timsoliz shug'ullanardi, zero xitoyliklar nazarida ushu timsollariz odamzot o'zini ziyoli deb sanashga haqi yo'q edi. Kitob son'atning oliti turi bor, bular – musiqa ilmi, ilohiyot va fangaolk, urf-odat va marosimlar, matematika, husnixat ham qutrol-aslaha ishlatish va jang aravasini boshqarish ham shundan iborat.

Heq o'tmay uning ilm sohasidagi shuhrati butun Xitoy boylab yoyildi va turli tarafdin Konfutsiy huzuriga ilm va badiiyat ishtagorlari guras-guras bo'lib kela boshladi. Uning

oldiga kelayotgan odamlar orasida yoshlar ham, mo'yashlar ham, boylar ham, kambag'allar ham, oqsuyaklar ham, odling fugarolar ham, harbiylar ham, dehqonlar ham bor edi, u hech kimdan maslahat va yordamini ayamasdi. Yosh va ilgachaqanoq yigitlar shogird bo'lib uning yonida qolar, ba'zilar o'z istagan ilm yoki hunarni egallab olguncha ustoz maslahatlariga amal qilib, bir havodan nafas olib birga yashar, keyin yana o'z yo'lga, o'z vazifasiga qaytib ketardi. Yan o'lkasining hokim yosh faylasufning oritib borayotgan shon-shuhratini eshitib uning huzuriga o'zining bir a'yonini yuborib, xalqni boshqarish borasida Konfutsiydan maslahat so'radi.

A'yonning savoliga faylasuf bunday javob berdi:

– Men hokimni, u boshqarayotgan mamlakat va xalqni ko'rmay turib, bu mamlakat va xalqni qanday boshqarish foydaliroq ekani haqida biron-bir maslahat bera olmayman albatta. Agar hokim mendan u yoki bu xil holatlarda qadimgi podshohlar qanday yo'l tutgani borasida so'raganda edi, men hokimningni qoniqtiradigan javob aytgan bo'larдим, zero men faqat o'zim bilgan, o'rgangan narsalar haqidagina ayta olaman. Hokimningga shu gaplarimni to'lagigicha yetkazi.

Javob hokimga to'lagigicha yetkazildi, albatta. Konfutsiy ertasigayoq Yan viloyati hokimi huzuriga bordi, qonunlar va axloq-odobni isloh qilish ishlariga kirishib ketdi. O'ziga berilgan topshiriqni bajarib bo'lgach, Konfutsiy hokimga bunday dedi:

– Men o'z burchimni ado etdim, topshiriq bajarildi. Endi men boray. Yordamimga ko'z tikib turganlar oz emas hali.

Konfutsiy Yan viloyatidan Ts'in viloyatiga o'tdi. Zamonaning eng mashhur mashhug'i Shi Syan mana shu viloyatda yashardi. Bu yerda Konfutsiy o'zining musiqiy bilimni takomilliga yetkazmoqchi bo'ldi. Konfutsiy musiqi ilimga beqiyos hurmat ila qarar, musiqani falakning odamzotga ato qilgan bebabu tuhfasi deb bilardi. Darhaqiqat, inson ma'naviy dunyoni yuksaltirishda, unga ezgu fazilatlarini bag'ishlashda, inson qalbini olov bo'lib yoqayotgan ehtiroslarni jilovlashda, qalbiya misli ko'rilmagan huzur-halovat ato etishda musiqaning oldiga tushadigani bormikin? Musiqaga oid bilimni takomilliga

yetkazish uchun Konfutsiy bor-yo'g'i bir hafta vaqtini sarfladi, shu kundan biz – bugungi zamon odamlari, u paytdagi musiqaga ilmiy unchalik ham chuqur bo'lmaganiga, musiqaning a'ni haqda unchalik murakkab bo'lmaganiga ishonch hosil qildik.

Musiqi haqidagi o'zining bir hikmatli so'zida u musiqaga shuni o'rganish bo'yicha g'oyat jo'yali fikrni o'rtaga tashlaydi. U bunday deydi: «Musiqi ilmini o'rganish juda oson, avvalo keyin fikrlosida barcha cholg'ular yaxshi sozlangan bo'lishi kerak, shunda kuy chalinishi mobaynida barchasi silliq ketadi, shunda ham yaxshi bo'ladi».

Shu bo'lishidan qat'i nazar, Konfutsiy musiqani juda qadrlayotganidan salqning fe'l-atvorini muloyim qiliuvchi vosita sifatida o'zining saboqlarida foydalanar edi. Konfutsiy hikmatlarida bunday deyiladi: «Axloqingizni o'zgartirmoqchimisiz? Musiqani o'rganay o'rganing. Musiqi – osmon va zaminning birlashuvini namoyish etadigan va tasvirlaydi. Musiqi bor ekan, saltanat faoliyatida shu bilan ishlash bo'ladi».

Solhomachilar so'ziga qaraganda, Konfutsiy musiqi haqida fikr ham yozgan, afsuski, bu asari keyinchalik yo'qolib ketgan solhomachilar Konfutsiyning shu so'zlarini ham yozib qolganlar, Konfutsiy yangi o'rgangan kuyini Shi Syanga berib berish niyatida uning oldiga kelib bunday degan ekan:

Foqli men tog' cho'qqisidan qarab, butun atrof va kengliklarni ko'rib turgan odamga o'xshayman. Musiqada ham shu mumkin bo'lgan hamma narsaga aqlim yetadi. Musiqaning natijasida men chalgan mana shu qadimiy kuyda yashiringan mazmunni ham anglab yetdim. Men bu kuyi chalar ekanman, uni bastalagan mashhugning barcha xususligi bo'lgan fikrlari xayolimdan o'tdi, men xayolan mashhugni ko'rdim, uni eshitdim, u bilan mulqot qildim. U o'ziga bo'yl, mahzun chehrali, ko'zlari kulib turganday, ovozi ingilay odam ekan. Bir so'z bilan aytganda, bu odam – U Van Konfutsiyning hokimi bo'lgan ekan, shunday emasmi? To'g'ri deganmi?

Shi Syan uning taxminlarini ma'qullar ekan, hayajonga chiqib kitob qildi:

- Men sizning ustozingiz emas, shogirdingiz bo'lishga yarayman, xolosi!

UCHINCHI BOB

QADIMGI XITOIY DONISHMANDLARINING HIKMATLARI VA KONFUTSIYNING BU HAQDA AYTGAN FIKRLARI

Yan va Tsin viloyatlariga qilgan sayohatidan so'ng Konfutsiy bunday sayohatlar juda foydali ekanini o'zgartirib etdi. Mana shu usuldagina xalq ruhi haqida sog'lom fikr va haqoniy mulohaza yuritish mumkinligiga ishonch hosil qildi, yo'qsa boshqalarning yolg'on gaplariga, f'arazli so'zlariga laqqa tushib qolish hech gap emasdi. Keyinchalik ham u yoli bu viloyatga sayohat qilish imkonini tug'ilib qolganday bo'lsa, Konfutsiy bundan unumli foydalanishga harakat qiladigan bo'ldi. Bunday imkoniyatlarning tez-tez mavridi kelib turardi. Luga qaytib kelgach, Konfutsiy yana ilmiy mas'ulotlariga berildi. U donishmandlik va haqiqat sari siltash bilan tashvish Unga yaqin bo'lgan kishilar Konfutsiyning bu yo'ldan qaytarishiga urinish, biron-bir ishga kiritishga undardilar.

- Qarorim qat'iy, - deb javob berardi ularga Konfutsiy. - Mening maqsadim - foydam tegishi mumkin bo'lgan odamlarning hammasiga xizmat qilish. Barcha insonlar - yagona oilaning farzandlaridir, men ularga yo'l ko'rsatuvchi ustoz bo'lmog'im kerak!

Darhaqiqat, shunday ham bo'ldi - ko'p o'tmay uning uy olimlar to'planadigan joy - ilm o'chog'iga aylandi.

Tez orada Konfutsiy Luni tark etib, Tsi viloyatiga yo'l oldi. Bu viloyat hokimi mashhur faylasufni ko'rish, u bilan suhbatlashish, uning maslahatlari va tajribalaridan foydalanish niyatida Konfutsiyning o'z huzuriga taklif etgan edi.

Konfutsiy Tsi viloyatiga jo'nab ketayotganda unga hamroh bo'lish, kuzatib qo'yish niyatida yo'lga chiqqan odamlar ham unga ergashdi, bular - Konfutsiyning shogirdlari, ustozdan bir

bajara bo'lsin aytilgisi kelmagan muxlislar edi. Konfutsiy ularni qoliban qaytarishga urinmadi, yo'l azobidan cho'chiganlar, shu barchasini hamingadar bo'lgan muxlislar o'zlari qaytib ketishardi.

Yo'lga chiqqan olomon bir kuni yo'l chetida faryod chekib o'tirgan bir kishining ovozi eshitib qoldi. Kelib bilsalariki, bu odam o'zini osmoqqa qasd qilgan bir baxtiqaro ekan. Darhol uning bo'yindan chilvini olib tashladilar. Konfutsiy aravadan tushib, uning bu harakati sababini surishtirdi.

Bu odamning aytishiga qaraganda, hayoti nihoyatda qizg'ini kechayotgan ekan. U bolaligidan boshlab donishmandlikka havas qo'yg'an, shu yo'lga qo'llig'a tushgan hamma narsani o'qiyvergan. Ilm-fan o'rganish maqsadida yashovli tark etib, sayohatlarga chiqqan. Viloyatma-viloyat gapirib, butun mamlakatni ko'rgan. Oradan yillar o'tgan. U endi Vatnimga qaytishni o'ylab qolgan. Shunday qilgan ham Yurtiga qaytgan, uylanagan. Bu orada ota-onasi vafot etib qolgan. Vaholanki, u hali padari buzrukvori va vohidayi muhtaramasi uchun biron bir ish qilishga, ularning og'irini yengillatishga ulgurmagan. Uni o'limga undagan birinchi sabab - mana shu ekan. Ikkinchi sabab shundan iborat bo'lganki, bu inson sayohatlari vaqtida o'zining odamlarga xizmatkorlik qila olishiga, ularga tegishli yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishiga ishonch hosil qilgan, ota-onasining motami tugagach, u shu qobiliyati haqida Tsi hokimiga og'iz ochib, uning xizmatiga kirish niyatini aytgan. Ammo hokim ays-h-u ishiga berilgan odam bo'lib, donishmandning so'ziga quloq bermagan. Hatto eshitgisi ham kelmagan. Uchinchi sabab shuki, bu kishining do'stlari orasida uni tushunadigan, to'g'ri yo'l ko'rsatadigan odam topilmagan. Aksincha, do'stman deb atalgan odamlar undan baland kelib muomala qilgan, undan ashiye hasilga nafratlangan. O'zini o'ldirmoqchi bo'lganining to'rtinchi sababi ham bor ekan - uning yakka-yu yolg'iz o'g'li atashning so'zlariga kirmay, uydin bosh olib ketgan!

Shunday qilib, men dono bo'lishni orzu qildim-u, ammo o'zining oddiy fuqarolik burchlarini bajara olmadim men qobil farzand ham, yaxshi oila sohibi ham, aqlli

ota ham bo'lolmadim, shuning uchun endi o'zimni o'zim o'ldirmoqchiman, – deb so'zini yakunladi xudkush.

Konfutsiy unga bunday dedi:

– Qilgan xatolaringiz qanchalik ulkan bo'lmasin, bular o'zingizni o'ldirish uchun sabab bo'lolmaydi. Har qanday xatoni tuzatsa bo'ladi, ammo xudkushlikka borish eng og'ir gunohdir. Siz hayotingizning boshidayoq noto'g'ri qadam tashlabsiz, donishmand bo'lishni o'ylabsiz-u, donolarcha yurolmabsiz. Vaholanki, donishmand bo'lishdan oldin odam bo'lishni o'ylash kerak edi. Axir odamiylik va fuqarolik burchlarini ado etgan, to'la bajargan chog'dagina odam donishmand bo'la oladi, ya'ni o'ziga tabiat ato qilgan qobiliyatni amalga oshiradi. Sizning eng birinchi vazifangiz ota-onangizni sevish, ularga xizmat qilish edi. Ammo siz bunday qilmadingiz – bu boqibeg'amlik esa barcha keyingi baxtsizliklar eshigini ochib bergan. Ammo endi hammasi tugadi, xatoni tuzatishning iloji yo'q degan xayolga zinhor bormang. O'zingizga o'zingiz dalda bering, ruhingizni ko'taring. Asrlar osha yashab kelayotgan bitta hikmatning haqiqatligiga ishoning: toki inson tirik ekan, u umiddan ayro tushmasligi kerak! Inson tubsiz gayg'u botqog'idan chiqib, yuksak saodat qasri uzra ko'tarila olishi mumkin. Eng dahshatli qashshoqlik balosidan qutulib, farovon hayotga o'tishi hech gap emas. Uyingizga boring-da, hayotingizni uvol qilmay, hayotingizni yangidan boshlang! Ana shunda siz haqiqiy donishmand odamga aylanasiz!

So'ng Konfutsiy atrofidagi odamlarga murojaat qildi:

– Bu gaplar sizlarga ham saboq bo'ladi deb o'ylayman... Har biringiz bugungi ko'rgan, eshitganlaringiz haqida chuqur o'ylang!

Shularni aytib, yo'lga tushdi-yu, ammo yarim chaqirim yurib-yurnamay, bir nechta shogirdi to'dalashib kelib, undan ortga – uyga qaytishi uchun ruxsat so'rashdi. Ularni vijdon azobi qiyinay boshlagan, uydagi qari ota-onalari yodlariga tushgan edi.

Konfutsiyning xudkush odam bilan subbatda bayon qilingan fikrlar Konfutsiy falsafasidagi asosiy qoidalaridan hisoblanadi. Xitoy mamlakatida ijtimoiy-siyosiy, oilaviy hayot

ana shu qoidalaridan kelib chiqib amal qiladi – farzandlarning ota-onaga hurmati, umuman, yoshi ulug'larga hurmat-ehtr om ko'rsatish haqidagi ta'limot bilan bog'liq bo'lib, xitoyliklarning butun ijtimoiy hayoti mana shu tamoyilga asoslanadi.

Tsi viloyatining yosh hokimi donishmandni izzat-hurmat ila kutib oldi, ammo shu bilan hammasi tugadi hisob. Ma'lum bo'lishicha, bu hukmdor na maslahatga, na o'git-nasihatga quloq soldi, u yengil hayotga, aysh-ishratga beriluvchan odam bo'lib chiqdi. Konfutsiyning aytayotgan gaplari unga zararcha ta'sir etmadi. Shunga qaramay, Konfutsiy hokim saroyida bir yilcha yashadi. Ammo donishmandning bu viloyatga tashrifi odamlar uchun hech qanaga foyda keltirmadi.

Hokim o'zining odamlar orasida saxiy, ilmparvar deb nom qozonishi, ulug' donishmandni qay yo'sinda siylashi, mukofotlar berishini odamlar ko'rib qo'ysin degan maqsadagina donishmandni huzuriga chorlagan ekan. Hokim Konfutsiyga hatto bir shaharning hokimlik lavozimini ham taqdim etmoqchi bo'ldi. Konfutsiy bunday tuhfani qabul qilmasligini aytib, uzr so'radi.

Konfutsiyni o'zlariga ustoz deb bilgan shogirdlar, izdoslar uning va'zlaridan bahramand bo'layotgan muxlislar bu paytga kelib ancha ko'payib qolgan edi. Tsi hukmdori saroydagi eng katta xonani ularning yig'in o'tkazib turishlari uchun ajratib berdi. Hokim Konfutsiyni o'z huzuriga tez-tez chorlab turardi. Mana shunday subbatlarning birida faylasuf o'zining ziyrak va sinchkov odam ekanini namoyish etdi-da, xalqni boshqarish san'ati haqida gap ochdi.

Solnomachilar bu suhbat mazmunini shunday yozib qoldirganlar: hokim bir kuni faylasuf bilan do'stona subbatlashib o'tirgan edi. Shu payt Chjou hokimligidan imperator sulolasiga tegishli bir ibodatxonaga yashin tushib yondirib yuborgani haqida xabar keltirishdi. Ibodatxona sulola ajdodlarining xotirasini yodlab turish uchun barpo qilingan edi.

– Bu Li Van ibodatxonasi bo'lsa kerak? – so'radi Konfutsiy.

– Nega bunday deb o'ylayapsiz? – dedi hokim.

Faylasuf javob berdi:

- Hukmdorlar tirik ekanlar, atrofdagilar har xil gap-so'zlardan, boshga kelishi mumkin bo'lgan balolardan qo'rqib hokimlarga tanbeh bermaydilar. Ammo osmon-falak beshafqatdir, u hokimlarning yuzi-ko'ziga qaramay, erta yoki kech demasdan, ularni qilgan qilg'iliklari uchun jazolab turadi, qonunlarni buzgan hokimlarning boshiga falokat yuboraveradi. Li Van hukmdori yovuz odam edi. U Vennanning ko'plab odil ko'rsatmalarini bekor qildi. U bashing kiyinishga, sariq liboslar kiyishga zo'r berdi, hashamati saroylar qurishga kirishdi, bedov tulporlar oldirdi, quling o'rgilsin jang aravallari yasattirdi. U bunday suiiste'molchiliklarga birinchi bo'lib qo'l urdi. Qadimgi hukmdorlar uning qilgan ishlaridan xabar topishsa, uyalganlaridan qizarib qolishardi! Li Van xotirasiga bag'ishlangan ibodatxonaning yonib ketishi shundan dalolat beradiki, demak, osmon-falak bu hukmdordan qasos olayotir! Demak, osmon arzimaydigan odamga shunchalik izzat-hurmat ko'rsatlayotganidan norozi. Demak, osmon Li Vanga o'xshash uchun harakat qilayotgan hokimlarni ogohlantirayotir!

Shunda hokim Chjou viloyatiga chopar yo'lladi va qaysi ibodatxona yonganini bilib kelishni buyurdi.

Chopar qaytib kelgach, T'si hokimi saroy ahliga dedi:

- Men bilan birga quvoninglar! Quvonchinga sherik bo'linglar! Konfutsiy deganlari bebaho xazina ekan! U butun Xitoyda eng sohiddonish, aqlli odam! U - farosat cho'qisini zabt etgan ulug' donishmandir! U uzoq-uzoqlarda ro'y berayotgan voqealarni ham xuddi ko'z oldida bo'layotganday ko'rib turadi!

Bu suhbatdan ko'p vaqt o'tmay, Konfutsiy uchun Chjou viloyatiga borish imkoniyati ham paydo bo'ldi.

Konfutsiyning vatanida, Lu viloyatida saroy a'yonlaridan biri vafot etadi. Bu amaldor tirikligida Konfutsiy haqida, uning ilm-u donishmandligi haqida ko'p eshitgan edi, donishmandning o'zini ham juda hurmat qilardi. U o'lim to'shagida yotganida, farzandlariga Konfutsiyga shogird tushishni, undan bilim va odob o'rganishni vasiyat qilib qoldiradi. Otasi o'lgandan keyin farzandlar motam marosimini o'tkazib bo'lib, ota vasiyatini bajo keltirish uchun Konfutsiy

shogirdlari davrasiga kelib qo'shildilar. Eng mashhur davlat arbobining farzandlari kelib, shogirdlar gatoridan joy olganidan keyin Konfutsiyning obro'si yanada oshib ketdi, uning moddiy ahvoli ham ancha yaxshilandi.

Konfutsiyning yangi shogirdlari ustozning saltanat poytaxtiga safar qilish, u yerda qabul qilingan yangi-yangi marosimlar bilan tanishish istagi borligidan xabar topgach, ustozga bu borada ko'mak berishga ahd qildilar. O'sha paytlari imperator saroyi Lu shahrida edi. Yangi shogirdlar ustozning niyati haqida Lu shahri hokimiga xabar yetkazdilar. Hokim faylasufni jon-jon deb kutib olishini, hatto donishmand qiyalmasligi uchun unga o'z aravasi va bir juft otini, navkarlarini ham yuborishga tayyor ekanini bildirdi. Konfutsiyning asosiy maqsadi - Chjou sulolasi qabul qilgan yangi marosimlar bilan tanishish bo'lgani uchun donishmand Chjouga kelishi bilan o'zining maqsadini amalga oshirish harakatiga tushib ketdi. Luga kelishi bilan Konfutsiy mashshoq-faylasuf Chan Xun bilan uchrashdi. Chan Xun bu uchrashuvdan juda quvondi va donishmandga o'zining uyida qo'rib o'tishni taklif qildi. Shuningdek, mashshoq Chjou saroyining birinchi vazirini ham uyga taklif qilib, Konfutsiy bilan tanishtirib qo'ydi. Vazir janoblari faylasuf bilan mirqib suhbat qurish niyati borligini bildirib, Konfutsiydan o'z ta'limotining mohiyati haqida gapirib berishni iltimos qildi.

Faylasuf bunday deb javob berdi:

- Mening ta'limotim - har bir inson amal qilishi kerak bo'lgan eziguliklardan iborat. Bu - Yao va Shun amal qilib o'tgan ta'limotning xuddi o'zi. Endi mening bu ta'limotni targ'ib qilish borasidagi uslubim haqida gapiradigan bo'lsam, hammasi juda oddiy: men qadimgi ajdodlarimiz axloqini namuna qilib ko'rsataman, shularga amal qilishni buyuraman. Qadimiy muqaddas kitoblar - kinglarni o'qishni maslahat beraman va shogirdlarimdan mutolaa qilgan kitoblari borasida mulohaza yuritishlarini talab qilaman.

- Bu yaxshi, albatta. Ammo donishmandlik maqomiga qanday qilib erishish mumkin? Menga ana shular haqida gapirib bering.

- Siz hamma narsaga birdaniga erishishni talab qilayotganga o'xshaysiz. Avvalo, sizga yordam berishi mumkin bo'lgan quyidagi to'rtta gapni yodda tutishga harakat qiling birinchisi, po'lat har qancha mustahkam bo'lmasin, hama kelganda u ham sinib tushadi; ikkinchisi, tez yaroqsiz bo'lib qoladigan narsa ko'pincha manguilikka yaratilgan narsalardan bo'lib ko'rinadi; uchinchisi, manman odam o'zini boshqalardan yuqori qo'yib, go'yo hamma unga ta'zim qilayotganday bo'lib ko'rimgochi bo'ladi, vaholanki, boshqalar uni o'zlariga teng ko'rmaganliklari bois unga e'tibor qilmaydilar; to'rtinchisi, ba'zi odamlar hamma narsaga birdaniga ega bo'lishni istash soddaligi tufayli odamlarga masxara bo'ladi. Mana shu to'rtta qoidani bilish, garchi ular har qancha oddiy bo'lib tuyulmasin, insonni juda yuksaklikka olib chiqishi mumkin. Agar odam bu gaplarning mazmunini chuqur tushunib, o'zining xalq-atvori shularga moslab olsa, albatta, donolik maqomiga erishmay qolmaydi...

Konfutsiy poytaxtga kelganidan so'ng topgan Luu Vengon ismli a'yon Chan Xuanni uchratib, undan faylasof haqida surishtira boshladi.

Chan Xun mehmon haqida savq etib, iltifat bilan Uning aytishicha, Konfutsiy bu dunyoda tengi yo'q odam odam ekan! U shunchalik kamtar ekanki, o'zidan ko'ra ancha bilimsiz, o'qimagan, ma'rifiatsiz odamlar bilan ham gaplashib, ulardan allaimalarnidir o'rgangisi kelarkan. U o'z bilimi bilan barcha asrlarda, barcha odamlarga namuna bo'lib xizmat qila olarkan. Zero, uning o'zi mukammal inson namunasidir, uning shunchalar komil insonligini hatto tasavvurga ham sig'dirish qiyin. Yana qo'shimcha qilib aytildi, bu faylasofning ismini odamlar aslo unutmaydi, toki Yao va Shun ta'limi bor ekan, toki Xitoy mamlakatining asoschilari aytib ketgan o'git-nasihatlar odamlar yodida saqlanar ekan, Konfutsiyning nomi ham mangu yashab turaveradi.

Bu gap Konfutsiyning qulog'iga ham yetib bordi. U bunday dedi:

- Juda oshirib aytishibdi. Men bu gaplarga arzimayman. Mening musiqani oz-moz tushunishim va barcha urf

adabotni qadrlashim, ularni bajarishga intilishim aytilsa, shu bor edi.

Konfutsiy poytaxtdagi ibodatxona va qasrlarni tomosha qilib sayr etib yurgan vaqtida Nur (Mintan) ibodatxonasiga keldi. Bu yerda u qadimgi hukmdorlarning tasviri chizilgan aksariy suratni, ayniqsa, katta e'tibor ila kuzatdi. Tomosha qilgani an'ladiki, rassomlar bu suratlarni chizishda aslga e'tibor berishmabdi, hukmdorlar faoliyatining natijalari bu suratlarda hisobga olinmabdi. U xo'rsinib dedi:

Yao va Shun tasviri Tsze⁵ va Chjou Sin suratlari bilan yomon yon tasvirlanibdi. Vaholanki, ularning o'xshashligi faqat bitta narsada - ular hukmdor bo'lganlar. Yao va Shun insonning ham, odamlarning ham muhabbatini qozongan insonlar edi. Tsze bilan Chjou Sin esa, aksincha, qonxo'r va inson podshohlar edi, ularning nomini eshitganda odamlarni qo'rqitib qo'yardi. Nega deysizlarmi? Yao bilan Shun osmonni qo'rqitib qo'yardi, odamlarga baxt-saodat ato qilardilar⁶. Tsze bilan Chjou Sin esa osmonni mensimas, yomon ko'rар, odamlarning boshiga qo'llaridan kelganicha kulfat solar edi.

Chjou shohlarining sulolaviy ibodatxonasida u tamal toshi ostida turgan oltin haykalga e'tibor berdi. Oltin haykalda inson uch joyidan igna bilan tikilgan odam ifodalangan edi. Haykalning yelka tomonida quyidagi yozuvlar bor edi:

Haykalning odamlar gapirganda ehtiyotkorroq bo'lib gapirar edi, ana shularga taqiid qilish kerak...

Odam ko'p gapirmasligi kerak, nega deganda kishi ko'p gapiradigan bo'lsa, gaplari orasida, albatta, aytilmasligi shart bo'lgan so'zlar ham o'tib ketadi...

Birdaniga ko'p ishini qilishga ham kirishib ketmanglar - ko'p ish ko'p mashagqat keltiradi, mashagqat keltirmagan haqirida ham tashvishni ko'paytiradi...

⁵ Tsze - Sya sulolasining so'nggi hukmdori. U xalqqa qarshi jinoyatlari va jinoyatlarini bilan tanilgan edi.

⁶ Chjou Sin - Shun (In) sulolasining so'nggi hukmdori. U ham xuddi Sya kabi jinoyatni jinoyatlari bilan tanilgan.

Burchlaringiz talab qiladigan darajadagina mehnat qilinglar, ishlanglar...

Ulug' quvonchlar izlab ham, ortiqcha xotirjamliklar bilan ham o'zlaringizni urintirmanglar, har ikkalasi ham o'z-o'zidan tashvish va xavotir keltiradi...

Ertami-kechmi, oxiri, baribir, afsus keltiradigan ishga qo'lmanglar...

Hech qachon hazillashib kichkinagina yomonlik qilaman-u, shu bilan bu o'yin to'xtaydi, deb o'ylamanglar. Siz kichkina yomonlik deb o'ylagan hazil katta qabohat va musibatlarga sabab bo'lishi mumkin...

Boshqa odamlarning sizga qilayotgan kichkinagina adolatsizligidan vaqtida qutulib olmasangiz, hademay eng qattol va yovuz hujumlar girdobida qolasiz...

Yolg'izlikda harakat qilayotib, meni hech kim ko'rmayapti, hech kim eshitmayapti deb o'ylamanglar! ruhlar siqlarning barcha gapirgan, qilganlaringizga guvohdirlar...

Uzoq vaqt yashirin yonib turgan o'z yengib bo'lmasa olovga aylanadi, o'tni chiqqan mahallidayoq o'chibdi osonroq...

Ko'plab jilg'alar qo'shib qo'shib darvaga aylanadi, ko'plab iplar birgalikda eshilib-eshilib aslmas arqon bo'ladi...

Nihol hali yerga ildiz o'tib ulgurmagan ekan, uni osongina qo'portib olish mumkin, u ildiz o'tdimi – endi uni bo'lsa bilan ham chopib olish qiyin kechadi...

Odamingizdan yaralovchi o'q ham chiqadi, yondiruvchi olov ham, ehtiyot bo'lsangizgina, o'qdan ham, olovdan ham omon qolasiz...

Odam kuchli bo'lgandan keyin har qanday xavfdan qutulib, har qanday odamni yengib ketaveradi deb o'ylamanglar, siz har qancha kuchli bo'lmang, sizni yengadigan odam, albatta, topiladi...

Qonuniy hukmdorlarni mensimasangiz, qonunni menel maydigan qarog'chilarga duch kelasiz, adolati hukumatning ko'ziga tuproq sepsangiz, o'zingiz chuvalchanglarga teng bo'lib qolasiz.

Haddan tashqari og'ir talablar qo'ygan bo'lsagina, hukmdorlarga qarshilik qilish mumkin, talablari oson hukmdorga berayotib ham oson kechadi...

Oddiy odamlar, odamlarning oddiyi hech qachon hech qanday tashabbusni boshlamaydilar ham, tashabbusni qo'llab-quvvatlamaydilar ham, ular faqat boshqalarga taqlid qiladilar va erishadilar, ularga kimdir namuna yoki ibrat bo'lib xizmat qilishi kerak...

Intiyokor, sermulo-haza, oliyanob, marifati kishilarni ko'rib, ular ham o'z navbatida ana shunday bo'lib yetishadilar va keyingi avlodlarga namuna bo'ladi...

Mening og'zim tikilgan, gapira olmayman, savol va javoblarga javob berolmayman, o'z navbatida men ham hech narsa haqida so'ray olmayman...

Ilm – maxfiydir, ammo-shunga qaramay, ilm haqiqiydir, mening maqomim juda yuksakda, shunga ko'ra menga hech kimda dast qilmaydi...

Imoratningizda shu gaplarni ayta oladigan biror odam ismim! Odamga qiyoslasa bo'ladigan hech narsa, yo'q, shuning uchun ham u hammaga teng nur sochadi...

Hech siz o'qigan narsalar chuqur mulohaza qilib ko'rishga ataydigan hikmatlardir!..» >>

Tashbu yozuvlar qadimgi Xitoy mutafakkirlari hikmatlaridan tashkil topgan bo'lib, o'sha paytlarda xalq orasida tarqatib yuritilgan nasihatlardan iborat edi.

Konfutsiy bitiklarni ovoz chiqarib o'qib bo'lgach, qoshida qolgan dech:

Bular aytisa bo'ladigan g'oyat foydali qoidalaridan iborat ekan. Ishonamanki, kimki mana shu qoidalariga amal qilsa, u kamil inson darajasiga yetadi. Men ham shunga harakat qilaman va boshqalarga ham shunday qilishni maslahat beraman!

Konfutsiy bu yerdan chiqib, hukmdorlar o'z ajdodlari sharafiga qurgan boshqa ibodatxonalarni ham tomosha qilib Muzkor daxmalarning ozodaligini nazorat qiladigan toshlar hamma joyda Konfutsiyi izzat-hurmat bilan kutib olib, eng yuksak o'rindiqdarga o'tqazar edilar. Bo'lib o'tgan

mana shunday subbatlarda Konfutsiy o'zining keng bilim bilan hammani qoyil qoldirdi. U Chjouda qabul qilingan va amal qilinadigan qoidalar, urf-odatlar bilan yaqindan tanishar ekan, ular qadimgi ko'rsatmalarga qanchalik mos kelishini ham tekshirib ko'rar edi. U har bir ko'rgan narsani haqida shu qadar batatsil so'rab-surishtirar ediki, oxiri uning yonida hamroh bo'lib yurganlardan biri:

- Bu nimasi? Uni juda bilag'on deb maqtashgan edi-ku! U esa hamma narsani bizlardan so'rab olayotir! - dedi.

Uning so'zini eshitib qolgan Konfutsiy dedi:

- So'raymiz-da... Men axir bilimaganlarimni so'rab surishtirish uchun kelganman-ku.

Konfutsiy urf-odatlar haqida batatsil surishtirib bilish olishining sabablari bor edi, bunga keyinroq yana qaytaman. Donishmand bu yerda urf-odat va marosimlarni diqqat bilan o'rganishdan tashqari, musiqa mashg'ulotlariga ham ixlos bilan qatnashdi. U Chjouda ikki yil yashadi. Shu orada u zohid Lao Tsi bilan ham tanishdi. Lao Tsi shaboo atrofidagi g'orlarning birida umr kechtirardi. U Konfutsiy bilan subbtlashar ekan, o'zining ta'limotiga sodiq qolgan holda Konfutsiyni keyib ham o'ldi, haqiqiy donishmand sulu orasida bunchalik o'zini ko'z-ko'z qilmashgini, odamlarni guruh-guruh qilib ergashirib yurmashgini, bunday shuhratparastlik olim odamga yarashmasligini aytib, yosh mutafakkirni izza qildi.

- Donishmand shon-shuhratdan o'zini olib qochmog'i kerak, - dedi Lao Tsi. - U dong taratishdan, ovoza solishdan yiroq bo'lmog'i darkor. Dono odam o'zidan keyin oliyanob odat va qoidalar qoldirishni istar ekan, buni duch kelgan odamga ko'z-ko'zlayvermay, balki vaqt va sharoitdan kelib chiqqan holda ish tutishi kerak. U yaxshi zamon kelgandagina gapiradi, zamona og'ir paytlari sukut saqlaydi. Xazinaga ega bo'lgan odam duch kelganga xazinanadan gap ochavermaydi, nega deganda, xazinani o'g'irlab ketishlari mumkin. Haqiqiy oliyanob odam ham o'zining ezgu amaliini hammaning oldida ko'z-ko'z qilavermaydi. Donoligini, oliyanob inson ekanini aytib yohi bildirgisi kelib, hammaning qulog'iga karnay chaladigan odam

Dono odam emas!... Men sizga mana shular haqida gapirmoqchi edim. Mendan eshitganlaringizga amal qiling...

Konfutsiy qaytib kelgach, uzoq payt sukut saqladi, so'ng shogirdlariga murojaat qildi:

O'zining burallib yotgan ulkan gavdasi bilan yer yuzini qamrab olmoqchi bo'lgan ajdardhoni ko'z oldingizga keltiring-a, Lao Tsiyning aqli ana shunday hayratomuz ekan!...

TO'RTINCHI BOB

KONFUTSIYNING TARIXIY «CHUN-TSYU» ASARINI VA BOSHQA KITOBLAR MAZMUNINI QO'G'OZGA TUSHIRISHI

Chjouda ikki yil yashab, o'zi istagan hamma narsani o'qib o'rganagan Konfutsiy endi Tsi viloyatiga qaytmogchi bo'ldi. Ushbu qatnashlaricha, u Tsiga qaytgach, bir qancha vaqtdan keyin hukmdor saroyiga kelgan. Hukmdor bu paytda Iso Masih hukmdardan 1730 yil muqaddam hukmdor Shun tomonidan yaratilgan bir musiqani tinglab o'tirgan ekan. Bu navo «shun yuy» deb nomlanib, u odamning miyasidan tushkun kuchlarni quvadi, farzandning ota-ona oldidagi burchlari haqidagi fikrlarini mustahkamlaydi, deb talqin qilinar edi. Barcha haqiqat, bu ohanglar faylasufga ham shu qadar kuchli ta'sir qiladiki, u uch oy mobaynida shu musiqadan boshqa hech narsa haqida o'ylamay qo'ydi, pishirilgan eng shirin taomlarga ham qaramadi.

Tsi viloyatida Konfutsiy uzoq qolmadi. Yosh hokimning samimiyat va beqaror xayollarga berilib, u bergan pand-nasihatlarni havoga uchirishidan xavotirlangan Konfutsiy o'z ta'limotini targ'ib-tashviq qilish uchun bir qancha shogirdini shu yerda qoldirib, o'zi Luga qaytdi. Lu viloyatida bu paytda boshboshdoqliklar avjiga chiqqan, viloyat hokimi haydali, boshmiyat tanliqi sulolalar qo'lga o'tib parchalana boshlagan, qat'iy viloyatni talon-toroj ila boshqarishda davom etmoqda edi. Lu viloyatida u hech qanaga lavozimda ishlamasdan 15 yil yashadi. Boshqa bir tadqiqotda yozilishicha, Konfutsiyga juda

arzimas bir lavozim ravo ko'rilgan, shogirdlari undan bu lavozimni tark etishni ko'p bor iltimos qilganlar.

– Hech qachon, – deb javob berarkan har gal Konfutsiy. Agar men bu lavozimni tark etadigan bo'lsam, hamma men manman odam ekan deb o'ylaydi. Oliyjanoblik borasida men aytib, o'zgalarga yo'l ko'rsatar ekanmiz, o'zimiz shu yo'l bilan birinchi bo'lib yurishimiz lozim, mana shundagina boshqalar bizga ergashadi!

Luda yashar ekan, Konfutsiy butun vaqtini o'z ta'limotini targ'ib qilish va yoyish ishlariga bag'ishladi.

Chiouda ekanliklarida shu voqea bo'lib o'tdi. Bir kuni shogirdlari uni sohilda daryo oqimiga tikilib o'tirgan holida uchratdilar.

– Usto'z, – dedi Tszu Gun ismli bir shogirdi. – Suvga tikilmoq oddiy ish emasmi? Buning nima foydasi bor?

– Siz to'g'ri fahmlabsiz, – javob berdi Konfutsiy. – Suvning o'zan bo'ylab yoki qazilgan anhor ichidan oqib o'tishi – eng oddiy va odatiy hollardan biri, buni hamma ham biladi. Lekin bunda hamma ham anglab yetavermaydigan bir hikmat bor: oqib o'tayotgan suvni ilimga o'xshatib, qiyoslash mumkin ekan. Bu qiyoslash meni juda qiziqitib qo'ydi. Suv oqaveradi, oqaveradi, hech to'xtamaydi, na kechadi, na kunduzi. Oqib borib dengizga quyiladi. Yao va Shun yaratgan ta'limot ham xuddi shu taxlit oqib kelib, bizning mulkimizga aylandi, biz bu ta'limotni xuddi tirik to'liqlar singari oqib, bizdan keyingi avlodlar qo'lliga topshiramiz. Orada esa asrlar o'tib ketadi. Kelinglar, faqat o'zi uchun o'qigan, o'z ilmidan boshqalarni bahramand qilmagan manman donishmandlarga o'xshamaylik-da, ilminiz, aqliniz va amallarimizni xalq bilan baham ko'raylik. Mana shu suvga o'xshab, tanti va sarak bo'laylik...

Bu Konfutsiy dunyoqarashlari ifodalangan fikrlar, shu bilan birga, donishmand Lao Tszu bergan tanbehlariga nisbatan dono odam qanday bo'lishi kerakligi haqida kechikib bo'lsa-da aytilayotgan javoblar edi.

Yana bir voqea hukmdor saroyining arzonasida ro'y berdi – bu voqea munosabati bilan Konfutsiy mamlakatni

qaytarib, har bir ishda me'yorga asoslanish, ya'ni har bir ishda o'rta yo'l ni tutish va keskin choralar qo'llashdan iborat bo'lsa so'z aytishning mavridini topdi. Saroyda taxt o'tirgan yerdan chiqqan to'qilgan va mum surtib yamalagan belab turgan edi. Faylasuf yondagilarning biridan so'radi: – Bu yerga chelak nima uchun qo'yilgan?

Bu odam javob berolmadi, jo'yali bir gap ham ayto'lmadi. Shunda Konfutsiy ikkinchi bir odamga quduqdan suv tortishni ko'rsatdi. U odam nihoyatda ehtiyot bo'lib quduqqa chelak qo'yib, yengil chelak suv uzra qalqib, ichiga suv to'lmadi. Xullas, o'zidan quduqdan bir tomchi ham suv chiqarolmadi.

Konfutsiy qanday qilib bo'lmasin suv tortib chiqarishni ko'rsatdi.

Agar shu usulda suv olish mumkin bo'lmasa, boshqacha yo'l topib, chelakni suvga botirish kerak!

Shunda xizmatkorlarning biri chelakni quduqqa kuch bilan tashladi, suvga to'lgan chelak quduq tubiga cho'kdi.

– Bunday qilish ham yaxshi emasi! – dedi Konfutsiy. – Men o'zim suv tortib ko'rsatay...

U chelakni quduqqa tashlar ekan, keskin harakatlar qilindi, shoshilmadi, epcchilik bilan chelakni suvga to'ldirdi, lekin hech qiyalmasdan suv to'la chelakni tortib olish mumkin edi. Shunda Konfutsiy atrofini o'rab turganlarga dedi:

Mana bu – hokimiyatni boshqarish va o'rta yo'l tutish bo'yida sizlarga bir ko'rgazmali misol. O'rtiqcha ehtiyotkorlik, jinnahlik ham, keskin harakat ham hokimiyatni boshqarishda bir xil zararlidir. Shuning uchun o'rta yo'l ni tutgan mu'qul. Qadimda yangi hukmdorni taxtga o'tqazish paytida eski qonunchilar mana shu tajriba esda turishi uchun o'z yonida chelak saqlaganlar, bundan maqsad – shu oddiy lekin hodisasidan axloqiy xulosa chiqarishni unutmastikdir!..

Yortiga qaytib kelgan Konfutsiy bir kuni shogirdlari bilan shahar atrofiga sayr qilib yurganida qush ovlab yurgan odamni ko'rib qoldi. Unga yaqin borib qarashsaki, qafasda faqat polapon qushlar bor ekan.

Mega bu qushlarning hammasi polapon, yoshi katta qushlar qani? – so'radi u qush ovlovchidan.

– Yoshi katta qushlar juda ayyor, ehtiyotkor bo'ladilar, javob berdi qush ovlovchi. – Ular qopqonga yaqinlashishlardan oldin hammasini tekshirib ko'radilar. Agar xavfli biron nimani sezsa, shu zahoti o'zlarini qopqondan nari oladilar, hatto polaponlarni ham ehtiyot bo'lishga chorlaydilar. Qopqonga asosan qarildan ayrilgan, yolg'iz yurgan yosh qushlar tushadi, ora-sira yoshlarga ergashgan yoki tajribaga ega bo'lmagan tulkalar ham tushib qolishi mumkin.

– Eshitinglarmi? – Konfutsiy shogirdlariga murojaat qildi. – Qush ovlovchining gaplari sizlarga ibrat bo'lsin. Men bir necha o'g'it, izohlar bilan cheklanaman: yoshlar qari tulkalarga ergashganda tajriba to'plab, qopqonga ilimaydigan ehtiyotkor bo'lib o'sadilar. Qari qush esa yoshlarga ergashib ularning qilganlarini qilaman deb qopqonga, to'rga tushib qoladi. Odamlar ham ba'zan shunday ish qilib qo'ymaydilar? Mammanlik, tajribasizlik, shoshma-shosharlik, ehtiyotsizlik yoshlikdagi xatolarning manbaidir. O'qib-o'rganagan ozgina bilimlari, hayotning tepa qismidan cho'qilib turgan ozgina tajribasi bilan yoshlar ba'zan o'zini hamma narsani biladigan odamday tutadilar, mammanstray boshlaydilar, o'zlarini donishmand va olijanob qilib ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Ular yoshlarning qo'ltidan hamma ish kechadiganay. Holbuki, qiladigan ishlari eng oddiy, kundalik ish bo'lib chiqadi. Ular shubha nimaligini, ikkilanish nimaligini bilmaydi, ular tajribali va dono odamlarning gaplarini inobatga olmaydilar, hamma narsaga ko'r-ko'rona ishonaveradilar. Shu tufayli xato yo'llarga ketib ketadilar, adashadilar va sal o'tmay qopqonga ilingan qush holiga tushib qoladilar. Shu bilan birga, yoshlarga ergashib ularning shiddat-ishtiyosiga qiziqib, yoshlar qilgan ishini qilaman deb urinadigan, ularga qo'shib adashadigan katta odamlar oramizda yo'qmi? Bor! Bu hikmatlarni hech qachon unutmani!

Konfutsiy saboq bergan usulga oid gaplarni shu urinda to'xtatib turaylik-da, uning hayotiga doir voqealarni bayon qilishda davom etaylik.

Luda yashagan yillari Konfutsiy ilm bilan shug'ullanishni kanda qilmadi. U erta turib, kech yotar, kunduzi faqat ikki soatgina dam olar, qolgan vaqtlarda mutolaaga berilardi.

Bu vaqtda Konfutsiy, asosan, qadimgi kitoblarni o'qib o'tirib va tahrir qilish, shartlash, zamon ruhiga, o'sha davrdagi muayyan fikr-tushunchalarga mos kelmaydigan joylarni qisqartirish bilan shug'ullanardi. Konfutsiy, qadimgi, ulug' hukmdor Fusi qalamiga mansub «Evrilishlar to'plami» («*Itszin*») asarini diqqat bilan o'qib chiqdi, yana bir qadimgi asar «Shutszin»ni qayta ishladi. «Shutszin» asari hukmdor Xuandi davrida tashkil etilgan Sudlar tarixi muhlatining bevosita rahbarligi ostida saroy tarixnavislari tomonidan yozilgan bo'lib, unda Iso Masih tavalludidan 365 yil muqaddam ro'y bergan voqealardan boshlab qadimgi muayyan tarixi bayon qilingan edi. Konfutsiy ushbu asarni qadimgi hilkka asos qilib olish maqsadida undagi sog'lom fikr-faholka mos kelmaydigan hamma narsani o'chirib chiqdi va asarning 50 bobinagina qoldirib, tarixiy yilnomachilikni hukmdor Yao zamonidan boshlanadigan qilib tahrir etdi. Konfutsiyning «Bahor va kuz» («*Chuntsyu*») deb nomlangan tarixiy asari shu tariqa yuzaga keldi. Kitobdan Lu viloyati tarixi, Chjou sulolasi tarixi, Chjou sulolasi davrida butun xalqni larzaga solgan nizo va urushlar bayoni o'rin olgan. Konfutsiy «Shitszin» deb nomlangan she'riy to'plamni ham «Viborsiz qoldirmadi. Ushbu she'riyatning bir qismi shu sulolasi davrida (Iso Masih tavalludidan 1700 yillar muqaddam), ko'pchiligi esa Chjou sulolasi paytida, Xitoy sulolasi kichik-kichik o'lkalarga ajralib ketgan bir vaqtda yozilgan edi. Undagi she'rilar xalq qo'shiqlaridan iborat bo'lib, o'sha hokimlari tomonidan xalq ichida yurib yozib olingan, hukmdor ularni mamlakat podshohiga taqdim etar, davlat rahbari bu qo'shiqlarni tinglab, o'qib, shularga ko'ra xalqning hayoti, o'sha davr o'qob-axloqi, davlatni boshqarishdagi muayyan va kamchiliklar haqida xulosa chiqarar edi. Hukmdorlar saroyidagi tantanali marosimlarda, qurbonlik kechirish va boshqa bayramlarda ijro qilinadigan qo'shiqlar asosini ham bor edi bu to'plamda. She'rilar soni jami 3000 ga yaqin edi. Konfutsiy shulardan 311 tasini tanlab oldi va o'z ta'limotiga asos qilib qo'ydi. Bularidan tashqari, Konfutsiy hukmdorlar to'plami kitobi hisoblanmish «*Itszin*» asarini, bir

qancha musiqiy mavzulardagi kitoblarni ham yozgan ham taxmin qilinadi.

BESHINCHI BOB

KONFUTSIYNING UZOQNI KO'RA OLISH ISTIQDOMI VA UNING OLIYJANOBLIGI

Lu viloyatida boshboshdoqliklar hali ham davom etardi. Ushbu qayg'uli voqealar Konfutsiyning joniga to'kkanida o'zi yaratayotgan ta'limotga asos bo'lgan qadimiy na'munalarni izlab topish maqsadida viloyatlarga saf qilishga kirishdi. Eng avval u hozirgi Xenan viloyati hududida joylashgan Chjyun o'lkasiga qo'nadi. Bu viloyatda bo'layotgan voqealar ham kayfiyatini ko'tarolmadi. Viloyatning barcha qishloqlarida xalqning noroziligi kuchaygan, oddiy xalq qashshoqlik na yetishmovchiliklar komida qolgan, boqsa esa rohat-farog'atda yashar edilar. Bir vaqtlardagi ozgink kambag'alparvarliklardan ularda asar ham qolmagan edi.

Konfutsiy bu yerdan endi Tsi viloyatiga yo'l oldi. U yetin ham ahvol yaxshi emasdi. U yana yo'lida davom etdi. Faqat toq T'yanshan manziliga borganidagina shu paytgacha ko'rgan kechirgan azoblarini sal unutganday bo'ldi. Bu joy poklik va bokira, axloqli insonlar makoni edi. Faylasuf tog'li xalqning halolligi, pokizaligini ko'rib, ularning haqiqat haqidagi fikr va tushunchalarni o'rganib, o'zida yo'q sevindi. U Tsi viloyatiga ilk bor tashrif buyurganida viloyat hokimi qarorgohida yotq edi. Shu orada ulug' faylasufning hokim bilan uchrasha oling o'z viloyatidan afsus-nadomatda jo'nab ketganini eshitgan yosh hokim yengil o'y-xayollardan voz kechib, aqlli bosh hukmdorga aylanibdi, xalqqa qayishadigan, uning dardlariga malham bo'ladigan amallarni bajarishga kirishibdi, endi Konfutsiyning qayta tashrif buyurishini orziqib kutayotgan emish, uning maslahatiga amal qilib davlat ishlarni yuritishga kirishmoqchi emish, degan gap tarqaldi. Hukm eshitgan Konfutsiy yana Tsi viloyatiga qaytdi. Haqiqatan ham Konfutsiy ikki kun dam olib, viloyat hokimi huzuriga kirib

bu farsad ko'targanida (o'sha davr odob-axloqiga ko'ra hokim huzurlari huzuriga kirish uchun ikki kun oldin ruxsat beriladi), Konfutsiyning oldida avvallari eshitgani kabi muvaffaqiyat va yengiltak kimsa emas, balki donishmandlar ishti uchun tortinli bag'ishlashga tayyor, ma'rifatparvar bir inson edi. U Konfutsiyni quchoq ochib kutib oldi. Quchoq ham hadda oldingina emas, o'z a'yonlari bilan saroy eshigi o'zida Konfutsiyga peshvoz ham chiqdi.

Men bilardim, umid qilardim, kelishingizga ishonardim! Endi hokim quvonch bilan. – Siz vatanningizdan shuncha foydali ishlar meni ko'rish uchun, menga va xalqinga foydali ishlar berish uchun tashrif buyurdingiz! Bu niyatingiz men menga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman! Sizni ko'ra ko'rish – biz uchun sharafl! Saroyga qadam ranjida qadamiz uchun ming rahmat, ustoz! Sizday donishmand inson donolik saboqlarini tinglashga zormiz! Qani, saroyga boraman!

Shunday deya hokim Konfutsiyga yo'l berib, saroyga borib ko'lib kirishga undadi. Konfutsiy muhtasham binoga kirib oldin kirishga jur'at qilmastiligini bildirib, birinchi o'rinlardan voz kechganida, hokim bu bilan o'zining boshqa rubbasiga zarracha shikast yetmastigi, hurmati ko'rsatib qolmastiligini bildirdi. Uning fikricha, mutafakkir insonlardan ham ulug' edi. Bu iltifotga Konfutsiy shunday javab berdi:

Bu hokimdori! Odob qoidalari hamma uchun barobardir, ular shuncha qanday amal qilsalar, fuqarolar ham shunday boq qilmog'lar joiz. Agar siz meni oldinga o'tkazib yuborib, men shundan ilgarida yuradigan bo'lsam, unda ikkovimiz ham shundan amal qilib kelingan qoidalarni buzgan bo'lamiz, endi joyda birinchi bo'lib sizga hurmat ko'rsatilishi shart boq qilmog'ingiz, vazifangiz hurmati. Hokim – hamma joyda shu qoida boq qilmog'ingiz, ota esa otadir!..

Hokim endi tavezga o'tin qolmaganini bildi. O'zining muhtasham mas'uliyatini his qilganicha mehmonlarni saroy o'rtasiga hozirlab ketdi. Umuman olganda, Konfutsiyga berilgan iltifat-iktrom nihoyat Tsi viloyatida ham ezigulik

sari yo'l ochilayotganidan darak berardi. Bu rosi hokim chiqdi. Hokim hatto Konfutsiyi o'z saroyidagi vahtini lavozimi ila siylamoqchi ham bo'ldi. (Ammo Konfutsiy bunday shoshma-shosharlik bilan qilingan va'dalarning tagi poch bo'lib chiqishini tezda bilib oldi. Kelajakda donishmandning hokimga ko'rsatajakk ta'siridan qo'rqqan vazirlar hokimni toq qarordan qaytarishga erishdilar, ular Konfutsiyning davlat boshqaruvida nazariy jihatdan juda kuchli va boy bilimiga ega alloma ekanligi, biroq amaliyotda hali oqsashini aytib, hokimni niyatidan qaytarishdi.)

Konfutsiy bundan ajablanmadi ham, shikoyat ham qilmadi. Ammo yaxshi niyatlar qila boshlagan, olibyomonlik yo'lini tutgan hokimning bunday iktidamishidagi asl sabablarini anglagach, unga achindi.

Konfutsiy Tsi viloyatidan vataniga jo'nab ketayotganida mana shunday xayollar og'ushida edi. U yana bir narsani yaxshi angladi, har bir odam o'z holicha Konfutsiyning ta'limotiga aqliga tasannolar aytadi-yu, ammo kundalik tashvishlar girdobiga ko'milib qolgan bechora xalqqa boqayotib talab hattoki nafrat bilan boqar ekan.

Yo'lda uchrab suhbatlashganlar Konfutsiy tug'ilish o'ziga yurtida ham xalq noroziligi kuchayayotganidan xabar berib ayniqsa, hokimiyat talashayotgan kimsalarning qilliqch to'mondan xalqqa zarar yetkazsa, ikkinchi tomondan davlatni zaiflashtirib qo'yayotganidan tashvishda edilar.

Tug'ilgan yurtiga qaytib kelar ekan, yo'lda ro'y bergan bir voqea Konfutsiyga urush borasida fikr bildirish uchun qulay imkon tug'dirdi. Yo'lda ular yoyandozlik va turli harbiy mashqlar bajarayotgan dehqonlarni ko'rdilar. Ularga Konfutsiy bunday dedi:

– Qadimda dono podshohlar davrida bunday ishlar bilan dehqonlar emas, balki harbiylar shug'ullanar edilar. Endi esa hamma odamlar askarlarday bo'lishga harakat qila boshlab shibdi. Bundan urush mohiyati, albatta, yaxshi tomonga o'zgaib qolmaydi, ammo ekin-tikin ishlari samarasi pastlashi aniq. Albatta, askarlar ham kerak, ammo mana bu holat odamlarning kundun-kunga vahshiylashib ketayotganining nishonasi!

Ular yana yo'lda ovga jo'nayotgan ovchilar guruhini ham ko'rib qolishdi. Qadimda Xitoyda turli-tuman qushlar, yovvoyi hayvonlar ko'p edi. Ayniqsa, yirtqich hayvonlar shunchalik ko'pchilik bo'lgan ediki, Xitoyning ilk hukmdorlari yiliga bir-ikki marta odamlarni ommaviy ov mashg'ulotiga chorlab, yovvoyi hayvonlarni qirib tashlashga majbur qilishardi. Shu tariqa xalq orasida bunday ov safarlariga bog'liq holda bir qancha diniy-marosimlar marosimlar ham shakllangan edi. Boshqa paytlarda ham odamlar turkchilik yuzasidan yoki vaqtini xush o'tkazish uchun ov qilard edilar.

Ular bilarga razm solib turib, bir shogirdi Konfutsiydan so'radi:

– Haqiqatim, mana shunday ov mashg'uloti olim odamni qanday mahliyo etishi mumkinmi?

Olim odam hamma narsaga e'tibor ila qaramog'i bo'lsa olim odam shug'ullanmaydigan mashg'ulotning o'zi bo'lmag'ligi kerak! Insonning ilk o'ylab topgan mashg'uloti ov. Mana shunday mashg'ulotlar tufayli odam bugungi davriga yetib keldi. Qadimda eng mashhur hukmdorlar ham davlatni boshqarishdek mashvaqatli ishdan so'ng ov bilan mashg'ul bo'lganlar! Donolar aqlu zehnlarni ishga soladigan chorlaganlarida o'zlarining sevimli ishini yana davom ettirish uchun kuch to'plashda, chuqur tafakkur chog'ida bo'lgan idroklariga dam berishda ov mashg'uloti bilan band bo'lganlar! Va nihoyat, ov tufayli odamlar qorin to'ydiradilar, ularning jonivorlarini qurbonlik o'rnida ibodatxonalariga ketkazadilar – bular bari qadimiy marosim kitoblarida yozib qolatilgan!

Konfutsiy shu so'zlarni aytib tugatganida ovchilar ham ularning yoniga yetib keldilar. Konfutsiy istak bildirib, ularidan o'zi ham ovda ishtirok etish uchun ruxsat so'radi. Men shu o'lgach, Konfutsiy ular bilan birga ikki haftacha o'ziga qatnashib yurdi. Ovdan so'ng u yurtiga – Lu viloyatiga jo'nadi. Luda uni yurtdoshlari orzilib kutishayotgandi. Hukumat ishlaridagi boshboshdoqliklar yoniga yana yangi yangi ko'rgitliklar ko'shilibdi – hosil bo'lmabdi, shuning don-dunning bahosi osmonga chiqib ketibdi, xalq

soliq-o'ponlarni to'lolmay qolibdi. Vaziyat chigallashgan mana shunday qiyin bir sharoitda xalq yana Konfutsiyni eslab qolibdi, u viloyatda ishlab yurganida eng tashlandiq, unumsiz yerlardan ham mo'l-ko'l hosil olganlari hammaning yodida ekan...

Luga yetib kelgan Konfutsiyni bosh vazir saroyga – hukumat kengashiga taklif qildi. Vazir undan maslahat va yordam so'raganda Konfutsiy dolzarb masalalardan og'ib-og'ib mujmal javob berdi. Shogirdlar ustozning bu qilg'idan avval hayron qolishsa, keyin g'azablana boshlashdi!

– Siz shunchalar oliyanob, saxovati inson bo'la turib, nega bilim va tajribalaringizdan vazir janoblarni bahramand qilgingiz kelmayapti? Yaxshilik qilaverib charchagandigizni yoki odamlarning nonko'rlilari va noshukurliklarini ko'raverib siz ham toshbag'ir bo'lib ketdingizmi? Sizni tushunmay qoldiki!

– Samimiy qayg'urayotganingiz uchun rahmat! – javob berdi Konfutsiy. – Men ham samimiy bo'lishga intilaman. Vazirga bilgan narsalarimni aytmaganimning sababi, u – ochko'z va badavlat odam. U hozir xalqning qiyin ahvolini emas, balki shunday ayanchli vaziyatdan foydalanib, qanday qilib yanada ko'proq boyib olishni o'ylayapti. Vazir odamlardan soliq undirish ishlariga bosh-qosh, uni qiynayotgan tashvish ham soliqdarni ko'paytirishi.. U xalq boshiga tushgan qiyinchiliklardan, ocharchiliklardan ichi achib, ochlikdan qirtlayotganlarning dardiga malham izlash uchun mendan maslahat so'rayotgani yo'q! O, qaniydi shunday bo'lsa! U xalqning dasturxonidagi so'ngi ushloqlarni ham qo'lga kiritish dardida menga tilyog'lamaqlik qilayotir! Men uning mash'um niyatini payqaganimdan keyin maslahat berishdan o'zimni olib qochdim, unga gap aytgim kelmadi. U och qolgan xalqqa qayg'urmayapti, cho'ntagini yanada qappaytirish uchun, yangi-yangi daromad manbalarini ko'paytirish uchun mening maslahatimdan foydalanmoqchi! Men xalqni hamon ilgirigiday sevarman, shuning uchun ham allaqanday ipiritsiq, tuban va past odam xalqning cho'ntagini qoqqlab, uni o'lim va

ocharchilik komiga itarmiq niyatida mendan foydalanmoqchi ekan – bunga jim qarab turolmayman.

Shogirdlar o'zlarining shoshma-shosharliklari, noto'g'ri xulosa chiqarganlaridan uyaliq qoldilar va afsuslandilar. Ammo ko'p o'tmay ular yana shunday vaziyatga tushib qoldilar. Vazirning qarindoshlaridan biri Konfutsiyning mehriini qozonish umidida unga katta miqdorda guruch hadya etdi. Qahatchilik, ocharchilik va qimmatbaho tovarlar davrida burchalik ko'p guruchni haqiqatan ham shohona hadya desa bo'lardi. Konfutsiy guruchni qabul qilib olarkan, go'yo hech narsa bo'lmaganday, bir og'iz ham minnatdorlik so'zi aytmadi. Shogirdlar yana achchiqlandilar, ammo Konfutsiy bu qimmatbaho hadyani hech ikkilanib turmay xalqqa – ochlar va kambag'allarga tarqatish uchun berib yuborganida, ular hayajonining cheki yo'q edi.

– Shuni bilinglarki, men hozir ham o'zimning e'tiqodimga, o'zim amal qiladigan taomlilarga sodiqman, – dedi u shogirdlariga. – Menga himmat ko'rsagan odam nimani umid qilgan bo'lsa, shunga erishdi, balki kutganidan ham ko'proq duoyi xayrga sazovor bo'ldi. Bu odam faqat mening o'zimdangina minnatdorlik ko'rgan edi, endi esa minglab och-nahor xalqning minnatdorligiga noil bo'layotir. U faqat meninggina yoqishini o'ylagan edi, qarabsizki, uni butun xalq endi oliyanob inson deb taniydi. Balki, endi shundan xulosa chiqarib, haqiqiy himmat nima ekanligini, osmon in'om qilgan mol-davlatni qanday sarflash kerakligini o'rganib olar, ko'zi ochilar? Men saroy a'yonining hadyasini rad etib, unga nafratimni, o'zimning g'ururimni namoyish qilgan edim. Guruchlarni qabul qilib oldim, ammo bir donasini ham o'zinga olib qolmay, muhojirlarga ulashdim va e'tiqodim buyurgan isboti qildim...

Xitoy solnomachilari ulug' faylasufning oliyanob fazilatlarini, bag'rikengligini ko'rsatuvchi bunday voqealarni ko'plab yozib qoldirganlar. Bu rivoyatlarda Konfutsiy hamisha o'zi yaratgan axloq qoidalariga amal qilib yuradigan, bir so'zli, qat'iyatli, kambag'alparvar kishi sifatida tavsiflanadi.

Qadimgi Xitoydagi kambag'al odamlarning og'ir hayoti, zamoning ma'rifati odamlardan yomon taassurot qolgan, ular ahvoli sal bo'lsa-da o'nglash uchun hamisha nimalaridir qilish ilinjida yo'l qidirganlari haqida ushbu asarning muqaddimasida ham gapirib o'tgan edik. Davrning dono kishilari mamlakatda axloqiy va moddiy turmush darajasini yaxshilash va ko'tarish uchun har tomonlama chora izlaganlar, harakat qilganlar. Ular maqsadlariga erishishda turli yo'llardan ketganligini ham aytib o'tgandik.

Konfutsiyning shogirdlari bilan qilgan quyidagi suhbat ham o'sha voqealar sirasidan.

Qadimgi diniy qonun-qoidalariga bo'ysunish borasida doim zamondoshlariga namuna bo'lib kelgan Konfutsiy bir kuni osmon sharafiga qurbonlik keltirish maqsadida uch shogirdi bilan Nan tog'iga jo'naydi. Tog' cho'qqisiga chiqqanlarida Konfutsiy u yerdan turib tevarak-atrofni tomosha qila boshlaydi. Negadir uning yuz-ko'zlarida qayg'u aks etib turardi. Shogirdlari undan «Nima uchun bunchalar g'amgin bo'lib qoldingiz?» deb so'rashganida, Konfutsiy bunday deydi:

- Vatandoshlarimning qashshoqligi meni g'ussaga solib qo'ydi. Mana bu boshloqlarga qarab turib, yurtimda bo'layotgan talon-torjliklar, urush-janjallar esimga tushib ketdi. Qashshoqlik sabab qirilib ketayotgan vatandoshlarimga yordam bera olmayotganim va boshlariga tushgan ko'rgiliklarga balogardon bo'la olmayotganim meni qattiq qayg'uga soldi. Nahotki buning hech chorasi bo'lmasa? - dedi u alam bilan.

Birozdan so'ng esa:

- Tszil Bu haqda o'z fikringizni bildiring-chi! - deb so'radi.

- Men ulkan qo'shin to'plardim-da, kuch bilan qo'zg'olonni bostirar edim, - dedi Tszil. - Boshqalarga o'rnak bo'lishi uchun tutqunlarni qatl qildirardim va mamlakatda qat'iy tartib o'rnatish uchun qadimgi adolat qoidasini joriy etardim.

- Siz jasur odamsiz, - dedi Konfutsiy. - Xo'sh, siz nima qilar edingiz? - deb u ikkinchi shogirdiga yuzlandi.

- Men sal boshqacha yo'l tutgan bo'lardim. Hozirgi paytda Tsi va Chu viloyatlari o'rtasida nizo paydo bo'lgan, ular endi urushga tayyorlanmoqda, boshqa viloyatlar

haqida ham shunday deysiz mumkin. Ular urush maydoniga chiqqanlarida men dardabali kiyimda ularning oldiga kelardim-da, diqqat bilan so'zlari meni eshitishlarini so'rardim. O'zining butun notqilik san'atini ishga solib, urushning kasofatiy-u tinchlikning sharofati haqida gapirib, ularning ko'zlarini ochgan bo'lar edim. Urushda u tomondan ham, bu tomondan ham ko'plab odamlar qirilib ketishini, begunoh bola-chaqalar, xotin-xalaj va ota-onalar iztirobda qolishini aytib, ularni insof va adolatga, tinchlikka da'vat etardim. Balki, shunda ular insofga kelib, mamlakatda tinchlik-osoyishtalik qaror topar...

- Siz juda notiq odam ekansiz!

Uchinchi shogird bunday deydi:

- Mening odamlarga tilagim shohlar farmonisiz amalga oshmaydi. Agar ish ko'nglindagiday bo'lib, mamlakatga odil va oliyanob bir odam hukmdorlik qilsa-yu, bu hukmdor meni ham nazarga ilib, davlat boshqarish ishlarida o'jizona mulhazalarimdan ham foydalanmoqchi bo'lsa, men shohga shu so'zlarni aytgan bo'lar edim: Syun va Yao o'simligi (biri xushbo'y va biri badbo'y o'simlik) hech qachon bir joyda o'smaydi, odil Yao va johil Tsze bir paytning o'zida shohlik qila olmaydilar, shundan kelib chiqib, men shohimizga lagambarlar kimsalarni o'zidan uzoqlashtirishni, halol va oliyanob insonlarni saroyga olib keltirishni so'rgan bo'lar edim. Bu insonlar xalqqa besh oliy burch - insonparvarlik, adolat, haqiqat, burchga sadogat va halollikdan saboq bersinlar. Shohga aytar edimki, ana shunda dushmanlardan qo'rg'masa bo'ladi, ko'p ming sonli qo'shin to'plash, shaharlarni mustahkamlash ham shart emas, baland istehkom, himoya anhorlari yaratishga sarflanadigan xarajatlarni don-dunni ko'paytirish ishiga yo'naltirish mumkin bo'ladi. Mustahkam qal'a devorlari toshidan jamoat inshootlari barpo etish yo'llida foydalanish, o'lim va vayrongarchilik keltiruvchi manjanoqlardan dehqonchilik asbob-uskunalari yasash mumkin va hokazo. Shunda askarlar oddiy fuqarolarga, jangovar notiqar epchil tadbirkorlarga aylanardilar. Balki, shunda odamlar baxti va farovon hayot kechirar? Agar men

yanglishayotgan bo'lsam, unda menga to'g'ri yo'lni o'zingiz ko'rsating, ustoz!

– Siz dono odam ekansiz, – dedi Konfutsiy uning gaplaridan hayajonga tushib.

Konfutsiy o'zi so'nggi yillarda shunday tartib-qoida joriy qilinsa, ahvol sal boshqacharoq bo'lishi ustida o'ylab yurardi, ammo hozircha barcha sa'y-harakatlari behuda ketayotgan edi.

OLTINCHI BOB

KONFUTSIY – DAVLAT ARBOBI

Nihoyat yoshi 44 ga yetganida Konfutsiyga taqdir kulib boqdi. Lu viloyatidagi tartibsizliklar kamayib, hokim Konfutsiyning saroy va uning atrofidagi ishlarni boshqarish, nazorat qilish vazifasiga mas'ul qilib qo'ydi.

Endi faylasuf uchun keng faoliyat ko'rsatish imkoniyati tug'ilgan edi. Konfutsiy ishlab charchamasdi, uning dono va oliyanob maqsadni ko'zlagan farmoyishlari qo'l ostidagi fuqarolar turmushining turli jabhalarini qamrab olgan edi.

U avvalo xalqning qishloq xo'jaligi bilan bog'liq turmushini yaxshilashga e'tibor berdi. Bu vazifani iloji boricha muvaffaqiyatli hal qilish uchun oddiy mehnatkash xalqqa yaqin bo'lishga harakat qildi. Faylasuf dehqonlar bilan tez-tez suhbatlashar, maslahatlashar, ularning barcha adolati tanbehlarini inobatga olar edi. Shu maqsadlarda qadimgi hukmdorlar tajribasiga amal qilib, ekin dalasidagi tuproqni sifati va holatiga ko'ra bir necha darajalarga bo'lib chiqdi. Masalan, tog'-toshli joylardagi ozg'in tuproq; quyi, o'y yerlardagi botqoqli tuproq; qumloq tuproq; semiz, unumdor tuproq; o'g'itlansa yaxshi hosil beradigan tuproq.

Shunga ko'ra qaysi maydonlarga nimalar ekish, qay vaqtda ekish, qay vaqtda hosilni yig'ishtirish, almashlab ekish kabi bir qator yangi ish uslublarini qo'lladi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, qadimgi hukmdorlar qishloq xo'jaligiga oid qanday tartib-qoidalariga rioya qilgan bo'lsalar, u barchasini qaytadan

joriy etdi. Bundan tashqari, o'ziga to'g'ri va badavlat odamlar ko'pgina umumiy yerlarni o'zlashtirib, u yerlarda oilaviy tantanalalar, bazmlar o'tkaziladigan ko'ngilochar inshootlar bunyod etganligidan xabar topgach, bunday salbiy odatlarni unuman yo'qotish, yaxshi hosildor yerlarni dehqonlarga qaytarish chora-tadbirlarini ishlab chiqdi.

– Qabristonlar odamlar o'ynab-kuladigan saylgoh bo'lmagligi kerak, – dedi u. – Qadimgi ajdodlarimiz qabristonni motam joyi deb bilganlar, shu yerga kelib yig'laganlar, otabobolarini xotirlaganlar, sukut saqlab, ularning yaxshi ishlarini yod aylaganlar. Agar qabr tepasiga kelib ziyofat uyushtirsak, o'yin-kulgi qilsak – marhumlarni mazax qilgan bo'lamiz. Hosil bermaydigan, ekin-tikindan qolgan yerlar qabriston qilib qo'yilsa, u yerlar obodonlashtirilsa – bu yaxshi. Lekin qabristonlarni obod qilaman deb, u yerlarga mevali daraxtlar ekish, chamanli bog' qilib qo'yish, ko'zni oladigan ko'shklar tiklash yaramaydi. Qabriston – bayram, to'y va bazm o'tkazadigan saylgoh emas, o'tganlarning ruhi yodlanadigan xotira maydonidir.

Bunday aql-idrok, namuna va maslahatli chora-tadbirlardan keyin ko'plab umumiy, yaxshi yerlar bekor yotmaydigan bo'ldi, dehqonlarga qaytarib berildi, ekin maydonlariga aylantirildi. Konfutsiy xalq xo'jaligining boshqa sohalariga ham shunday tadbirkorlik, ishchanlik ruhi bilan yondashdi. Uning kuyunchakligi, yangilikparvarligi bekor ketmadi va tez vaqt ichida kutilgan natijalarni berdi.

Oqilona boshqaruv tufayli viloyat xalqi o'zining moddiy ahvolini yaxshilab oldi, xalq boyigani sayin, uning ma'naviy saviyasi ham o'sa boshladi. Konfutsiyning viloyat oldidagi xizmatlariga minnatdorlik bildirish uchun hokim endi uni qozikalonlik lavozimiga tayinladi, uni eski urf-odatlar o'rniga yangilarini joriy qilish huquqi bilan ta'minladi. Ushbu lavozimga tayinlangandan keyin Konfutsiy viloyat hokimligidagi ikkinchi shaxsga aylandi.

U yangi lavozimda ham o'z e'tiqodiga sodiq qoldi, qanday lavozimni egallagan bo'lishlaridan qat'i tazar, hamisha aybdor odamlarni jinoyatga yarasha jazoladi, munosib odamlarni

rag'batlantirdi. Uning hayotidan o'sha davrdagi xizmatlari bilan bog'liq bir nechta voqealarni keltirib o'tamiz.

Bir boy go'sht chayqovi bilan shug'ullanardi, bozordagi go'shtning hammasini ko'tara sotib olib, so'ng uch barobar qimmatiga sotar edi. Bu gap Konfutsiyning qulog'iga borib yetdi. U buning butun og'irligi mehnatkash xalq bo'yniga zil yuk bo'lib tushishini, bundan xalqni qutqarish lozimligini anglab, boyni huzuriga chaqirtirdi.

- Sizni shaharning eng boy odami deb ayitshadi. Agar siz bu boyliklarni mehnat bilan, halol kasb orqali topgan bo'lganingizda bundan ko'p xursand bo'lardim, ammo siz bu boylikni harom yo'l bilan topganingizni ham eshitdim. Buning uchun og'ir jazoga loyiqsiz! Lekin men sizni bu og'ir jazodan qutqarishim mumkin. Buning bitta sharti bor - siz xalqni chuv tushirib, undan qalloblik ila shilib olgan pullaringizni xalqning o'ziga qaytarasiz! Yo'li bunday: o'zingiz qashshoqlashib qolmasligingiz uchun keragicha mablag'ni olib qoling-da, qolganini menga topshiring. Nima qilishni o'zim bilaman. Bo'yin tovlashni, meni chuv tushirishni xayolingizga ham keltirmang, sizga falon kun muhlati!

Aybdor Konfutsiyning aytganlariga ko'ndi. Uning xalqni qon qashshatib topganlari, yiqqan-terganlari «ixtioriy xayriya» nomi ostida jamoa foydasiga musodara qilindi.

Yana bir gal Konfutsiyning huzuriga bir ota farzandidan shikoyat qilib keldi. Konfutsiy ularning har ikkalasini ham uch oy qamoq jazosiga hukm qildi. Qamoq muddati tugagach, ularni huzuriga chorlab, otadan o'g'lining aybi nimadalligini so'radi. Ota javob berdi:

- Ayb o'g'limda emas, mening o'zimdada ekan, men o'g'il tarbiyasiga vaqtida e'tibor bermagan ekanman...

Aybini itoatkorlik bilan tan olganligi uchun Konfutsiy uni maqtadi:

- Bundan keyin qozining oldiga kelib yurmasdan, o'g'lingizga o'zingiz tarbiya bering!

So'ng yig'itga qaradi:

- Shuni bilki, farzandning birinchi burchi - ota-onaga bo'yusunmoqdir!

Lekin Konfutsiy har doim ham bunday bag'rikenglik ko'rsatib, qisqa muddatlik jazo belgilayvermasdi. Ba'zan u o'lim jazosini berishdan ham toymagan. Masalan, yangi lavozimga tayinlanishi bilan u saroydagi eng nomdor amaldorni mansabini suiiste'mol qilganlikda ayblab, o'limga hukm qilgan.

U qozilik burchlari haqida gapirib, bunday degan edi:

- Qonuni buzgan odamni jazolovchi qozi bamisoli zabt etilgan gal'ani talon-toroj qilishga yo'l qo'ygan sarkardaga o'xshaydi. Oddiy fuqaro jinoyat qilsa, uni yarim aybdor deb hisoblash mumkin, agar o'z burchlarini bilmasligi e'tiborga olinsa, uni umuman aybsiz deb topish ham mumkin. Ammo yuqori tabaga vakili jinoyat qilsa, xalqqa yomon tomondan ibrat ko'rsatgani uchun u odam qattiq jazoga mustahiqdir! Yoki hukumat a'zosi bo'lgan odam o'z qo'li ostidagi xodimlarga «Xalqqa g'amxo'r bo'linglar!» deb aytmasa, bu ham hukumat a'zosining yaramasligidan darak beradi. Bundaylarni jiddiy jazolash kerak! Bundaylarga bag'rikenglik qilishning o'zi jinoyatdir. «Ko'ra-bila turib jinoyat qilgan odamlar - o'limga loyiq odamlardir!» deyiladi qadimgi kitoblarda. Avval xalqqa burchini o'tashni o'rgatish kerak, agar shunda ham u qonunbuzarlik qilaversa, unda jazolash zarur!

Konfutsiy suddagi faoliyati davomida mana shu qoidalariga qattiq amal qilardi. U faqat viloyatdagi hukumatga va qonunlarga hurmat bilan qaraydigan fuqarolarni tarbiyalabgina qolmadi, u hukmdorga va yurtiga foyda keltiruvchi murabbiy, insonaxloqivakayfiyatini yaxshiladigan siyosatchi sifatida ham shuhrat qozondi. U bir necha bor hokimga qarshi uyushtirilgan jiddiy suiqasdlardan uni ogohlantirib, raqiblar fitnasini fosh qildi. Konfutsiyning oqilona faoliyati tufayli Lu viloyati qudratli o'lkaqa aylandi. Qo'shni viloyatlar hokimlari Lu hokimining kuchayib borayotganidan tashvishga tushib qoldilar.

Ana shunda ular Konfutsiy Lu rahbariga ta'sir qilishining oldini olish va hatto faylasuf bilan hokimning oralarini buzish yo'llarini izlay boshladilar. Oxir-oqibatda maqsadga yetdilar ham. Mana, o'sha voqealar tafsiloti: Lu viloyati hokimiga

aysh-u ishrat uchun 120 ta sara duldul ot, 13 nafar suluv qiz (raqosa va xonandalar) olib kelingan edi. Hokimga bu ermak shunchalar maqbul tushib qoldiki, hatto u sal vaqtda davlat ishlarini ham unutayozdi. Shunday bo'ldiki, u hatto Konfutsiyning ham gapiga kirmaydigan, uning tambehlarini bu qulog'i bilan eshitib, u qulog'idan chiqarib yuboradigan darajaga yetdi. Shuncha sa'y-harakatlari havoga uchganidan afsuslangan Konfutsiy endi viloyatni tark etishga ahd qildi.

U shogirdlari hamrohligida yo'lga tushdi. Yana viloyatma-viloyat yurib, o'z ta'limotini targ'ib qila boshladi. Hamma joyda Konfutsiyni quchoq ochib kutib olishar, uning qadamini tekkan manzillarning gullab-yashnab ketishiga umid bog'lashar edi.

Konfutsiy qadam ranjida qilgan viloyatlarning hokimlari uning ta'limotini qabul qilish, o'z hududlarida o'zgarish va islohotlarga yo'l ochish uchun hali tayyor emasdilar, shuning uchun ham ular Konfutsiyning tinch yo'l bilan hayotni isloh qilish borasidagi takliflariga ro'yxushlik berishmas, ular ko'proq qurol kuchigagina ishonar edilar.

Bir qancha manzillarni aylana-aylana, faylasuf oxiri Vey viloyatiga kelib qo'nim topdi. Vey hokimi mashhur donishmand oldiga peshvoz chiqib, uni izzat-hurmat bilan qarshi oldi, unga o'z saroyidan xona ajratib berdi va yillik ta'minoti uchun yetarli miqdorda guruch ham ajratdi. Ammo hokimning bu iltifotlaridan faylasuf xursand emas edi. Uni yaxshi kutib olgani, maslahatlariga bajonidil qulog' solgani bilan baribir hokimlar hokimligini qilib, pand-o'g'itlarga amal qilmas edi. Donishmand o'z ta'limotini qabul qilishni ochiq tavsifa qilganda esa hokimlar bu taklifni qat'yan rad etardilar. Konfutsiy o'z hayotidagi bu xil muvaffaqiyatsizliklar, mahzun daqiqalar haqida quyidagi mazmunda bir qayg'uli qo'shiq to'qidi:

«Qanchalar xushbo'ydir lanxua guli? Xushbo'ylikdan tashqari ham ko'plab foydali xususiyatlari uchun uni yuksak baholash mumkin. Afsuski, bu gul juda nozikdir, salgina shamoldan u darrov yopilib oladi, poyasidan uzilib tushadi. Nozik bu gul bechora nima qilsin? Shamollar izmida o'yinchoq bo'lgan bu gul to qo'nadigan joy topguncha zamin bo'ylab u

tomondan bu tomonga zuvillab uchadi. Biron-bir boshpana topgandan keyin ham u halovatda yashay olmaydi – xokka aylanib, tuproqqa singib ketadi. Vaholanki, odamlar aql-idrokklarini ishlatib, bu guldari bitmas-tugannas lazzat olisalar bo'lar edi! Axir, u bizning barcha umid-orzularimizni yashnatib turishga qodir go'zalik-kul.. Ammo bo'ron bu gulguz qanchalik yomonlik qilsa, bizning unga bo'lgan muhabbatimiz ham shunchalik zarar keltiradi. Gul bechoraga biron-bir puchmoqda ham joy yo'q. Nahotki u o'ziga loyiq bir go'sha topa olmasa? Mening paymonam ham to'lib bormoqda, hademay yo'llarim poyoniga yetadi; men ham bir qo'nalg'a topolsam edi. Aslida-ku, dono odam uchun hamma yer yaxshi, butun zamin uning mulkidir...»

Nafslambirini aytganda, faylasufni hayoti davomida ba'zi saroylarda hatto nafrat ila kutib olganlar ham bo'ldi, uni ta'qibga olganlar, zo'ravonliklarini ko'rsatmoqchi bo'lganlar ham topildi.

Konfutsiy Veydan chiqib, Sun viloyatiga keldi. Bu viloyatda markazdan narida soyali daraxtlarga boy kattakon qumloq joy bor edi. Konfutsiy mana shu manzilda shogirdi va kelib-kechib turgan mehmonu muxlislar bilan mironqib subhat qurardi. Bunday muloqotlar chog'ida olim ma'naviy turmushning barcha jihataridan so'z ochardi. Konfutsiyning shaxs sifatida turli hayotiy mavzularga qiziqishi, uning bilimlar doirasi kengligi quyidagi voqealar tafsilotida ham ko'rinadi.

Mana, uning nikoh, oila, oilada ayol va erkakning o'rni haqidagi mulohazalari.

Qadimda erkak kishi oila qurishi uchun eng qulay payt – 30 yoshgacha, qiz bolalar uchun – 20 yoshgacha bo'lgan davr deb belgilanar edi. Konfutsiy davriga kelib esa yigitlar 20 yoshgacha uylanib, qizlar – 15 yoshdan turmushga chiqib boshlagan edilar. Nikoh – insonning insonligini, burch va vazifalarini, tabiiy istak-xohishlarini belgilovchi mezon deb tushunilardi. Nikohlanganlar uchun umumiy va shaxsiy bo'lgan majburiyatlar mavjud edi. Er – oilaning boshi, xotin – unga bo'ysunadi, er – osmon bo'lsa, xotin – zamindir.

Er-xotinlik asosida o'zaro ishonch, halollik va izzat-hurmat bo'lishi kerak, agar erkak adolat tarozisini to'g'ri tutib, urf-odat, or-nomus mezonlarini, qonun-qoidalarini buzmasa, oilada uning hukmronligi, rahnamoligi vojibdir, ayol esa unga bo'ysunib, aytganini qilmog'i kerak. Jamoatchilik orasida xotin hamisha erining aytganlariga bo'ysunadi. Hatto erining o'limi ham xotini oilaviy majburiyatlardan ozod qilolmaydi. Qiz paytida u ota-onasiga bo'ysunishi, agar yetim qolgan bo'lsa, akayu birodarlarga yoki vasiylariga, turmush qurganidan keyin esa eriga bo'ysunmog'i majburiydir, beva qolganida u o'g'lining qaramog'iga o'tadi. O'g'il ona sha'nini har xil yomon gap-so'zlardan, tuhmat-u bo'htonlardan pokiza saqlash uchun balogardon bo'lmog'i joiz. Xotinning ikkinchi marotaba turmushga chiqishi man qilinadi, demak, tul xotin so'qaboshlikka mahkum. Uning uydin tashqarida bitkazadigan hech qanaga ishi bo'lmastigi lozim, u hatto uy yumushlari bilan bog'liq ishlarga ham bolalari yosh bo'lgani tufayliga chiqadi. Farzandlari voyaga yetgach, so'qqabosh ayol umuman uyidan chiqmasligi kerak, o'z xonasida bo'lmog'i lozim. Kechalari esa xonasida hamma vaqt chiroq (sham) yonib turishi, xonasi yoritilgan bo'lishi kerak. Tul xotin faqat shu yo'l bilangina o'zini pokiza saqlab, farzandlarining, qo'ni-qo'shnilarining hurmatini qozona olishi mumkin. Qiz bola uchun 15-20 yasharlik payti - ayni turmushga chiqadigan payt. Ayolning butun taqdiri nikoh bilan bog'liq ekan, er tanlashda u juda sinchkov bo'lmog'i kerak. Qiz bola quyidagi kishilar bilan turmush qurishdan ehtiyot bo'lishi nazarda tutilgan:

- 1) hukumatga qarshi uyushtirilgan fitnalarda gatnashgan odam bilan;
- 2) oilasi buzilib, ishlari chappa ketgan yoki oilasida janjal chiqqan kishi bilan;
- 3) qonunni buzgan yoki sudlangan jinoyatchi bilan;
- 4) surunkali kasallikka mubtalo bo'lgan yoki biror jismoniy nuqsoni bo'lgan kishi bilan;
- 5) ko'p sonli oilasini - ukalarini, singillarini, xolalarini va hokazolarni boqishga majbur bo'lib qolgan kishi bilan.

Er quyidagi sabablarga ko'ra xotini bilan ajrashish huquqiga egadir:

- 1) xotin qaynota yoki qaynonasiga bo'ysunmasa;
- 2) tug'masa;
- 3) behayo bo'lsa, eriga xiyonat qilsa;
- 4) janjalkash bo'lsa;
- 5) kasal bo'lsa va eri uning bu kasalligiga toqat qilolmasa;
- 6) ezma bo'lib, ko'p gapirsa;
- 7) o'g'irlik qilsa.

Agar xotin ajrashishga loyiq ish qilib qo'ygan bo'lsa ham quyidagi hollarda uni qo'yib yuborishga erining haqi yo'q: birinchidan - qarindoshlari o'lib ketgan bo'lsa-yu, xotin bir o'zi yolg'izlanib qolgan bo'lsa; ikkinchidan - er-xotin ajrashadigan paytda erining otasi yoki onasi vafot etib, uyda aza muddati belgilangan bo'lsa; uchinchidan - xotinga uylangan paytda er kambag'al bo'lib, u bilan yashab turgan paytda boyib ketgan bo'lsa.

Konfutsiy tavsiya qilgan nikohga oid bu xil qonun-qoidalar hozirgi vaqtda ham amalda qo'llaniladi.

Yana bir gal Konfutsiyning shogirdlaridan biri shahar hokimi bo'lib tayinlanganida, faylasuf xalqni boshqarish ishlariga doir mulohazalarini ifodalab, unga shunday dedi:

- Hamma vaqt ishlarni puxta qiling va ehtiyotkor bo'ling, yolg'onni haqiqatdan, chinni taxmindan ajrata biling. Adolati bo'ling, hasad qilmang, o'zingizga o'zingiz ishoning. Qonun xushomadni yoqitmaydi. Xolislik, halollik - adolat sari yo'l ochadi: hasadgo'y odam adolati bo'lolmaydi: tamagirlik ila o'zgalaridan olingan narsalarning bari - u qanday yo'llar bilan olingan bo'lmasin, manfur o'g'irlikdir. Hamma bilan xushmuomala bo'ling. Hech kimga qovoq uyib qaramang, tabassum qiling. Bag'rikeng, shirinso'z bo'ling. Biror ishini boshlayotganingizda, uni har tomonlama mulohaza qilib chiqing. Yilda xalqni to'rt marotaba to'plab, unga o'z burchlarini eslatib turing. Agar xalq o'z burchlarini, qilishi kerak bo'lgan ishlarni bilmasa, u gunohkor emas. Qonunni bilmagan odamni qonunbuzarlikda ayblab bo'ladimi? Ekin-tikin bilan band bo'lishi kerak bo'lgan dehqonni yo'l va

ko'priq qurilishiga jalb qilib, uning vaqtini olmang. Hamma narsaning o'z vaqti, har kimning o'z ishi bor!

Boshqa bir gal Konfutsiy inson oldida turgan maqsad va

vazifalar haqida shunday dedi:

- O'ziga osmon tomondan berilgan aql-idrok tufayli odam boshqa jonzorlardan farq qiladi. Otalik va onalik hujayralari bizga jon ato qiluvchi a'zoda uchrashib, qo'shilganlaridan keyin yangi hayot boshlanadi, ya'ni ikki ibtidoing qo'shilishi - yangi hayotning boshlanishidir. Chaqaloq - hali to'la ma'nodagi inson degani emas, osmon unga aql-idrok, tafakkur berib fikrlashga qobil qilganidan so'nggina u inson degan nomga loyiq bo'ladi. Inson o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatlaridan oqilona foydalana va jismoniy imkoniyatlar) bir-biridan ajralib qolsa, inson o'ladi. Odam asta-sekin kamolotga yetib borgan kabi, tanazzulga (o'linga) ham asta-sekinlik bilan yetib boradi. Lekin bu tanazzul - intih (yakun, so'nggi manzil) degani emas, bu faqat vujudning tarkibiy qismlarga ajralishidir. Vujud tarkibiy qismlarining har biri o'zining ibtidosiga qaytadi: aql-idrok - o'z manbayiga qaytadi, ruh - havoga qorishadi, vujudning qat'iy va suyuq a'zolari tuproqqa va suvga aylanadi. Qadimgi donishmandlarning ta'limotiga ko'ra inson barcha moddalarni o'ziga jamlagan alohida bir mavjudotdir. U o'zining aql-idrokini ezgulik yoki yomonlik yo'lida ishlatishiga qarab, yo kamol, yo zavol topish qobiliyatiga ega bo'lib boradi. Yovuz xatti-harakatlari uchun u jazolanadi, ezgu ishlari uchun esa mukofotlanadi. Inson mana shundaydir!

Konfutsiy odamlarni ularning ma'naviy va aqliy sifat-fazilatlariga ko'ra besh toifaga ajratadi:

Birinchi toifa - eng quyi darajadagi, nodon va omi odamlar, ular xalq orasida ko'p uchraydi, ularning boshqalar bo'lgani uchunгина gapiradilar, aytgan gaplaridan elga biror manfaat bormi-yo'qmi - bu tomonini o'ylab o'tirmaydilar. Ya'ni ular maqsadsiz, faqat yashash uchunгина yashab yurgan,

aslida esa biron buyurmasa, aytmasa, biron ish qilmaydigan, hayvondan farq etmaydigan odamlardir.

Konfutsiyning fikricha, bundaylarni faqat odamga o'xshash bo'lgani uchun, ya'ni ko'zi, qulog'i, og'zi bo'lgani uchunгина odam deb atash mumkin, xolos.

Ikkinchi toifa odamlarga u savodli, o'qigan, ma'rifatli kishilarni kiritadi, ularning aqli shu darajada rivojlanganki, ular oddiy xalq aqli yetavermaydigan narsalar haqida o'ylaydilar, fikr yuritadilar. Bu toifa odamlar qonun-qoidalariga, urf-odatlariga muvofiq, ongli-mazmunli hayot kechiradilar.

Uchinchi toifa odamlar ham ulardan qolishmaydi. Bular ham qayg'uli-damlarda azob chekib, shodlik mahali quvonadilar, vazminlik va oliyanobliklarini namoyon qiladilar, kerak paytida gapirib, kerak paytida sukut saqlay oladilar. Bu toifadagi odamlarni Konfutsiy fatlasuflar deb ataydi.

To'rtinchi toifa odamlari - eng samimiy va haqiqiy oliy-janob odamlardir.

Va nihoyat, **beshtinchi toifa** - eng kam uchraydigan, noyob odamlar - bular har tomonlama mukammal bo'lgan komil insonlardir. «Davlat ishlari o'shunday odamlar qo'lida bo'lishi kerak», deydi Konfutsiy.

Donishmand mana shunday fikr-mulohazalar, subbatlar, mutolaa va munozaralar og'ushida umr kechirardi. Bu vaqtga kelib uning atrofiga yurgan shogirdlari 3000 ga yaqinlashib qolgan edi (tasodifan kelib qolib, uning va'zilarini tinglab yurganlar bu hisobga kirmaydi, albatta). Faylasuflarning subhatiga tashna odamlar soni ham kun sayin ko'payib borardi. Ko'p o'tmay Konfutsiy Sun viloyatini tark etdi. Sun viloyatining bosh qo'mondoni paytdan foydalanib Konfutsiy atrofiga to'plangan to'dani xalqning osoyishtaligini buzuvchilar deb e'lon qildi va shogirdlar bilan tinglovchilarni haydab, tarqatib yuborishga, sersoya daraxtni esa qo'porib tashlashga buyruq berdi.

Konfutsiy yana viloyatlarni kezishga kirishdi - Tsay viloyatiga qadam ranjida qildi, lekin u Tsayda ham jamiyatga manfaati tegishi qiyinligidan boshqa viloyatga o'tib ketdi.

Chjen hokimi uni ehtrom bilan kutib oldi. Bu yerda u o'lim jazosiga hukm qilingan uch nafar odamning hayotini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Ammo Konfutsiyning suhbatlari tufayli o'zlarining obro'si to'kilib qolishdan xavotirga tushgan viloyat vazirlari uni xavfi raqib deb bilib, Konfutsiyni yomonotliq qilishga, uni shogirdlari bilan qo'shib zindonga tashlashga ham erishdilar. Faylasuf bir hafta mobaynida zindonda o'tirishga majbur bo'ldi. Faqat bir haftadan so'ngina qo'shni viloyatlardan yetib kelgan askarlar yordamida ozodlikka chiqdi. Donishmand hayotda uchrab turadigan bu xil nohaqliklarga mardonavor dosh berdi, hatto u qamogda shogirdlariga dalda berishga ham kuch va bardosh topa oldi. Zindondan chiqqach, shogirdlari bilan Tyanshan tog'ini - qadimgi podshohlar osmon sharafiga qurbonlik keltirish marosimlarini o'tkazgan joylarni ziyorat qildi. Bu paytga kelib, hukmdorlar bu yerlarga qadam ranjida qilmay qo'yishgan edi. Ibodatgohning bunchalar xor bo'lib yotganini ko'rgan Konfutsiy chuqur xayolga tolib, mahzun bo'lib qoldi. Bunday lahzalarda Konfutsiy o'zi qilayotgan ishlarning haq yoki nohaqligi haqida betinim o'ylar, o'zidan keyin ta'limoti qanday ahvolga tushishini o'ylab qattiq qayg'urardi.

Shunday daqiqalarda u shogirdlariga derdi:

- Egri-bugri va tor, qo'rqinchli so'qmoqlarni oralab o'tmay turib, cho'qilarni zabt etib bo'lmaydi, mehnat va mashhaqqat chekmas ekansan, ezgu ishlarni amalga oshirolmaysan. Agar yo'lni yaxshi bilmay-o'rganmay turib, ishonchli yo'lboshlovchisiz safarga chiqsang, hayoting xavf ostida qoladi va hatto adashib-ulog'ib yurib, o'lib ketishing ham hech gap emas. Men Tyanshan cho'qqisiga yana bir marta chiqishni, bu yerdan turib dunyoning to'rt tomoniga nazar tashlashni va ajoyib manzaralardan bahramand bo'lishni orzu qilardim. Tog'ning yuksakligi ham, uni qoplab olgan to'qayzorlarning yirtqich hayvonlarga to'la ekanligi ham, yo'ldagi jarlik va o'qonlar ham meni qo'rqitmad! Men tog' yo'llarida cho'qqiga eltuvchi so'qmoqlar, jarlik va soyarlardan olib o'tuvchi ko'priklar borligini bilardim va shuning uchun xotirjam edim!...

Evohl... Men aldangan ekanman: so'qmoqlar odam yurmaganini uchun barham topib ketibdi. Endi bu yerlardan yurmog'chi bo'lgan odam qayerga borishini, qay joyga qadam qo'yishini bilmay boshi qotadi. Ko'priklar buzilib, borlari ham chayqalib, yiqilay-yiqilay deb turibdi... Yangi so'qmoqlar olishga, yana qayta ko'priklar qurishga endi mening kuchim yetadimi? Bularni barpo qilish uchun ishlatiladigan asbob-uskunalar qayda? Ezgulik urug'lari qadalgan maydonlarni vahshiylik o'lanlari bosib yotibdi, dalalarni bu yovvoyi o'lanlardan tozalash uchun vaqt qani? Odamlarni yaxshilik, ezgulik, saxovatpehalik yo'lga yo'llayman deb qilgan ishlarimning bari behuda ketganimi bu? Shunday ekan, qilgan barcha mehnatlarimga achinib, endi men yig'lamay, kim yig'lasin, axir!...

YETTINCHI BOB

KONFUTSIY HAYOTINING SO'NGGI YILLARI. TARIXIY ASARLARINING YOZIB TUGATILISHI

Ko'p yillik darbadarlikdan so'ng Konfutsiy uyiga - Lu viloyatiga qaytib keldi. Shu yerda xotinining vafot qilganini eshitdi. Bu qayg'uli xabarni eshitib, faylasuf dedi:

- Rafiqam vafot qilibdi, men ham tez orada uning izidan jo'naman. Men 66 yoshga to'ldim. Qolgan kunlarimni foydali va mazmunli o'tkazolsam yaxshi edi. O'g'limga tasalli beringlar, u ko'pam qayg'uga botavermasin.

Umrining oxirgi yillarini donishmand, asosan, shogirdlari bilan mashg'ulotlar o'tkazishga bag'ishladi. Shaharning yon-atroflarida azaldan bir nechta tepalik mavjud bo'lib, qadimda bu yerda qurilgan ibodatxonalarda qurbonlik qilish marosimlari o'tkazilgan, endilikda esa bu qadamlar xarobaga aylanib qolgan edi. Konfutsiy shogirdlari bilan mana shu bahavo manzillarda o'zlari uchun qo'nalga joylar qurib olgan edi. Faylasuf ko'proq qadam ranjida qiladigan tepalikdagi qo'nalarning biriga shogirdlar o'zlaricha «O'rikqo'rg'on» deb nom qo'yishgan edi. Mana shu yerda Konfutsiy qadimgi

kitoblarni qayta ko'chirar, o'zining boshlab qo'ygan asarlarini nihoyasiga yetkazardi. Ustoz nazarda uch ming nafar shogirdidan 72 nafari musiq va nafis san'at qoidalarini shartlab berishga, faqat 12 nafarigina falsafa va oliyanoblik qonuniyatini izohlashga qodir edi, xolos. Bu shogirdlar Konfutsiyning eng yaqin, ishongan o'quvchilari bo'lib, ular ustozning barcha ezgu ishlaridan, niyatlaridan, ta'limotidan boxabar edilar. Ustoz, ayniqsa, Yan Xuen ismi shogirdini o'ziga yaqin olar edi. Afsuski, Yan Xuen ustoz hayotligidayoq juda erta olamdan o'tdi.

Bir kuni Konfutsiy uch nafar shogirdi bilan tepaliklarni ziyorat qilib yurganida bir qo'rg'onchaga duch keldilar. Bu inshootni qadimda sarkardalarning biri qozongan g'alabasi sharafiga tiklagan edi. Konfutsiy qo'rg'onni ko'rdi-yu, yana mahzun holatga tushib qoldi. Shogirdlar uning g'amginligini sog'lig'ining yaxshilanmasligidan deb bilib, hol so'radilar. Konfutsiy shunday javob berdi:

- Xavotirlanmanglar, men soppa-sog'man. Faqat manavi inshootning g'aribgina xarobaga aylanib qolgani ko'nglimda inson shon-shuhrati naqadar o'tkinchi ekanligi haqidagi fikrlarni qo'zg'ab, meni mahzun qilib qo'ydi. Menga kun beringlar, sizlarga dunyoning foniyiligi haqida bir miskin qo'shiq kuylab beray... «Garnsel, issiqdar sovuq-salqin bilan almashadi. Bahor va yoz qahraton qish bilan almashadi. Quyosh G'arbga botish uchun Sharqdan chiqib keladi. Daryolar ulkan dengizlarga borib qo'shilish uchun intiladilar. Ammo qahraton qishning izidan yana bahor keladi, quyosh G'arbga borib botganidan so'ng ertasiga yana Sharqdan chiqib keladi, dengizga borib qo'shilgan daryo suvlari yangi yangi suvlar bilan qovushadilar. Hayhot, manov qo'rg'onni qurgan sarkardaning holi ne kechdi ekan, qani uning kishnab turgan duldul otlari? Qani uning janglarda jasorat ko'rsatgan qahraton askarlari? Ulardan faqat mana shu qo'rg'on, mana shu nuragan tuproq, maysa-o'tlar bosgan mana shu maydon qoldi, xolos...»

² Kun - musiqqa asbobl.

Yana bir gal buyuk donishmand va hukmdor Fusining "Evrilishlar kitobi"ni ko'chirib o'tirib, Konfutsiy Sun-i belgisi (Sun-i - vayronagarlik va qayta tiklanish ramzi) ustida xayolga tolib qoldi.

- Hamma narsaning o'z vaqti bor va hamma narsa o'tkinchidir, - dedi faylasuf shogirdlariga. - Dunyodagi hamma narsa o'zgaradi va yo'q bo'lib ketadi, yangi moddaga aylanib, dunyo yuziga keladi, bu yangilanish yana takrorlanadi va yana tanazzulga yuz tutadi, qurib-yo'qoladi, yana yangilanadi. Bu harakat cheksiz-nihoyasiz davom etaveradi...

Odamsot hayoti va vafoti, tug'ilish va o'lim haqidagi fikr mo'ysafid faylasufning xayolini tez-tez band qiladigan bo'lib qolgan edi. 70 yoshlardan oshganda u osmon sharafiga toat-ibodat marosimini o'tkazish uchun yana muqaddas Tyanshan tog'iga safar uyushtirdi. O'zining umri nihoyasiga yetib borayotganini sezgan Konfutsiy bergan in'omlari va ne'matlari uchun, rahmdilligi va saxovatpehalligi uchun Osmonga minnatdorchilik bildirish niyatida edi.

U o'zining barcha shogirdlarini yoniga chorladi va ularni ziyorat marosimiga boshlab ketdi. Shogirdlar Tyanshan tog'ida minbar yasab, uning ustiga Konfutsiy ijod qilgan 6 ta kitobni qo'ydi. Donishmand yuzini shimolga qaratib, tiz cho'kib Osmun sharafiga ibodat qila boshladi. Oradan bir necha kun o'tib, u yana shogirdlarini chorladi va o'zining so'nggi vasiyatini ovoza qildi:

- Sizlarni oxirgi marotaba chorlayapman. So'zlarimni yaxshilab tinglab, yodda saqlab qolinglar, zero bular mening oxirgi vasiyatlarimdir. Inson har qancha aql-idrokli, ma'rifati bo'lmasin, u hamisha dahol mutafakkir, hamma narsaga aqli yetadigan, buyuk zeln sohibi bo'lavermaydi. Har bir insonda har xil qobiliyatlar bilan bir qatorda rivojlangan bitta iste'dod ham bo'ladi, u ana shu asosiy iste'dodi tufayli o'ziga eng foydali sohani tanlaydi va shu bilan shuhrat qozonadi. Agar shu asosiy iste'dodini rivojlantirmasdan, o'zining axloqiga mos kelmaydigan boshqa bir qobiliyatni ishga solmoqchi bo'lsa, o'ksinib qolgan asosiy iste'dodi endi yomonlik uyasiiga aylanadi va odamni ustma-ust xato qilishga majbur etadi. Bizlar

bir-birimizni ko'p vaqtdan beri bilamiz, men sizlarga ustozlik qilishni kecha boshlaganim yo'q. Men qo'limdan kelganicha o'zim bilgan muqaddas majburiyatlarni sizlarga singdirishga harakat qildim. O'z navbatida sizlar ham barcha yaxshi-yomon kunlarda mening yonimda bo'ldingiz, bilimni egallash ham, donishmandlikka erishish ham oson ish emasligini tajribada sinab ko'rdingiz. Ha, insonning o'z yo'lini topib olishi, taqdirini yaratishi – yengil ish emas. Davlatni boshqarish o'lda-jo'lda bo'lib yotgan hozirgi vaziyatda ko'pchilik odamlar huquq borasida, urf-odat va diniy sohalarida islohotlar qilishni istamayotgan bir pallada sizlar mening ta'limotimni targ'ib qilamiz deb urinmanglar, bundan umid ham qilmanglar. Men hali ko'p ishlarni amalga oshira olmaganimni o'zinglar ko'rib turibsizlar. Men sizlarga kitoblarni vasiyat qilib qoldiraman. Ular bilim manbayi va donishmandlik qoidalarining noyob to'plamlaridir. Men yaratgan ta'limotning butun muvaffaqiyati mana shu kitoblarda jamlangan. Ularni qanday yozilgan bo'lsa, shu holatda, hech narsa qo'shmasdan-chatmasdan avlodlarga yetkazinglar. Vasiyatimni to'la ado qilish uchun ushbu mehnatlarimni har kim o'zining qobiliyatiga yarasha bo'lishib olsin. Mentszi, Jan, Bonyu va Chjun Gun, men sizlarga ma'naviyat, odob-axloqqa doir yozganlarimni tavsiya etaman. Tszay Vo va Tszu Gun, sizlarning notiqlik san'atingiz kuchli, shuning uchun sizlar nutq ilmiga doir yozgan asarlarimni o'rganing va targ'ib qilinglar. Jan Yu va Tszilu, sizlar dunyoviy odamlarsiz, boshqaruv ilmidan ham tajribalaring bor, shuning uchun sizlar davlat ishlari, lavozimlar haqida yozganlarimni rivojlantiringlar, xalq bilan davlat xodimlarini yaqinlashtirish usullarini targ'ib qilinglar, xalqning ma'rifatini oshirish haqida o'ylanglar. Tszu Yu va Tszu Sya, sizlar tarix va qadimiyat bilimdonlarsiz, sizlar xalqni marosimlar va qadimiy ezguliklarga o'rgatish borasida faoliyat yuritinglar. Shunday qilib, sizlarning har biringiz o'z qobiliyatingiz va iste'dodingizga yarasha vasiyatlarimni ado qilishga kirishsilar deb umid qilaman.

Vafotidan bir necha kun oldin faylasuf saroyga kelib, baland tom tepasidan yer ruhlari sharafiga bag'ishlangan xalq

bayramini tomosha qildi. Har yili ikki marotaba – bahorgi va kuzgi tengkunlik pallasida yerning ne'mat ulashuvchi sakkiz atrohi (Batsza) sharafiga bayram bo'lib o'tardi. Xalq shu kuni har xil taomlar tayyorlar, sabzavot, don-dun va hokazolarni namoyish etar, qo'shiq kuylar, raqsga tushar – bir so'z bilan aytganda, chin dilidan xursandchilik qilardi. Faylasuf bayramni tomosha qilar ekan, yonidagi shogirdi Tszu Gunga dedi:

– Xalq o'zining qayg'u-tashvishini unutib, qisqa vaqt bo'lsa ham to'q va baxtiyor ko'rinishga harakat qilayotgani menga yoqadi!

– Xalq ichib, mast-alast bo'lib, bo'lmag'ur o'yinlar o'ynash o'rniga mana shunday qilib ruhlarni yodlasa, ular sharafiga minnatdorlik bildirib, qurbonlik keltirsa, shu yaxshi emasmi? – so'radi shogird.

– Siz to'g'ri aytapsiz, – dedi Konfutsiy. – In'om etilgan ne'matlar uchun shukrona keltirish va yana yangi hosillardan umid qilish yaxshi, albatta. Yuz kunlik betinim mehnatdan so'ng bir kunni mana shunday bayram bilan o'tkazilisa, xalqni ayblab bo'lmaydi. Axir yoyga kirib, otilishga tayyor turgan o'q ham sira otilmasa, vaqt o'tgani sayin yoy bo'shashib borgan kabi muttasil mehnat qilavergan odamning jismi ham, ruhiyati ham charchaydi-dai!

Ustozning so'nggi daqiqalarida ham mana shu shogirdi yonida edi.

– Quvvatim ado bo'layotir, – dedi Konfutsiy, – endi men tuzalmasam kerak! Keyin ko'zlaridan shashqator yosh oqib so'zida davom etdi: – Boshimni ko'tarib Tyanshan cho'qqisiga qarashga ham holim kelmayapti.. A'zoyi badanim xuddi bino tagidagi chirib bitgan og'och kabi qurib qoldi... O'zimming esa so'lgan maysadan fargim yo'q. O'limimdan keyin mening mashqgati mehnatimni kim davom ettiradi? Vasiyatlarimni qo'llab-quvvatlovchi odam topiladimi?

Bu tashvishi so'zlar uning oxirgi so'zlari edi. Oradan ko'p o'tmay u hushini yo'qotdi va yetti kun behush yotib, Iso Masih tavalludidan 479 yil muqaddam, 73 yoshida vafot qildi.

Konfutsiyning dafn marosimi qadimgi urf-odatlariga qat'iy rioya qilib o'tkazildi. Uning o'g'li avvalroq o'lib ketgan, nabirasi 551-479.

Tszisi hali yosh edi, dafn marosimlarida uyushtiriladigan urf-odatlarda ishtirok qilolmasdi. Shu sababli marhum faylasufning dafn marosimi bilan bog'liq barcha urf-odatarga Konfutsiyning ikki shogirdi bosh-qosh bo'lib turdi.

Ular marhumning ko'zini yopib, og'ziga guruch joyladilar, jasadni g'n bir xil kiyimga o'radilar. Odatda, saroyga borganda kiyadigan kiyimini hamma kiyimlarining ustidan kiydirdilar. Davlat vazirlari kiyadigan galpogni boshiga ildirdilar. Hurmat belgisi bo'lgan fil suyagidan yasalgan nishonani besh xil rangli ip bilan ko'kragiga taqib qo'ydilar. Jasadni shunday kiyintirib-bezatib, yog'ochdan yasalgan qo'shtobut ichiga yotqizdilar.

Shogirdlar shundan keyin marhumning nabirasi nomidan yer maydoni sotib oldilar. Shu yerda uchta gumbazli qo'rg'on tiklandi, o'rtadagiga Konfutsiyning jasadi dafn qilindi. Bu qo'rg'on yon tomondagi ikkitasiga qaraganda bir oz tikroq edi. Qabr yoniga tszyale daraxti o'tqazildi (bu daraxtning qurib qolgan tanasi hozir ham saqlanadi).

Dafn marosimida Konfutsiyning qarindoshlari, shogirdlari ishtirok etishdi. Jasad tuproqqa topshirilgach, shogirdlar ustoz xotirasini sharaflash maqsadida uch yillik motam tutishga ahd qildilar. Tszü Gun o'zining 6 yil aza tutishini e'lon qildi va ustozning qabri yonida maxsus kuuba tiklab, shu yerda yashay boshladi. Ustozning dafn marosimiga Xitoyning turli viloyatlaridan yetib kelgan shogirdlar ham o'zlari bilan turli daraxt ko'chatlarini olib kelgan edilar, ular qabr atrofiga o'tqazildi. Yuz nafar odam butun oilasi bilan ko'chib kelib, ustoz qabri atrofidan vatan tutdilar va shu yerda yashab qoldilar. Ular qishloqni Kun-li deb nomladilar, ustozning nabirasini ramziy ma'noda qishloq oqsoqoli qilib sayladilar. Konfutsiyning vafoti haqida Lu hokimiga xabar keltirganlarida, u:

– Osmon mendan darg'azab bo'libdi-da!. Eng ulug' xazinadan ayrilibman-da! – deb faryod urib yubordi.

Donishmand tirik chog'ida unga yetkazgan nohaqliklarni, xafagarchiliklarni, hech bo'lmaganda vafotidan keyin biroz yuvib yuborish maqsadida hokim uning qabri atrofiga

Konfutsiy sharafiga daxma qurishga buyruq berdi. Bunday esdalik daxmani, odatda, hokimlar o'zlarining ota-bobolari sharafiga tiklatar edilar. Daxma atrofi ulug' faylasuf yodini sharaflash uchun kelgan shogird va muxlislar xotira marosimini o'tkazadigan obod maskanga aylandi. Daxmaga Konfutsiy suratini naqshladilar, uning asarlarini minbar ustiga taxlab qo'ydilar, devorlarga ustozning kiyimlarini, cho'lg'u-musiqqa asboblari ildirdilar, ustoz foydalangan-tutgan uy jihozlarini, asbob-uskunalarini, minib sayohatga chiqqan aravani keltirib qo'ydilar. Daxmaning ochilish marosimi ham juda tantanali o'tdi. Lu hokimi Konfutsiyni o'zining ustози deb e'tirof etdi. Shogirdlar yilda bir marta kelib, ustoz qabrini ziyorat qilishga, toat va ibodat, sharaflash marosimini o'tkazib turishga kelishib oldilar. Mana ikki ming yildirki, bu odat uzluksiz davom etib kelmogda. Bundan tashqari, keyinchalik har bitta shaharda Konfutsiy sharafiga ibodatxonalar tiklandi. Xan sulolasining birinchi hukmdori davrida (miloddan avvalgi 200-yil) Konfutsiy xotirasini sharaflash marosimiga bosh bo'lish har bir hokim, davlat rahbari uchun majburiy etib qo'yildi. Shu yillar mobaynida donishmand xotirasini muqaddaslashtirish, uning o'zini ilohiy deb sharaflash odatlari shakllandi va bu marosimlar ham har yili uzluksiz o'tkazib kelinadi.

Keyinchalik yana bir odat yuzaga keldi – ilm yo'lga qadam qo'yayotgan har bir odam yoki davlat xizmatiga kirayotgan har bir xodimning Konfutsiy sharafiga tiklangan ibodatxonada (ular har bir shaharda mavjud) ustoz sharafiga toat-ibodat qilishi, uning ruhiga ta'zim bajo keltirish majburiy qilib qo'yildi. Ushbu qaror Konfutsiy vafotidan keyin qariyb 1500 yil keyin (miloddning 998-yilidan boshlab) kuchga kirdi. Ibodatxona barpo etishdan tashqari Lu hokimi ulug' islohotchiga yana "Ni otasi" degan sharafi nom ham berdi. Xan sulolasi davrida yana Konfutsiy gunlik (muqaddaslik, avliyolik) nasabi bilan ham siylandi. Tan sulolasi davrida u "Bosh avliyo" degan muqaddas nomga sazovor bo'ldi. Keyinchalik esa u "Xitoy imperatorining duogo'yi (voizi)" degan sharafiga loyiq topildi. Min sulolasi davrida u butun

insoniyatning ustozlari, eng muqaddas inson, eng dono odam deb atala boshladi. Konfutsiy siymosi tasvirlanadigan san'at va haykaltaroshlik asarlarida endi u shohona bosh kiyim (toj) va zarchoyda tasvirlanishi shart qilib qo'yildi. Bu oliy darajada ulug'lash namunasi bo'lib, hozir ham davom etib keladi. Konfutsiy avlodlari saroy aslzodalari darajasiga tenglashtirilib, ularga oliy nasab – nisbalar taqdim etildi. Shohanshoh Kan-si davrida ular ro'yxatga olinib, 11 000 erkak avlodi sanab o'tilgan.

SAKKIZINCHI BOB

KONFUTSIY TALIMOTNING G'ALABASI

Konfutsiy tirikligi chog'idayoq, keyinchalik vafoti oldidan ham qayg'uga tushib, axloqiy buzilishlar, davlat boshqaruvidagi parokandaliklar davrida o'z ta'limotini muhofaza qilish ishlarini kimlar amalga oshirishi mumkinligidan tashvishlanib yashaganini yuqorida aytib o'tgan edik. Ustozning bu tashvishi o'rinsiz bo'lib chiqdi. Ya'ni u "men o'lganimdan keyin nom-nishonsiz ko'milib ketadi" deb tashvishlangan ta'limot uning o'limidan so'ng izziz yo'qolish o'rniga benihoya darajada keng yoyilib, xalqning ongida, idrokida chuqur ildiz yoydi. Bunday ulug'vor voqelikning sabablari nimalardan iborat edi? Konfutsiy islohotchi sifatida tarixdagi boshqa arboblarga o'xshamasdi. U o'zining aqliy yoki ma'naviy asarini xalq hayotida o'rnatib bo'lsin uchun tavsiya etmadi. O'zini yangi ta'limotning ijodkori yoki targ'ibotchisi deb ham bilmasdi, zero u bunday maqsadlardan yiroq edi. Uning targ'ib etgan g'oyalari ilgari qadimgi donishmandlar e'lon qilgan, xalq ongida yashab kelayotgan pand-nasihatlar edi. To'g'ri, davlatchilik faoliyatidagi og'ir vaziyatlar tufayli ushbu g'oya va pand-nasihatlar xalq xotirasidan ko'tarilib, uchib ketadigan yoki aniqroq aytganda unutilayotgan holga kelib qolgan edi. Bir paytlar uning o'zidan "ta'limotingizdagi talab va majburiyatni amalga oshirish oddiy odamlar uchun juda qiyin bo'ladi, siz o'rta qo'yayotgan g'oyalarni amal-

ga oshirish uchun inson o'ta halol, haqiqatgo'y va oliyanob bo'lishi kerak, holbuki odamlar hali bunday hayotga tayyor emaslar. Shuning uchun odamlarni o'ylab, talab va shartlaringizni biroq yumshatsangiz, ta'limotingiz ham xalq ichida juda tez tarqalib ketardi-ku", deganlarida Konfutsiy shunday deb javob bergan edi:

– Mening ta'limotim bizlarga ota-bobalarimiz vasiyat qilib ketgan pand-nasihatlardan tarkib topgan. Men ular ichidan biror narsani olib tashlashga yoki biror narsani qo'shib qo'yishga haqim yo'q. Ular yaratilgan paytda qanday pokiza, toza bo'lsalar, men ham shu holida odamlarga tavsiya qilyapman. Dehqon urug' sochayotib o'z urug'iga qanday munosabarda bo'lsa, men ham shundayman. Dehqon odam o'zi ekayotgan urug'larga "Erta ko'karib chiq, tez hosil ber, tezroq pishib yetil", deb buyruq bera oladimi? Dehqonning ishi – urug' sepish, ularni sug'orish, begona o't-o'lanni yulib tashlab, maydonga ekilgan ekini parvarish qilishdir, qolgan – dehqonning ixtiyorida tashqaridagi narsalardir...

"Mening ta'limotim oddiy, soddagina ta'limot emas", derdi u shartlovchilarga o'z ta'limotining o'zlashtirilishi qiyinligi va mashqaqatligini tushuntirar ekan, uni targ'ib qilish, xalq ongiga singdirish ham juda sekin kechishini bashorat qilardi, bu ta'limot xuddi osmon kabi o'zgarmasdir, negaki osmonni yaratgan qudrati kuchning o'zi ham o'zgarmas va o'lmasdir. Bu ta'limot – qadimgi Yao va Shun davridan buyon oqib kelayotgan oqimdir.

Bunday qiyinchiliklarga qaramay, uning ta'limoti xalq ruhiga, uning dunyogarashi ommaning qarashlariga juda mos tushdi. Konfutsiy Xitoy xalqi xarakterining butun xususiyatini, uning barcha fazilatlarini va kamchiliklarini o'zda aks ettirgan inson edi. U toza qonli xitoy, "xitoyliklar ichida eng xitoy", xalq ruhini, dunyogarashini o'ziga singdirgan inson edi. Dunyogarashiga ko'ra bu odam g'oyat sermulohazali, hayotga tik boquvchi realist shaxs edi. U fikri, tuyg'ulari, o'y-xayoli bilan bevosita ko'z ko'radigan hamda aql idrok eta oladigan narsalarga bog'langan edi. Xitoyliklar o'z hayotida quruq hisob-kitobga asoslanadilar, ular borib turgan quruq

va g'oyasiz odamlardir. O'zini ifoda etish xitoyliklarda boshqa xalqlarga qaraganda nihoyatda kam rivojlangan. Biz idealizmining zarracha asari bo'lmagan bunday ratsionalistik xarakterni Konfutsiyni ta'limotida va uning axloqida ko'ramiz. Konfutsiy maishiy iste'molga kiritgan nizomlar, urf-odatlar barcha talot'plarni yengib o'tib, omon yashab qolganining, umrini yashab bo'lgan eskilik qoldiqlarini yangi va afzal urf-odatlar bilan almashirishga xitoyliklarning nafarat bilan qarashining sababi ham mana shunda (ya'ni ularda "hokim – barchadan dono, u hamma narsani biladi, hamma narsaga erishgan" degan tushuncha bor). Mana shuning uchun ham Konfutsiy ta'limoti hech qanday inqiloblarsiz, qon to'kilmasdan xalq ongiga va tomir-tomiriga, suyak-suyagiga kirib bordi, astoydil qabul qilindi. Barcha xitoyliklar shuning uchun ham qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'i nazar Konfutsiyparastdirlar.

Konfutsiyni izdoshi va qarindoshlaridan biri uning shaxsini quyidagicha ta'riflagan edi: "Osmon ostidagi olamda donishmand odam qanday fazilatlarga ega bo'lsa, shularning bari birgina Konfutsiyni o'zida mujassam edi – oliyanob, saxiy, muloyim, yaxshilikparvar, dono, bilimdon, mushkul vaziyatlarda vazmin, narsa-hodisalarni baholashda ziyrak, og'ir-bosiq va yengilmas; u – xuddi hammamni boqayotgan va ko'tarib turgan osmon va yerga o'xshardi; u – muttasil almashinib turadigan yil fasllaridek sokin bir shaxs; u – quyosh bilan oydek mukammal bir inson edi; u – xuddi o'z atrofidagi hamma narsaga fayz bag'ishlovchi buloq suviga o'xshar, sermulohaza va harakatchan edi; u – jarlikka o'xshagan teran va osmonga o'xshash bepoyon inson edi. Uni butun tabiat hurmat qilar, unga ishonar va uning oldida ta'zim qilardi. Uning nomi butun saltanat bo'ylab yoyildi va Mamma xalqlarigacha yetib bordi. Kemalar suzib boradigan, aravalar yetib boradigan, inson kirib boradigan hamma yerda, osmon ustini yopib, zamin ko'tarib turgan hamma joyda, quyosh va oy nur sochib turgan hamma manzilda, shudring va qirov tushadigan joylarda kimki yashasa va nafas olsa, hamma uni sevadi va sharaflaydi".

Barcha xitoyliklar bu ustozni "eng muqaddas, dono va oliyanob inson" deb biladi. U amaliyotchi bo'lgani uchun ham xitoyliklarga qadrlil. U voqeikdan tashqarida, anglab yetib bo'lmay xayoliy narsalar haqida fikr yuritishni yoqirtmasligini aytib o'tgan edik. Uning suhbatlarida mavzu ko'pincha qadimgi tarixga, xalq qo'shiqlari va qadimiy marosimlarga borib bog'lanardi, onda-sonda suhbatni ilohiyotga, oliy ilohga burar, metafizikaviy tortishuvlardan umuman o'zini olib qochardi.

– Men ko'p narsalar haqida gapirmaslikni afzal ko'raman, – degan edi u shogirdlariga suhbatlarning birida.

U bunday sukutni fazilat sanar va donolik belgisi deb bilardi.

Konfutsiy dono odamni shunday ta'riflaydi:

– Haqiqiy dono odam ziyofatga taklif qilmasa, kelmaydi; o'zini ko'z-ko'zlashni istamaydi; taklif qilingach, boshqalarga o'xshab odob-axloq qoidalaridan, turmush shart-sharoitlaridan kelib chiqib fikr yuritadi. Agar unga nisbatan e'tibor qilmayotgan bo'lsalar, u bundan zarracha g'am yemaydi, norozilik bildirmaydi. U ertadan kechgacha mutolaa bilan band bo'ladi. Agar unga biror lavozim taklif qilinsa (agar dono odam o'zida shunday qobiliyatni mavjud deb bilsa), u lavozimni qabul qiladi va lavozim burchlarini qoyilmaqom ado etadi. U aslo mukofotni so'rab olmaydi, xazinalariga ko'z olaytirmaydi: uning iniltadigan yagona xazinasi, bu bilimdir; uning uchun eng ulug' nom bu – "donishmand" degan so'zning o'zi. U eng ishonchli odamlaragagina ishonadi, samimiy odamlar bilangina suhbatlashadi, boy-badavlat odamlar oldida yaltog'lanmaydi, kambag'allar oldida manmansiramaydi, boy odamlarning hurmatini ham joyiga qo'yadi, kambag'allarga esa xushmuomalalik ko'rsatadi. U hammamni hurmat-izzat qiladi. Kingadir tanbeh berganda ham, nasihat qilganda ham ehtiyotkorona gapiradi, hech kimni maxxalamaydi. Aglli odamlarni u juda hurmat qiladi, lekin ularni maqtamaydi, ularning oldida past ketmaydi, mag'rurlanmaydi ham. U o'zining burchini hamisha va hamma yerda ado qilarkan, hech narsadan qo'rqmaydi – haqoniylik va to'g'riligi tufayli

u har qanday hujumlardan o'zini omon saqlay oladi; gonun va haqiqat - uning yonidagi doimiy qurolidir. U barcha odamni sevadi, barchani birday ko'radi, shuning uchun u eng mustabid odamlardan ham qo'rqmaydi. Uning bilimlari nechog'lik bepoyon bo'lmasin, u yana bilimini oshirishni o'ylaydi. Odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qiladi. O'zini nazorat qilishni bir lahza bo'lsin susaytirmaydi. Gap halollik va saxovat haqida ketar ekan, uning uchun ahmiyatsiz narsaning o'zi yo'q. Dono odam xizmatda jiddiy va qat'iyati, ammo u barcha odam bilan hamma vaqt xushmuomala va shirins'o'z, quvnoq va barcha do'stlariga mehribon. U donishmandlar davrasida o'zini erkin tutadi, lekin boshqa odamlar bilan ham suhbatlashishni yaxshi ko'radi. U oilada ham hamma bilan bir xil muomalada, birovni erkalab, boshqa birovga ola qaramaydi. Agar kimdir donishmandga yomon so'z aytib, yo yomonlik qilib ko'ngliga tegsa, u qahru g'azabini bildirmaydi, achchig'i kelmaydi. Dono odam qay holatda bo'lmasin, el-yurtga, odamlarga foydasi tegishini o'ylaydi; kingadir yordami tegsa, bu bilan maqtanib yurmaydi, ammo qilingan ish uchun minnatdorlik bildirishlarini sabr-toqat va chidam bilan, kamtarlik bilan kutib yuradi. Agar bu borada ham uni chetlab o'tsalar, rahmat aytib qo'yishni unutsalar, u achchiqlanmaydi, hech kimga shikoyat qilmaydi. Halol odamlarning maqtovi, yaxshilikka bir kuni qayradigan yaxshilik - mana shu uning uchun eng a'lo mukofotidir. Agar uni maqtovlarga, mukofotlarga ko'mib tashlasangiz, u mag'rurlanib ketmaydi, har doimgidek hamma-hamma bilan xushmuomalada bo'laveradi. U hasad, yaltog'lanish, xushomad, birovdan nafatlanishni bilmaydi, hamma yerda, hamisha murosayu madorada yashayveradi. Shuning uchun ham unga hamma havas qiladi, hurmatlaydi. Uning donishmandligining bosh manbalari - mehr-muhabbat va butun odamzotning qayg'u-iztirobidir.

Faylasufning o'zi hayotda mana shunday edi. Shogirdlari yozib qoldirgan xotiralar, saqlanib qolgan ma'lumotlarda keltirilishicha, Konfutsiy adolatparvar, tashabbuskor, halol, vazmin va bosiq odam bo'lgan. "Ustoz hamma vaqt xotirjam, o'z qadriini yaxshi biluvchi, muloyim va shafqatpesha inson

degan nomga hamma vaqt o'zini munosib tutuvchi kishi edi. Shaxsiy hayotda ham u yetti o'lchab bir kesadigan yoqimtoy inson edi. Ko'p ovqatlanmas, taom yegan vaqtida gapirmas, hamma yerda kamgap, kamtar edi, aravada o'zini tik tutib o'tirardi". Hayotda amaliyotchi bo'lgan Konfutsiy o'z ta'limotini xalqqa singdirish borasida ham shunday edi. Uning barcha suhbat va nasihatlari hayot hikmatlarini ham, oddiy voqealarni, hayot yo'lidagi tabiiy talablarni ham qamrab olishga yo'naltirilgan edi. Uning butun ta'limoti quyidagi uchta munosabatni yo'lga qo'yish uchun xizmat qiladi: shohning raiyatga munosabati; otaning bolaga munosabati; erning xotinga munosabati. U beshta oliy faoliyat va burchni to'la ado etishda aniq gonun-qoidalariga rioya qilish zarurligini qayd etadi: insonsevarlik, ya'ni o'zingga o'xshash har bir insonga, uning kim bo'lishidan qat'i nazar hamdardlik; har kimga qilganiga yarasha yuzxotir qilimmasdan mukofot yoki jazoning tayinligi; amaldagi gonunlarga bo'ysunish va hukmron dinda belgilangan urf-odatlariga rioya qilish; haqiqatsevarlik, ya'ni yolg'on aralashgan har qanday narsadan, albatta, hazar qilish va nihoyat har bir narsa borasida doimo halollik va sadoqat. Konfutsiy mana shu munosabatlar va faoliyatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi butun insoniyat uchun baxti turmush kechirish imkoniyatini yaratadi deb bildi va ularning har biriga oid ma'lum marosimlarni o'tkazish qoidalarini ishlab chiqib, hayotga tatbiq etdi hamda shu asosda o'z ta'limotini yaratdi. Bu ma'naviy faoliyatni amalga oshirishda asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat: nafsaga berilmasilik; faoliyatning teng o'lchamliligi; barcha xatti-harakatlarda o'rtacha mezonni saqlash va o'rtachalikka rioya qilish; hamisha va har bir ishda bosiq-vazminlik; shularning natijasi o'laroq - xotirjamlik, hovliqmaslik. Dono odam mana shunday ma'naviy kamolotga intilmog'i joiz. Odam har bir ishda o'rtacha yo'l tutmog'i lozim, u hech narsani haddan tashqari yomon ko'rib yoki haddan tashqari yaxshi ko'rib qolmasligi kerak; qayg'uiga haddan tashqari berilmasiligi, baxti damlarda haddan tashqari quvonmasligi kerak. Bir so'z bilan aytganda, Konfutsiy har bir ishda vazminlik, bosiqlik bilan harakat qilishi, hech narsani

haddan oshirib yubormaslikni inson ma'naviyatining asosiy qoidalari sifatida qayd etadi.

Boshqa odamlarga nisbatan ma'naviy-axloqiy muomala qilishda ham mana shu qoidalarini qo'llash kerak, ya'ni o'zingga lozim topmagan ishini boshqa bировga ham ravo ko'rmaslik, bundan saqlanish, shu tariqa bu borada ham uyg'unlikka rioya qilish. Barcha ma'naviy faoliyatda ham mana shularga amal qilish kerak. Adolat va halollik, o'zingga ishonch o'rnatish va so'zga sodiqlik, jamoat ishida, dunyoviy ishlar va do'stona munosabatlarda samimiyatlikni asos qilib olish tushunmovchiliklarni bartaraf etadi. Yoshi kattalarga hurmat va ularning aytganlariga quloq solish, sabr-toqati bo'lish va nihoyat, kim bo'lishidan qat'i nazar hamma bilan xushmuomalada bo'lish – bular ham har bir ishda o'rtachalikka rioya qilish, uyg'unlikka intilish tuyg'ularidan kelib chiqadi. Konfutsiy nazarida ko'ngil bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarda o'zini tuta bilmov – hissiyotlarni, hirs va nafsni jilovlashga asos bo'ladi.

O'rtacha yo'l tutish haqidagi ta'limot – xalqning butun tashqi turmushi, hayot tarzi, butun davlat tizimi, shuningdek, xalqning axloqi va ma'naviyatini gamrab oladigan omildir. Bu ta'limot xalq ongida ildiz joyishi, singishi uchun donishmand bir qator urf-odatlar yoki marosimlar majmuasini yaratdi. Marosimlar odamga sobitlik bag'ishlovchi manba, odam shu tufayli ma'lum vaqtlarda, ma'lum vaziyatlarda nima qilish kerakligini, o'zini qanday tutish lozimligini, turli xil vaziyatlarda, har xil to'qnashuvlarda va hatto janjalli holatlarda, achchiq-tiziq gaplar aytilyotganda qanday qilib o'zini munosib tutish kerakligini bilib oladi.

Konfutsiy marosimlarni osmon va yer o'rtasidagi rishta deb atardi, faqat bu rishta tashqi shakl, sun'iy omil bo'lib qolmasligi kerak, balki odamlar o'rtasidagi tug'ilganidan boshlab ularga mansub bo'ladigan munosabatlarni tartibga solishi, ishda ko'maklashmogi lozim. Konfutsiyni ta'lim berishicha, narsalar xuddi tabiatdagi rang-baranglik, oliy va quyi sifatlariga ko'ra farqlangani kabi, marosimlar ham shaxslararo munosabatlarning turli-tumanligidan, qalin-

siyrak yoki mustahkam-salqiligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham kiyimlarga, nikohga, dafnga, qurbonlik keltirish, shohni e'zozlash va unga ta'zim etishga oid marosimlar uyushtirish haqida turli xil qarorlar qabul qilinadi, hukmdor va osmon, hukmdor va amaldorlar, ota bilan farzand, katta bilan kichik, er bilan xotin va nihoyat do'star o'rtasidagi munosabatlar belgilab olinadi.

Haqiqatan ham xitoy xalqi turmush tarzining barcha jihatlari – madaniyat va ta'lim sohasini olasizmi, uy ichidagi maishiy turmush yoki xo'jalik yuritish sohasini olasizmi, davlat boshqaruvini olasizmi, hattoki koinotning tuzilishi bilan bog'liq tushunchalar ham – hamma-hammasi qandaydir bir marosim, urf-odatlar bilan bog'lanib ketgan bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, Konfutsiyni axloq borasidagi ta'limoti, odob-axloqqa doir qoidalarining majmui o'sha marosimlarga borib taqaladi. Inson axloqi bilan bog'liq barcha jihatlari – muhabbat, haqiqat, donolik, bilim, halollik ana shu marosimlarda aks etadi, marosimlarda shular nazarda tutiladi. Shunday qilib, Konfutsiy ta'limotida marosimlar din o'rni egalladi. Muhabbat, ezgulik, qurbonlik va hokazolar – bularning barchasiga amaliy nuqtai nazardan qaraladi: odam o'z yaqinlarini sevishi, ezguliklar yaratishi, qurbonlik keltirishi kerak, negaki bu unga foydalidir, sababi, shundagina vaqti kelib tiriklar uning o'zini ham yodlab-sharaflab, unga qurbonlik keltirishi mumkin, degan nuqtai nazar bu ta'limotning asosini tashkil etadi.

Konfutsiy odamlarni haqiqiy baxt-saodatga eltuvchi yo'l izladi, baxt-saodatni esa u o'zi yaratgan odob-axloq me'yorlarida deb bildi. Uning nazarida baxti bo'lishning yo'li: farzandlar – ota-onalarga, ayol – eriga, fuqarolar esa – o'z hukumatiga cheksiz darajada bo'yusinishlari lozimi. Odam bolasi har qanday sharoitda, har qancha kuchi hissiyot doirasida ham vazminlik, hushyorlik va o'rtacha yo'lni aniq saqlay olmog'i, o'zini tuta bilmog'i kerak.

"Sayroqi bedana cho'qqining bir chetigacha boradi-da, o'ziga boshpana topadi, u o'zining qayerda to'xtashi kerakligini yaxshi biladi. Nega endi odam mana shu qushchalik emas? –

deydi Konfutsiy. – Ya'ni odam nega o'z harakatlari har doim o'rtacha yo'lni tuta olmaydi?"

Xitoyning butun oilaviy va siyosiy hayoti tuzilishi o'rtacha yo'l haqidagi ta'limotga asoslanadi. Jamiyatning demokratik ibtidosi va hukmdorning cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lishi tarafdori sanalmish Konfutsiy hukmdorning o'zini o'rtacha yo'l tutish haqidagi ta'limoti bilan cheklab qo'yadi, uning fikricha: "Hukmdorga faqat talablarni haddan oshirib yuborgan paytdagina qarshilik ko'rsatish mumkin; ozga qanoat qiliuvchi odam oson bo'ysunadi". U hukmdorlarga ham o'ylab ish tutishni maslahat beradi.

Shunday qilib, Konfutsiy o'z ta'limoti orqali qadimiy axloq qoidalarini qayta tiriltirdi va yangiladi, lekin u dini isloh qilmadi. U umuman dinga oid narsalar haqida kam gapirardi. U dini rivojlangan, takomillashgan, deb tushunardi, shuning uchun ham u din haqida gapirishni ortiqcha deb bildi. U din haqida gapirishdan o'zini olib qochardi, voqelikdan tashqaridagi anglab bo'lmaz narsalar haqida fikr yuritishni istamasdi. Shunga qaramasdan, u barcha qadimiy diniy urf-odatlarini qo'llab-quvvatlashga intildi. Ularning ahamiyati yoki mohiyati haqida so'ralganda esa Konfutsiy chalg'itib, mujmal javob berardi. Masalan, u xalq orasidagi ruhlar, tabiatdagi ilohiy qudrat namunalari, hodisalarga sig'inish odatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Konfutsiy so'zlariga ko'ra ular juda ko'p, ular har bir jonzo'ning vujudida, ko'rinnasdan yashaydi va bosh chanog'ining o'ng va chap tomonlarida xuddi tomib tushmoqchi bo'layotgan suv misoli osilib turadi. Konfutsiy ajdodlar ruhiga sig'inish odatiga ham amal qilgan, biz buni uning onasi vafot etganida dafn marosimida so'zlagan nutqi ma'nosidan ham uqib olamiz. Umuman, tabiatdagi ruhlar va marhumlarning arvoqlariga topinish-yukunish odatiga Konfutsiy xalq ommasi uchun ma'naviy tomondan foydali bo'lgan odat deb qarar edi. Bir shogirdi ruhlar sharafiga qo'y qurbon qilinadigan odatning ahamiyati borasida savol berganida, Konfutsiy:

– Siz qo'yga achinapsiz, men esa bu odatni saqlab qolish haqida qayg'uryapman! – degan edi.

Boshqa bir gal osmon sharafiga qurbonlik keltirish barobarida ajdodlar ruhiga qurbonlik qilishning ahamiyati haqida savol so'ralganida, u shunday dedi:

– Ajdodlarimiz – bizning va bizdan keyin keladigan avlod hayotining manbai. Osmonga minnatdorlik bildirish – odamning birinchi burchi bo'lsa, uning ikkinchi burchi – ajdodlar xotirasini yodlab turishdir. Osmon sharafiga ta'zim qilganimizda biz ajdodlarimiz ruhiga ham bosh eggan bo'lamiz! Faylasuf boqiy hayot borasida berilgan savollarga javob berishdan umuman bosh tortadi. Bir kuni shogirdlardan biri: "Ustoz, men o'lim haqida, o'limdan keyingi hayot haqida bilmog'chi edim", deganida Konfutsiy unga shunday javob berdi: "Agar siz, avvalo, hayot haqida tushunib olmasangiz, qanday qilib o'lim haqida tushunasiz?" U hatto o'lim oldida ham insoniy ho'yu-havaslarning, shon-shuhratning o'tkinchiligi haqida, hayotning tezobliligi to'g'risida fikr yuritgan, ammo oldinda o'zini nima kutayotgani, noma'lum kelajakdan qo'rqish, hadiksirash yoki o'zi ketayotgan tomon – narigi dunyo borasida biror og'iz gap ochmagan edi. Konfutsiy haqiqiy toza qonli xitoyliklarga o'xshab fikr yuritadi – hayotga nisbatan xotirjamlik, o'limdan qo'rqmaslik – bu xalqning mizojidagi eng ajoyib jihaddir⁸. Narigi dunyoda ajdodlar qanday yashayotgani, umuman, o'lgan odamlar ruhiga qanday xizmatlar qilish borasidagi savolga ham Konfutsiy shunday javob qilgan edi: "Agar biz tiriklarga yaxshi xizmat ko'rsatolmas ekanmiz, unda o'liklarga qanday qilib xizmat qila olamiz?"

Shularga qaramasdan, u barcha urf-odat va marosimlarni muttasil va to'la ado etishga intildi, bu bilan u boshqalarda ham marhumlarga, o'tgan ota-bobolar ruhiga ular vasiyat qilib ketgan hayot manbalariga hurmat uyg'otishga harakat qildi. U ana shu maqsadlarda, garchi inson bolasi marhumlarning ruhlari haqiqatan ham mavjudligiga ishonmasa ham ularga nisbatan xuddi tirikday munosabatda bo'lish lozimligini talab qildi. Undan, "Marhumlar ruhiga taom pishirib, qurbonlik keltirish nimani anglatadi, nahotki marhumlar shu taomlarni

⁸ Anx(Imandir) Xristianf xitoyliklarda hali hayotligidayoq o'zlariga tobut yasatib qo'yish odati borligini qayd etadi (muallif izohi).

tanovul qilsalar?" deb so'raganlarida Konfutsiy shunday javob bergan edi: "Albatta, ular bu ovqatlarni tanovul qilishmaydi. Bu odatdan ko'zlangan maqsad shuki, marhumlarga xuddi tiriklarday munosabatda bo'lmog'imiz lozim".

"Ota-bobalar avlodlarning nima qilayotganliklarini biladimi, ular bizlarni eshitadilar, ko'radilar?" degan savolga Konfutsiyning javobi ham yuqoridagiday, hayotiy hisob-kitobga, amaliy mazmunga ega bo'lgan tajribalardan kelib chiqqanligini anglaymiz. "Bunga aniq bir javob berish qiyin, - degan edi Konfutsiy, - agar men, ha, ajdodlarimiz o'zlariga ko'rsatlayotgan izzat-hurmatni his qiladi, ular avlodlarning zaminda nimalar bilan mashg'ulligini biladilar desam, unda qalburi ishonchga, bolalarcha muhabbatga to'lgan tiriklar marhumlarini sharaflash ishiga berilib ketadilar-da, o'zlarining shaxsiy hayotiga be'e'tibor bo'lib qoladilar. Aksincha, marhumlar avlodlar hayotidan butkul be'xabar bo'ladilar desam-chi, unda tiriklar marhumlarini yodlamay, ularga hurmat bajo keltirmay qo'yadilar va o'liklar bilan tiriklar o'rtasidagi muqaddas ittifoqqa darz ketib, o'z qadrlarini yo'qotadi. Shuning uchun ham bu boradagi muhokamalarni bas qilinglar-da, marhumlarning xotirasini e'zozlashda davom eting va ular bizlar qilayotgan har bir ishimizga guvohdirlar deb tasavvur qiling. Eng atzali mana shu".

Bir so'z bilan aytganda, Konfutsiy turli-tuman diniy urf-odatlarini qo'llab-quvvatlar, ularni davlatning tinchligi, xalqning osoyishtaligi va farovonligi yo'lidagi vosita deb qarardi. U bundan boshqa ortiqcha gapga o'tmas, haqiqiy xitoylikka o'xshab, hech qanaqa mo'jiza yoki g'ayritabiiy voqealarga ishonmas, barchasiga amaliy-hayotiy manfaat nuqtayi nazaridan yondashardi. Konfutsiy - amaliyotchi faylasuf, urf-odatlarini qadrllovchi, axloqshunos edi. Uning ta'limoti xitoyliklarning xarakteri va dunyoqarashiga aynan mos keldi. Shuning uchun ham uning ta'limoti quvvatlandi, kuchlandi, keng yoyildi va Xitoyda hozir ham bu ta'limotga amal qiladilar.

KONFUTSIY HIKMATLARI⁹

Eng aqlli odamlar va eng ahmoqlargina o'zgarmaydilar.

* * *

Oliyano odam burchini anglab yetgan bo'lsa, pastkash odam faqat foydani ko'zlaydi.

* * *

Hech narsani haddidan oshirmanglar. Haddan oshish - orqada qolishdek yomon (ko'rsatkich)dir.

* * *

Men ba'zan kun bo'yi hech narsa yemasdan va tun bo'yi uxlamasdan xayol surib chiqaman, lekin bundan foyda yo'q. Eng yaxshisi, o'qib-o'rganishdir.

* * *

Kimki ayol go'zalligiga berilmasa, vaqtining borini ota-ona xizmatiga yo'naltirsa, hukmdorga xizmat qilishdan o'zini ayamasa, do'stlari bilan yaxshi munosabatda bo'lsa va ularning ishonchini qozona olsa, hamma odam uni o'qimagan deb tan olsa ham men ana shu odamni olim deb bilaman.

* * *

Odamlarning so'zini eshit va sa'y-harakatlarini ko'r, shundagina ularning qanday odamligiga baho bera olasan.

* * *

Odam maqtovgaga loyiq biron-bir ish qila olsa, bu ish ana shu odam qaysi sohada foyda keltira olishini ham ko'rsatadi.

⁹ Konfutsiy hikmatlari tarjimon tomonidan rus tilidagi manbalardan to'plangan.

* * *

Biror narsani bilsang, bilaman deb, bilmasang, bilmayman deb hisobla. Bu iqror bilinga bo'lgan munosabatni shakllantiradi.

* * *

Ustoz (Konfutsiy) to'rt narsada o'zini qat'iy tutardi: quruq xayolga berilmasdi, o'zining bilganlarini yagona – to'g'ri deb aytmadi, o'jarlik qilmasdi va hech qachon o'zining shaxsiy foydasini o'ylamasdi.

* * *

Oliyano odam kishilarni ularning aytgan so'zlariga qarab maqtamaydi, shu bilan birga u nomunosib odamlardan eshitgan yaxshi so'zlarni ham chiqitga chiqarmaydi.

* * *

So'zamol odamning tashqi ko'rinishi ham jozibali bo'lsa, bundaylar ichida samimiysi kam uchraydi.

* * *

Insonlikka munosib odam keng bilinga, mustahkam irodaga ega bo'lmasilgi mumkin emas. Negaki u ko'taradigan yuk og'ir, yo'li esa uzoq kechadi.

* * *

Dono odam hayajonlanmaydi, muruvvati odam tashvishlanmaydi, jasur odam qo'rqmaydi.

* * *

O'zini yeng'a olgan va o'zidagi eng muhim fazilatlarini asrab qolgan odam haqiqiy insondir.

* * *

Muruvvati bo'lish yoki bo'lmasilik – bu faqat o'zimizgagina bog'liq.

* * *

Tabiat ato qilgan qobiliyatiga ko'ra odamlar bir-birlariga juda yaqindirlar, malakalariga ko'ra ular bir-biriga sira o'xshamaydilar.

* * *

Komil inson hamma narsani o'zidan izlaydi, noqis odam o'zgalardan.

* * *

O'qib-o'rgansang va vaqti kelganida o'rganganlaringni amalda qo'llasang, eng ajoyib ish shu emasmi? Uzoqlardan kelgan do'st bilan suhat eng quvonchli voqea emasmi? Odamlar sening yaxshi inson ekanligingni bilmay, seni yozg'irsalar-u, sen ularga kek saqlamasang, bu axir oliyianoqlik emasmi?

* * *

Ertalab haqiqatni anglab yetgan bo'lsang, kechqurun o'lsang ham bo'laveradi.

* * *

Yoshligimda men egallagan mavqe past edi, shuning uchun ham ko'p narsalarni oddiy odamlardan o'rganganman.

* * *

Insonsevarlik nima degani? Bu – odamlarga mehr deganidir.

* * *

O'zingga nimani ravo ko'rmasang, odamlarga ham shuni ravo ko'rma.

* * *

– Boshqalar haqida gapirganda o'zingdan kelib chiqib gapirgin.

* * *

Insonsevarlik fazilatiga ega bo'lgan odamgina boshqalarni sevishi yoki nafratlana olishi mumkin.

* * *

Xalqni axloq qoidalariga o'rgatmasdan turib, uni jinoyat qilganlikda ayblamaslik kerak.

* * *

Bag'rikenglik (saxovat) xalqni o'zingga jalb etish uchun imkon yaratadi.

* * *

Oliyjanob odam muhtojliklar paytida o'zini munosib tutadi, pastkash odam esa bunday paytda o'zining kimligini namoyon etib qo'yadi.

* * *

Oliyjanob odam burchni birinchi darajali vazifa deb biladi.

* * *

Oliyjanob odam uch narsadan qo'rqadi, ularga bo'ysunadi: taqdirga, ulug' odamlarga va donolarning so'ziga.

* * *

Hayot nimaligini tushummasdan turib, o'lim nimaligini ham tushunib bo'lmaydi.

* * *

Bilimga ega odam unga amal qilmasa (yoki amalda qo'llay olmasa), bu - uning bilimlari mustahkam emasligini ko'rsatadi.

* * *

Yo'lida to'rt odam bo'lib ketayotgan bo'lsak, ular ichida mendan ko'ra ko'proq biladigani albatta topiladi, men uni tanlab olaman va unga ergashaman; qolgan bilimsizroqlariga esa bilganlarimni o'rgataman.

* * *

O'qib-o'rgansang-u, fikr qilmasang, vaqting bekor ketgan bo'ladi. Fikr qilsang-u, o'qib-o'rganmasang, bu endi halokat deganidir.

* * *

Odam o'qimog'i va vaqti-vaqti bilan o'qiganlarini takrorlab turmog'i kerak.

* * *

Oltin o'rtalik eng afzal tamoyil sifatida namoyon bo'ladi, odamlar hamisha shunga muhtojdirlar. Ikkala tomonni ham (ham yaxshi, ham yomon tomonni) qo'lningda tut va shu o'rtalikdan olib, xalqqa tavsiya qil.

* * *

Do'stlik o'rnatish uchun o'rtalikka yon bosuvchi odamlarni topa olmasang, albatta, yo o'zini bosa olmaydiganlar bilan yoki o'ta ehtiyotkorlar bilan duch kelasan: o'zini bosolmaydigan o'pkalar oldinga intiladi, ehtiyotkorlar esa qo'llini sovuq suvga urgisi kelmaydi.

* * *

Insonsevarlikdan mahrum odamga nafrat bilan qarasang, bu ham yomonlikka eltadi.

* * *

Ikkiyuzlamachilik oliyjanoblikni barbod qiladi.

* * *

Zulmatni qarg'ab-yozg'irib turgandan ko'ra, bittagina kichkina shamni yoqqan osonroq.

* * *

Odamlar meni bilmaydilar deb g'am chekma, o'zing odamlarni bilmasligingdan g'am cheksang arziydi.

* * *
Uzoqdagi mashhaqatlarni o'ylamaydigan odam yonginasidagi mayda tashvishlarga duchor bo'ladi.

* * *
Oliyano odam taqdir ne'matlarini munosib kutib oladi. Pastkash odam omad kelishini behuda yaltoqlanib kutadi.

* * *
Munosib odam boshqalarning xatosini takrorlamaydi.

* * *
Oliyano odam vazmin bo'ladi. Pastkash odam alang-jalang qilib hovliqib yuradi.

* * *
Haqiqatni izlayotgan olim juldur kiyimidan va uvog nonidan uyaliq-qimtinib tursa, bu yerda endi gapga o'rin qoladimi?!

* * *
Yoydan uchgan o'q – haqiqatni izlashingizda ibrat bo'lsin. Yoyandoz xato qilsa, o'zgalarni ayblab o'tirmaydi, xatosini tan oladi.

* * *
Turmush voqe'liklarini baholayotgan oliyano er hech narsani ma'qullamaydi ham, rad ham qilmaydi, u hammasiga adolat ko'zi bilan qaraydi.

* * *
Haqiqiy inson hamma narsaga o'zining mehnati bilan erishadi.

* * *
Oliyano odam burchni hamma narsadan yugori qo'yadi. Oliyano odam jasur bo'lsa-yu, burchni anglab yetmagan

bo'lsa, u isyonga berilishi mumkin. Pastkash odam jasur bo'lsa-yu, burch bilan ishi bo'lmasa, talon-torojga berilishi aniq.

* * *
Har kim ham oliyano bo'lib yetishishi mumkin. Odam buni o'zi istasa bas.

* * *
So'z – ishonchli, harakat – dadil bo'lishi lozim.

* * *
Agar odamdagi tabiiy ehtiyojlar uning tarbiyasidan ustun chiqsa, bu odam yovvoyidir. Agar tarbiyasi tabiiy ehtiyojlaridan ustun bo'lsa, u ziyoli odam bo'lib chiqadi. Tabiiy ehtiyojlari bilan tarbiyasi teng – barobar bo'lgan odamgina insoniylikka munosibdir.

* * *
Kimki qirq yil yashab, hamon nafrat uyg'otib yurgan ekan, demak, u odamgarchilikdan chiqqan munofiqdir.

* * *
Qushlar o'limi oldidan qayg'uli chirqillaydilar, odamlar bunday paytda eng muhim gaplarini aytib qoladilar.

* * *
Yoshlarga mensimasdan qaramanglar. Ular ulg'aysalar, ajoyib insonlar bo'lib yetishishi aniq. Kimki qirq yo ellik yoshgacha yashab, hech narsaga erisha olmasa, hurmat qozonolmaydi.

* * *
Taqdir boshidanog hammasini belgilab qo'ygan bo'ladi, bunga hech narsani qo'shib ham, ajratib ham bo'lmaydi.

* * *
Kimki taqdirni tan olmas ekan, uni oliyano odam deb aytoilmaysan.

* * *
Biladigan odam – sevishdan yiroq, sevadigan odam – halovatdan yiroq.

* * *
Tug'ilganidanog o'qishga havas qo'rganlar – oliy insonlardir. Ulardan keyin o'qish-o'rganish paytida o'zini ko'rsatganlar turadi. Undan keyin ehtiyoj tufayli o'qib-o'rgananlar turadi. Ehtiyoj tufayli ham o'qib-o'rganmagan odam – haqiqiy johildir.

* * *
Hech narsani bilmaydigan odam – o'zicha eng baxtiyor odamdirl, u tushunmasdan o'tib ketaman deb qo'rqib o'tirmaydi.

* * *
Men hech narsani o'ylab topayotganim yo'q, o'zimdagini targatyapman. Men o'tganlarga ishonaman va ularni sevaman.

* * *
Boshqalar oldida maqtanmasdan bilimlarimni kengaytirish, charchoq nimaligini sezmasdan o'qib-o'rganish, sira afsuslanmasdan boshqalarga o'rgatish – bularni men qiynalmasdan bajara olaman.

* * *
Olim odam mustahkam irodali va dadil bo'lmasa bo'lmaydi, negaki uning yuki og'ir va yo'li uzoq. Insoniylik unga yuk bo'lib tushadi – bu og'ir emasmi? U o'lgandagina yo'lini yakunlaydi – bu masofa uzoq yo'l degani emasmi?

* * *
Mulohaza qilimmasdan mutolaa qilinsa – bu behudadir. Mutolaa qilmasdan mulohazaga berilsa – bu xayfliadir.

* * *
Oldimda o'tirgan ikki odamdan ham men nimalarnidir o'rganaman. Fazilatlarini ko'rsam, ibrat olaman, nuqsonlarini sezsam, ilashtirib olmaslikka urinaman.

* * *
Xalqni itoatga majburlab o'rgatish mumkin, lekin bilimga majburlab bo'lmaydi.

* * *
Kimki uyidagilarni ezgulikka o'rgata olmas ekan, o'zi ham o'rgana olmaydi.

* * *
Qadimda odamlar o'zlarini komil ko'rish maqsadida o'qiganlar. Hozirgi odamlar boshqalarni qoyil goldirish uchun o'qiydilar.

* * *
Kimki kitobga ko'zlari yonib qaramasa, ularni o'qitgim kelmaydi. Bilimdan hayratga tushmaganlarni o'qitmayman. Bitta burchakni ko'rib, qolgan uchta burchakni topishga qurbi yetmaydiganlarga takrorlab o'tirmayman.

* * *
Shunday o'qiginki, bilim olsang hozir olganing, yo'qsa u yo'qolib ketadiganday tuyulsin.

* * *
Bilimga shunday intilmoq kerakki, oliyanob odam butun fikri-yodini shunga sarflab yuborsin, yeb-ichish va farovon hayot kabi mayda-chuyda narsalar haqida o'ylab ham o'tirmasin.

* * *
Kimki eski narsaga boqib turib yangilik kashf eta olsagina, u o'qituvchi degan yuksak nomga munosib bo'la oladi.

* * *

O'nta uydan iborat bo'lgan har bitta qishloqda mendan ham ko'ra yaxshiroq odamlar topiladi. Lekin ularning bironlasi ham bilimiga muhabbat borasida mening oldimga tusholmaydi.

* * *

Xizmatdan bo'sh vaqtlaringni o'qish bilan o'tkaz, o'qishdan bo'sh vaqtlaringda xizmatningni bajar.

* * *

Rahm-shafqat bor maskanda yashash naqadar ajoyib! Rahm-shafqat maskanida yashamay turib, donishmandlikka erishish mumkinmi?

* * *

Biz peshonamizdagi ko'zlarga ishonamiz, lekin ularga mutlaq ishonib qo'yish mumkin emas. Biz yuragimizga quloq tutamiz, lekin unga ham butkul quloq solib ketaverish yaxshi emas. Shogirdlarim, shuni unutmanglarki, insonni anglab yetish ana shunchalar murakkabdir.

* * *

Avvallari men odamlarni tinglab, ularning qilgan ishlariga ham ishonardim. Endi esa men odamlarning so'zlarini ham tinglayman, ishlarini ham kuzataman.

* * *

Izilu so'radi: "Agar sizni qo'shinga qo'mondon qilib yuborsalar, o'zingiz bilan kimlarni olar edingiz?"

Ustoz dedilar: "Men yo'lbarsga quruq qo'l bilan tashlanadigan yoki daryo ko'rsa, suvga kirib ketaveradigan, hech o'ylab-netib turmasdan o'zini qurbon qiladiganlarni aslo yonimga yaqinlashtirmasdim. Harakat qilish paytida o'ta ehtiyotkor, yetti o'lchab bir kesadigan, muvaffaqiyat qozonish yo'lini o'ylab topishga qodir bo'lganlarinigina o'zim bilan olgan bo'lardim".

* * *

O'rtaq - donolikka yaqin nuqta; unga yetmasdan to'xtash - uni payqamasdan o'tib ketish bilan barobar.

* * *

So'z o'rganmay turib, odamlarni o'rganishga balo bormi?

* * *

Ustoz dedilar: "Shogirdlarim! Meni nimanidir yashiryapti, deb o'ylayapsizlarni? Yo'q, men sizlardan hech nimani yashiryotganim yo'q. Men faqat sizlarga ma'lum bo'lishi lozim bo'lgan narsalar haqidagina gapirayapman".

* * *

Odamlar o'zlariga boylik va shuhrat istaydilar, agar bularni halollik bilan qo'lga kiritib bo'lmasa, o'zingizni chetga olib qoching. Odamlar qashshoqlik va benomu nishon o'lib ketishdan qo'rqadilar, agar bulardan o'zingizni chetga olib qochishning iloji bo'lmasa, or-nomusni yo'qotmagan holda bunga ko'niking.

* * *

Qashshoq odam uchun g'azabni bosish qanchalik qiyin bo'lsa, badavlat odam uchun kekkaymaslik shuncha osondir.

* * *

Kim o'rtacha odamlilikdan ko'tarila olsa, u bilan oliy fazilatlar borasida subhatlashish mumkin, kimki o'rtachalikdan ko'tarila olmasa, bu borada gaplashish befoyyda.

* * *

Yo'ling bir bo'lmaydigan odam bilan reja tuzma.

* * *

Birga tahsil olgan odaming hamma vaqt ham bitta yo'ldan birga ketishga yarayvermaydi; yo'lda birga ketadigan odaming hamma vaqt ham yo'lda sobit turishga yarayvermaydi; sen

bilan yo'lda sobit tura oladigan odamning har doim ham vaziyatga birgalikda ko'nikishga yarayvermaydi.

* * *

Toki inson tirik ekan, hech qachon tushkunlikka tushmasligi lozim.

* * *

Agar hamma kimnidir yomon ko'rib qolsa, buni tekshirib ko'rish kerak, agar hamma kimnidir yaxshi ko'rib qolsa, buniyam tekshirib ko'rish kerak.

* * *

So'z fikr anglatyaptimi, shuning o'zi kifoya.

* * *

Osmon va Zamin ajratib qo'yilgan, ammo ular bitta ishni bajaradilar.

* * *

Ustoz dedilar: "Men o'z ishimdan umid uzdim. O'zining qilgan xatolarini bila turib, vijdonan shu xatolarini tan olgan kishini haligacha uchratmadim".

* * *

Dono odam o'zining nuqsonlaridan uyaladi, ammo ularni tuzatishdan uyalmasligi kerak.

* * *

Hech bir ishda tez muvaffaqiyat qozonaman deb o'ylama va mayda, kichkina foydani ko'zlab, aldanib qolma. Shoshilisang, maqsadga yetib borolmaysan, kichkina foydaga o'riganib qolsang, ulug' ishlarni amalga oshirolmaysan.

* * *

Oliyjanob er aytayotgan gapiga qarab hech kimni maqtamaydi va gapni kim aytayotganiga qarab hech kimni qoralamaydi.

* * *

Garchi tushunmayotgan bo'lsang ham ko'proq tingla, boshqa narsalar haqida gapirayotganingda ehtiyot bo'lib gapir, shunda malomatga kam qolasan. Ko'proq kuzat va xavf-xatarni cheklab o't, hamisha ehtiyotkorona harakat qil, shunda taassufga kam o'rin qoladi.

* * *

Men tug'ilganimdanog donishmand bo'lib ko'z ochgan emasman, men moziyni sevib, undan ibrat izlovchiman.

* * *

Agar bilimni boylik kabi qazib olish mumkin bo'lsa edi, men buning uchun qamchi tutgan zolim bo'lishga ham tayyorman. Ammo uni qazib olib bo'lmas ekan, o'zim xohlagan ishni qilaman.

* * *

Qadimda odamlar ko'p gapirishnixush ko'rmaganlar. Ular yolg'on gapirishni o'zlari uchun eng sharmandali holat deb bilganlar.

* * *

Agarda munosib odam bilan subhatlashmasangiz, bu odamni yo'qotgan hisoblanasiz. Agarda nomunosib odam bilan gaplashib tursangiz, so'zingiz bekor ketgan bo'ladi. Donolar odamni ham, so'zni ham qadrlay olganlar.

* * *

Taqdirni anglamay turib, oliyjanob odam bo'lib yetishish mumkin emas. Lozim bo'lgan narsani anglamay turib, hayotda suyanchiq topolmaysiz. So'zning haqiqiy ma'nosini anglab yetmaguncha odamlarni bilolmaysiz.

* * *

Ustoz dedilar: "Men hech tushunmayman, ishonib bo'lmaydigan odam bilan biror ish qilib bo'ladimi? Aravaning o'qi yo'q ekan, unga chiqishning na hojati bor?"

* * *
Muhabbatsiz odam qashshoqlikka sabr qilishning va hamisha quvnoq yashashning uddasidan chiqolmaydi. Insonsevar odam muhabbatdan –halovat, dono odam esa – foyda topadi.

* * *
Dono odamni ko'rganingda unga o'xshashni o'yla. Nodon odamni ko'rganingda o'zingda shunday nuqsonlar bor-yo'qligini mulohaza qil.

* * *
Eng katta xato – o'z xatolaringni tuzatishga intilmaslikdir.

* * *
Uning o'zini tutishini kuzating, nimalar qilayotganining sabablarini ochishga harakat qiling, bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganiga e'tibor qiling – endi uning siz uchun jumboq joyi qoldimi?

* * *
Daryo sohilida turar ekan, ustoz dedilar: "Hamma xuddi mana shu suv kabi o'tadi. Har bir kun va har bir tun o'tadi".

* * *
Men mukammal darajadagi dono odam bilan uchra-shishdan umidimni uzganman. Agar oliyanob bir odamga duch kelsam, shu ham katta gap edi. Men yaxshi odam bilan uchrashishdan ham umid uzdim. Gapida turadigan sobit bir odam bilan ko'rishsam, shu bas. Hech narsasi bo'lmay turib naqdga da'vo qiladigan, yo'qni bor qilib ko'rsatadigan, muhtojlikni farovonlik deb hisoblaydigan odam sobit odam bo'lolmaydi.

* * *
O'ziga talabchan va o'zgalarga rahmdil odamlar adovatga uchramaydilar.

* * *
Yaxshi temirdan mix yasamaydilar – aqlli odamni qirg'in-barotga yubormaydilar.

* * *
Mulohazali odam kam adashadi.

* * *
Oliyanob odam o'zini, qo'rqoq o'zgalarni ayblaydi.

* * *
Chin ma'naviyat oydinlashsa, hamma narsa oydinlashadi.

* * *
Sukut – hech qachon xiyonat qilmaydigan ishonchli do'st.

* * *
Oliyanob odam birinchi o'ringa burchni qo'yadi. Avval burchni bajaradi, keyin undan keladigan foydani o'ylaydi. Shuning uchun ham uning topganlari odamlarda xusumat ortirmaydi.

* * *
Oliyanob odam soddaga gapiradi, chiroyli harakat qiladi.

* * *
O'ylab ko'r, bergan va'dang to'g'rimi, uni bajara olasammi? Zero, va'dani bajarish – burchdir.

* * *
Rahmdil odam rahmdillikdan zavqlanadi, dono odam manfaat topadi.

* * *
Xatolaringizni ko'rsatsalar, buni tan olsangiz, bu kamtarlikka kiradi. Buni do'stlar davrasida aytasangiz, bu soddalik, ularga ishonganingizdir. Buni hammaning oldida ochiq aytish faxr uyg'otadi.

* * *
Kimki rahmdillikni yoqtirsa, undan o'radigan odam bo'lmasa kerak. Kimki rahmsizlikdan nafratansa, shu odam boshqalarga rahmdillik ko'rsata oladi va barcha berahmliklardan o'zini tiyadi.

* * *
Mukammal oliyanoblikning asosi beshta, bular: jiddiylik, saxovat, haqoniylik, rahmdillik va ezgulik.

* * *
Kimki mish-mish gap tarqatayotgan bo'lsa, u odam ezgulik yo'lidan qaytdim deb hisoblayversin.

* * *
Men haqiqatni maqsad qilib oldim, bu ishda ezgulik ko'makchim bo'ldi, rahmdillikni tayanch qilib oldim va san'atdan zavqlandim.

* * *
Kimki o'zgalarni g'oyat qadrlar ekan, falakka (Yaratganga) a'lo darajada xizmat qilyapman deb hisoblasa bo'ladi.

* * *
Yuksak ma'naviyati bo'lish -bu qalb go'zalligidan kelib chiqadi. Kingadir muntazam zarda qiliadigan odam, to'xtovsiz nimadandir qo'rqadigan odam va uzzukun lazzat komida qolgan odamlar qalb go'zalligiga erisha olmaydilar.

* * *
O'zini bir joyga jamlayolmagan, boshqa narsalarga tez-tez alahstrayveradigan odamning ko'zi ochiq bo'lsa ham hech narsani ko'rmaydi, qulog'i ochiq bo'lsa ham hech narsani eshilmaydi, chaynayotgan bo'lsa ham ta'm bilmaydi.

* * *
Odob-axloqni o'zlashtirmay turib, ishonch qozonolmayсан.

* * *
Agar odam to'g'ri bo'lsa, hamma narsani buyruqsiz bajaraveradi. Agar odam to'g'ri bo'lmasa, hatto buyruqqa ham quloq osmaydi.

* * *
"Chinakam odamiylik mendan yiroqda" deb o'ylayapsizmi? Uni chin dildan chorlang qani, shu zahoti u yetib keladi.

* * *
Mashaqatni rohatdan afzalroq deb bilsangiz, mana shuning o'zini odamiylik deb atayvering.

* * *
Nojoiz qiliqlarni yengish kechagidan ko'ra bugun ancha yengil kechadi.

* * *
Quyidagi besh fazilatni namoyon eta olgan odam muruvvatlidir: tahqirga olib kelmaydigan izzat-hurmat, hammani zabt eta oladigan himmat, odamlarni ishonтира oladigan haqgo'ylik, muvaffaqiyatlarga garov bo'ladigan zakovat, odamlarni boshqarish imkoniyatini beradigan mehr-shafqat.

* * *
Chinakam insoniy er hamma narsaga o'z kuchi bilan erishadi.

* * *
Uydan tashqarida o'zingizni xuddi mehmon kutib olayotgan odamday sermulozamat tuting. Odamlarning xizmatidan foydalanar ekansiz, o'zingizni tantanali marosimda qatnashayotgan odam deb tasavvur qiling. O'zingizga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmang. Shunda davlatda ham, oilada ham noroziliklar kelib chiqmaydi.

* * *
Rahbarlik qilayotganda dam olishni unut, topshiriqni bajarayotganingda halol ish tut.

* * *
Oliyjanob er o'ziga ko'zlab turgan suyanchiniqni muruvvat yuzasidan boshqalarga taklif qiladi. O'zi qozonay deb turgan muvaffaqiyatni boshqalar qozonishiga ko'maklashadi. Ishonchli tayanch topish qobiliyati – mana, munosib erning haqiqiy belgisi.

* * *
Men haligacha ezgulikka xuddi go'zal ayolga intilganday intiladigan erkakni uchratganim yo'q.

* * *
O'zingni yengish va o'zingdagi muhim fazilatlarini namoyon etish – mana bu haqiqiy insoniylik belgisi. Insoniy bo'la olasanni yoki bo'lmaysanni – bu faqat o'zimizgagina bog'liq.

* * *
Qishloqning erkato'yi – yaxshilikning dushmani.

* * *
Oliyjanob odamlar boshqalar bilan inoq, murosada yashaydi, lekin boshqalarga (ko'r-ko'rona) ergashib ketavermaydi. Razil odamlar boshqalarga ergashib ketavermaydi, lekin ular bilan murosada qili olmaydi.

* * *
Rahmdillikka intilish barcha razilliklardan qutqaradi.

* * *
Bir burda non bilan obi yovg'orni yutib, buloq suvini simirib, boshingga blagimni yostiqliq qilib uxlasam – mana shuning hammasida rohat bor. Halollikdan kelmagan boyilgu soxta shon-shuhrat – men uchun suzib yurgan bulutday gap.

* * *
Oliyjanob er haq yo'l borasida qayg'uradi-yu, ammo nima yeb-ichishi haqida o'ylab ham ko'rmaydi. U uzzukun dalada och qolib ishlayverishi mumkin. U o'zini ilimga bag'ishlashi va mukofotlarni qabul qilishi mumkin. Ammo u haq yo'lidan yurish borasida tashvish chekadi-yu, o'zining qashshoqona hayotini o'ylab ham o'tirmaydi.

* * *
Agar odam irodali, dadil, samimiy va kamsuqum bo'lsa, demak, u insoniylikka juda yaqin kelib qolgan odam ekan.

* * *
Oliyjanob er to'yguncha yeb-ichishga, tilla-zarga ko'milib yashashga intilmaydi. U ish yuzasidan shoshiladi-yu, gapga kelganda o'zini tiyib turadi. U yaxshi fazilatli kishilar bilan subbatda o'zidagi nuqsonlarni to'g'rilab oladi. Mana shunday odamlar haqida "u ezgu ta'limotga sodiq" deb aytsa arziydi.

* * *
O'q-yoy otishning mohiyati mo'ljalga tekkitishgina emas, negaki odamlar turli xil kuchga egadirlar.

* * *
Oliyjanob er hech kimdan yolg'on-yashiq gap kutmaydi, ammo uni aldasalar, darrov sezib oladi.

* * *
Chiroyli gap, vaysaqilik ezgu ishlarga to'sqinlik qilib qoladi. Maydakashlik ulug'ishlarning boshiga yetadi.

* * *
Martabam yuksak emas, deb tashvish chekma. Yuksak martabaga munosib bo'la olish borasida qayg'ursang arziydi. Meni hech kim tanimaydi deb qayg'urma. Seni hammaga tanitadigan ish haqida o'yla.

* * *

Ulug' odamlar bilan uchrashganda ularga tenglashish borasida qayg'ur. Razil odam bilan uchrashib qolsang, o'zingga nazar tashla va nuqsonlaringni yo'qotish haqda o'yla.

* * *

Eng munosib erlar butun dunyoning kishanlaridan qochib yurishadi, ularning izidan ma'lum bir maskanga bog'lanib qolganlar keladilar, ulardan so'ng lazzatga berilgan hirs bandalari keladilar, ularning izidan esa g'iybat-bo'htonlardan qochganlar keladilar.

* * *

Oliyjanob er ezgulikka intiladi, oddiy odam o'zining mayda tashvishlari bilan band bo'ladi. Oliyjanob odam jazoni to'g'ri tushunadi, oddiy odam shafqat qilishlaridan umidlanadi.

* * *

Oliyjanob er o'zining yuksakligini his qilgan holda buni hech kimga ko'z-ko'zlamaslikka intiladi. U odamlar bilan oson til topishadi, odil va haqoniylicha qoladi.

* * *

Oliyjanob odamlarning ko'ngli hamisha yaxshilikka to'la bo'ladi, ko'ngli yaxshilikka to'la odam esa hamisha ham oliyjanoblik qilavermaydi. Kim rahmdil bo'lsa, demak, u jasur odamdир, ammo jasur odam hamisha ham rahmdil bo'lavermaydi.

* * *

Oliyjanob erning xato qilishi quyosh va oyning tutilishiga o'xshaydi – xato qildimi, hamma buni sezadi, gap qiladi; xatosini to'g'rtihsa, yana hamma unga tikiladi.

* * *

Oliyjanob odam uch xil vaziyatda turlicha ko'rinadi: uzoqdan qarasangiz, salobatli-day, yaqinlashganda xush-

muomala bo'lib ko'rinadi, yoningizda tursa, gaplari jiddiy eshitihsadi.

* * *

Agar odam ezgulik yo'lida sobit turmas ekan, butun vujudi bilan intilmas ekan – uning o'lik yoki tirikligining farqi nimada?

* * *

Oliyjanob er o'limga qarshi bora oladi, lekin u bekordan-bekor o'lib ketavermaydi; uni aldash mumkin, lekin ahmoq qilib bo'lmaydi.

* * *

Oliyjanob er hech narsani oshirib-toshirmaydi, yergayam urib tashlamaydi, hamisha adolat bilan baholashga intiladi.

* * *

Odamning to'g'ri yashashiga shubha qilasizmi? Bilmadim, bilmadim, bunday bo'lishi mumkinmi? Kichkina yoki katta aravaning shotisi aravaga mahkamlangan bo'lmasa, bunaqada qanday qilib unga chiqib haydash mumkin?

* * *

Oliyjanob erda kamtarlik bamaylixotirlik bilan qo'shilib, vujudga singib ketgan bo'ladi. Dumbul odam bamaylixotir ko'rinsa-da, dimog'dorligi burniga tepib turadi.

* * *

Dumbul odamlar oliyjanob erni mensigisi kelmaydi, ammo u buyuklicha qolavermaydi; dumbul odam buyuk ishlarga yaramaydi, ammo uni dumbullar maqtab-alqab yuradilar.

* * *

Oliyjanob erning ezgu ishi shabboda misoli rohatbaxsh; dumbul odamning qiligi esa maysaga o'xshaydi, shamol o'tgan yoqqa egilib qoladi.

Yaxshi bo'lishga o'zgina tirishib ko'ring, yomonlik qilishga
yaramay qolasiz.

Mehrbonligingizni ko'rsatish mavridi kelgan ekan, oldinga
hech kimni, hatto ustozingizni ham o'tkazmang.

Yaxshi odamlar murosani ko'zlaydi, yomonlar
tamagirlikni.

Oliyjanob odam kishilarga o'zlaridagi ezgu fazilatlarini
kashf etishni, salbiy jihatlardan nari bo'lishni, ularni
oshkor qilmaslikni o'rgatadi. Razil odam buning teskarisini
qiladi.

Kindir so'radi: "Yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytar
deyishadi, shu to'g'rimi?" Ustoz dedilar: "Unda yaxshilikka
qanday javob qaytarasiz? Yomonlikka, albatta, odilona javob
qaytarish kerak, yaxshilikka esa yaxshilik bilan".

Yomon odamlarni izlab borish, ularni tinglash
yomonlikning muqaddimasidir.

Odamlar yaxshilikning yaxshiligini anglab yetganlarida
yomonlikning yomonligi ham bilinib qoladi.

Ustoz dedilar: "Oldimdan yaxshilik chiqib qolsa,
unga shunday intilamanki, go'yo kimdir uni egallab olib
ketadiganday. Yomonlik chiqib qolsa, undan shunday
qochamanki, xuddi oyog'imni qaynoq suv kuydirganday".

Yomonlikdan shikoyat qilsangiz, u ikki barobar ko'payadi.
Uning ustidan kulsangiz, majaqlanadi.

Kimki o'zgalarning yaxshiligini qadrlasa, o'zidagi
yaxshiliklarni qadrlagan bo'ladi.

Sen namoyon etgan xatti-harakataringni, orzularingni
yaxshilikka yo'naltir, shunda xalqning xulqi ham yaxshilik
tomonga qarab buriladi.

Yaxshilik shuhrat ilinjida qilinmaydi, ammo shuhratning
o'zi yaxshilikning izidan keladi. Shuhrat qozonganlar mukofot
haqida o'ylamaydi, ammo mukofotning o'zi shuhratning izidan
keladi. Mukofotlanganlar raqobatni o'ylamaydilar, ammo
raqobat mukofotning izidan paydo bo'ladi. Xullas, oliyanob
er ezgu ishini amalga oshirayotganda ham ehtiyotkorona ish
qilmog'i lozim bo'ladi.

Barcha qilmishlar ichida eng mudhishi -berahmlikdir.

Razil odam xato qilganida ham o'zini oqlaydigan so'z
topishga harakat qiladi.

O'zini jo'shqin so'zlar bilan himoya qilgan odam ko'pincha
ko'zga yomon ko'rinish qoladi.

Qadimgilarning qaysarligi o'ziga xoslik bo'lib ko'ringan,
hozir bu axloqsizlik bo'lib tuyuladi. Qadimgilarning gerdayishi
vazminlikdan kelib chiqqan edi, hozir bu qo'rslik bo'lib

tuyuladi. Qadimgilarning tentakligi ularning to'g'riso'zligida namoyon bo'lardi, bugungi kunda bu faqat aldatchilikning o'zginasidir.

* * *

Faqat manfaatni ko'zlab ish tulsiz, xusumat ko'payadi.

* * *

Ostonangizni supurib-sidirmay turib, qo'shningizning tomidagi qordan shikoyat qilmang.

* * *

Uch yil umrini ilimga sarflab, endi yuksak martabalarini orzu qilmayotgan odamni uchratish oson emas.

* * *

Har kimning xatosi o'zidagi g'arazning ko'lamiga mos ravishda belgilangan bo'ladi. Odamning qilgan xatolariga nazar solsang, uning qanchalik insoniy yoxud noinsoniyligiga guvoh bo'lasan.

* * *

Adolati qaror chiqarish lahzalaridagi harakatsizlik qo'rqqulikdir.

* * *

Men axloqi yaxshilikka o'zgar olmayotgan, o'rgatganini o'zlashtir olmayotgan, vazifasini bilgan holda uni bajar mayotgan va nuqsonlarini bartaraf etishga qunt qilmayotgan odamlarni ko'rsam, achinib ketaman.

* * *

Isrofgarchilik - noshukurlikdan, tejab-tergash - qashshoqlikdan kelib chiqadi. Noshukurlikdan ko'ra tejab-tergagan afzal.

* * *

Faqat foyda dardida harakat qilish nobakorlik yo'lidir.

* * *

O'zgalarning fikr-mushohadasi ichida o'ralashib qolish faqat ziyon keltiradi.

* * *

Mug'ambirona nutqlar va yuzning ayyorona ifodasida insoniylik juda siyrak uchraydi.

* * *

Podshoh davlatni aql bilan boshqargan davrdakambag'allilik va muhtojlikda yashash uyat. Davlat aqlga xilof ravishda boshqarilayotgan bo'lsa, boylik va izzatda yashash uyat.

* * *

Xalq uchun insonsevarlik, rahm-shafqat olov va suvdan ham zarurroqdir. Men olov va suvdan o'lganlarni ko'rganman, ammo mehr-muhabbatdan o'lganlarni hech ko'rmadim.

* * *

Oliyjanob er taxtda o'tirganida unga xizmat qilish oson, ammo unga ma'qul bo'lish qiyin ish. Agar qonun-qoidalariga rioya qilib, unga yaltog'lanaversang, yuqmayсан. U odamlarni boshqarishda har birining iste'dodidan kelib chiqib ish tutadi.

Dumbul odam taxtda o'tirganida unga xizmat qilish qiyin, ammo unga yuqib qolish juda oson. Qonun-qoidadan chiqib bo'lsa ham unga yaltog'lanaversang, unga ma'qul kelishning mumkin. U odamlarni boshqarganda talabchanlikni nihoyatda bo'shashtirib yuboradi.

* * *

Tartib-intizom bor mamlakatda harakatlaring va nutqing dadil bo'lsin. Tartib-intizom o'lda-jo'lida bo'lgan mamlakatda harakatlaring dadil bo'lsin-u, gaplaringga ehtiyot bo'l.

* * *

Xalq sahrodagi o'simlik bo'lsa, hukmdor – shamol. Shamol qayoqqa qarab essa, maysa shu tomonga egiladi.

* * *

Insonparvarlik – olomonning qo'lidan kelmaydigan ishdur. Agar mamlakat hukmdori insonparvar bo'lsa, mamlakatda uning dushmani qolmaydi.

* * *

Razil odam hukmdorga xizmat qila oladimi? U hali o'z maqsadiga erishmagan ekan, erishish yo'lidagina tashvish chekadi. Erishganidan so'ng uni yo'qotib qo'ymaslik borasida qayg'uradi. Yo'qotib qo'ymaslik borasida qayg'urar ekan, bu yo'lda u hamma narsani qilishga qodir bo'ladi.

* * *

Ezgulik yo'lidagi hukmdor Qutb yulduziga o'xshaydi, barcha falak jismlari uning tevaragida aylanadi.

* * *

Agar hukmdor urf-odatlarini sevsa, xalq ichida uni izzat-hurmat qilmaydigan topilmaydi. Agar hukmdor adolatni sevsa, hech kim bo'ysunmaslikni ixtiyor etolmaydi. Agar hukmdor haqiqatni sevsa, xalq ichida baxtsiz odam qolmaydi.

* * *

Hatto eng adolati hukmdor taxt tepasiga kelganida ham saltanatda insoniylik bir avlod o'tganidan keyingina qaror topadi.

* * *

Agar halol odamlarning amalini ko'tarib, vijdonsiz odamlar ustidan hukmronlik qilishga yo'l qo'yilsa, xalq itoat qiladi. Agar vijdonsizlarni ko'tarib, halol odamlar ustidan hukmronlik qilishga yo'l qo'yilsa, xalq isyon ko'taradi.

* * *

Agar sen o'zingni o'zing tuzata olsang, odamlarni boshqarishda qiyinalmayсан. Agar o'zingni o'zing tuzata olmasang, unda boshqalarni qanday qilib tuzatasan?

* * *

Agar podshohga risoladagiday xizmat qilaman desang, odamlar buni xushomadga yo'yadilar.

* * *

O'q otishga o'rgatmay turib odamlarni urushga yo'llash – bu ularga sotqinlik qilish deganidir.

* * *

Ayollar va razil odamlar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish – qiyindan qiyin ish: agar ularni o'zingga yaqinlashtirsang, intizomsizlikka yo'l qo'ya boshlaydilar, o'zingdan uzoglashtirsang, dushmanlik yo'lga o'tadilar.

* * *

Bugungi kunda ota-onaga hurmat deganda faqat ularni boqishigina tushunadilar. Uydā axir hayvonlarni ham boqasizlar-ku. Agar ota-onangizni chinakam izzat-hurmat qilmasangiz, ularni boshga ko'tarmasangiz, jonivorlarni boqishdan nima farqi qoladi?

* * *

Otasi tirikligida uning xatti-harakatlariga boqib o'rnak olgan, uning vafotidan so'ng esa qilib ketgan ishlaridan o'rnak olgan va uch yil mobaynida mana shu yo'lni qat'iy tutolgan odamningina "Ota-onasiga mehribon edi", deb aytish mumkin.

* * *

Ota-onangizga hamisha xushmuomalada bo'ling. Agar aytganlaringizga ular yaxshi e'tibor qilmasalar, siz bari bir avvalgiday izzat-hurmat va farzandlaricha tobelikni davom ettiring. Agar ichingizda siz ularning aytganlaridan afsus-

lanayotgan bo'lsangiz ham baribir o'zingizning noroziligingizni bildirmang.

* * *

Ota-onangga risoladagiday izzat-hurmat bilan xizmat qil. Vafot etsa, risoladagiday urf-odatlar asosida dafn qil va marosimlarini ham bekamu ko'st ado et.

* * *

Ota-onangning yoshini hech unutma: ularning yoshini eslab turish farzandga ham quvonch, ham tashvish ato etadi.

* * *

Ota-onasini izzat-hurmat qiladigan farzand ularni o'zining betobligi bilangina afsuslantiradi.

* * *

Agar davlat xizmatida haddan ortiq tirishib ishlasang, podshoh senga ishonmay qo'yadi. Agar do'stlaring bilan munosabatda haddan ortiq samimiy bo'lsang, ular ham senga ishonmay qo'yishadi.

* * *

Do'stlar bilan munosabat qilayotganda ularning qo'lidan keladigan ish doirasidagina maslahat qil, qoidadan chetga chiqmaydigan ishlarigagina unda, ularni muvaffaqiyatli amalga oshadigan ishlarigagina yo'lla.

* * *

Axloq masalasida sendan past turadigan odamlar bilan do'st tutinma.

* * *

Do'stingning nuqsonlaridan quvonma, fazilatlaridan nafratlanma.

* * *

Tabiatda gul ochmaydigan maysa ham, meva bermaydigan daraxt ham mavjudligi bor gap.

* * *

Agar odam insonlarga xos bo'lgan fazilatlarga ega bo'lmasa, unga musiqaning nima keragi bor?

* * *

Musiqqa -kayfiyat chashmasi. Kayfiyat esa inson tuyg'ulariga xosdir. Shuning uchun ham odam musiqasiz yashay olmaydi.

* * *

Ma'rifiy ta'limni she'riyatdan boshlanglar, qadriyatlarini o'rgatish bilan mustahkamlab, musiqqa ta'limi bilan yakunlanglar.

* * *

Agar odamlar meni tushunmasalar, bundan qayg'urmayman. Agar odamlarni men tushunolmay qolsam, bunga qayg'urishim kerak.

* * *

Odam to'g'ri ish tutishi uchun uchta yo'l bor: birinchi eng qulay yo'l - fikr yuritish. Ikkinchi eng osoni - boshqalarga qarab ish tutish. Uchinchi esa eng achchig'i - boshdan o'tkazish.

* * *

Har qanday odamni xuddi o'zing kabi hurmat qil. O'zingga qanday muomala qilishlarini xohlasang, boshqalarga ham shunday muomala qil - eng afzali shu.

* * *

Fikrlaringni pokiza saqlashni o'rgan. Mudhish fikrlardan forig' ekansan, demak, mudhish qilmishlardan ham forig' bo'la olasan.

* * *

Darg'azab odamda zahar ko'p bo'ladi.

* * *

Oliyjanob odam o'z hayotida uch narsadan ehtiyot bo'lmog'i lozim: kuching to'lib-toshgan yoshlik chog'ingda - ayollardan; qudrating hamma narsaga yetib turgan navqiron paytingda - raqobatdan; kuching zaiflashib, munkillab qolgan mo'ysafidlikda - ziqnalikdan saqlanganing durust.

* * *

Bizlarning har birimiz - podshohdan tortib, oddiy odamgacha - axloqimizni mukammallashtirib borish haqida qayg'urishimiz lozim, negaki bu umumiy farovonlikka xizmat qiladi. Alqissa, ibtido mukammallikdan boshlanmas ekan, intho mukammal bo'lishidan umid qilish mumkinmi?

* * *

Yaxshilik nima ekanligini bilmaydigan odamlarda ham yaxshilikning ildizi bo'ladi.

* * *

Manfaati tegadigan do'stlar - to'g'riso'z, samimiy, ko'p narsadan boxabar bo'ladi. Ziyoni tegadigan do'stlar - ikkiyuzlamachi, g'arazgo'y va ezma bo'ladi.

* * *

Hayot qonunlarini barcha dono insonlar ham tushunib yetavermaydi, ammo vaqt o'tib boshga tushganni ko'z ko'rib borgani sari donolar hayot qonunlarini anglab yetadilar. Hayot qonunlari oddiy odamlar uchun "ikki karta ikki - to'rt" deganday aniq gap. Ammo odamlar hayot qonunlariga amal qila borganlari sari, bu qonun murakkablashib boradi.

* * *

O'n besh yoshimda fikru zikrim kitobda bo'ldi. O'ttiz yoshdan boshlab men mustaqil yashay boshladim. Qirq yoshimda shubhalardan forig' bo'ldim. Ellik yoshimda falak irodasini anglab yetdim. Oltinshimga kelib chinni yolg'ondan ajrata boshladim. Yetmish yoshimga kelibgina men yuragimning aytganlariga qulq tutadigan bo'ldim.

MUNDARIJA

Kirish	3
Xitoy tarixining Konfutsiygacha bo'lgan davri haqida qisqacha so'z	4
Birinchi bob	
Konfutsiyning tug'ilishi, bolaligi va balog'at yillari	16
Ikkinchi bob	
Konfutsiy faol hayotining boshlanishi	22
Uchinchi bob	
Qadimgi xitoy donishmandlarining hikmatlari va Konfutsiyning bu haqda aytgan fikrlari	28
To'rtinchi bob	
Konfutsiyning tarixiy "Chun-Tsyu" asarini va boshqa kitoblar mazmunini qog'ozga tushirishi	39
Beshinchi bob	
Konfutsiyning uzog'ni ko'ra olish iste'dodi va uning oliyanobligi	44
Oltinchi bob	
Konfutsiy - davlat arbobi	52
Yettinchi bob	
Konfutsiy hayotining so'nggi yillari. Tarixiy asarlarining yozib tugatilishi	63
Sakkizinchi bob	
Konfutsiy ta'limotining g'alabasi	70
Konfutsiy hikmatlari	81



Karyagin K. M.

KONFUTSIY

Tarixiy-biografik ocherk

«Fan» nashriyoti
Toshkent-2019

Muharrirlar	N. Islomov
Badiiy muharrir	U. Sapayev
Sahifalovchi	O. Sobir o'g'li
Musahhih	E. Erkin

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015-y.
03.12.2019-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 84 × 108^{1/32}, «Cambria» garnituras.
Kegli 11. Shart. b.t. 5,6. Nash. h.t. 6,3. Adadi 2500 nusxa.
Buyurtma raqami № 421. Bahosi shartnoma asosida.

«Fan» nashriyotida nashrga tayyorlandi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy.

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shoh ko'chasi, 44-uy.

-1768-

6000 =